

ASQAROVA DILOROM QURBONOVNA

**BOLALALAR NI MAK TAB TA LIMIGA
TAYYORLASH METODIKASI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

ASQAROVA DILOROM QURBONOVNA

**BOLALALARНИ MAKTAB
TA'LIMIGА TAYYORLASH
METODIKASI**

**5111800- Maktabgacha ta'lism yo'nalishi talabalari uchun
o'quv qo'llanma**

YO'K: 741.14.334
KBK 74.105 (5O`zb)

O'quv qo'llanmada bolalalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasining o'ziga xos xususiyatlari, asosiy yo'nalishlari, shakllari va metodlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining qisqa muddatli guruhlarida bolalarni mактабга тayyorlash, "Ilk qadam" davlat dasturi asosida bolalarni savodga o'rgatish, bolaning mактабта'limiga tayyorgarligi tahlili, tashxislash usullari, bolalarning mактабта'limiga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar, maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mактаб hamkorligiga oid ma'lumotlar keng yoritilgan. Bu jarayonda qo'llanadigan zamonaviy pedagogik tehnologiyalar ko'rsatib o'tilgan, asosiy tushunchalar izohidan tashkil topgan glossariy berilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5111800-maktabgacha ta'lim bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi.

Taqrizchilar:

Namangan davlat universiteti
maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi
dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi
M. Abdullayeva

Qarshi davlat universiteti
maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasi
mudiri, pedagogika fanlari nomzodi,
dotsent **N.X. Oripova**

O'quv qo'llanma Namangan Davlat Universiteti o'quv-uslubiy kengashining
2019 yil 11dekabrdagi 4-sonli yig'ilishi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISB: 978-9943-602-6-2-2

© Asqarova D.

24683B

© "Navro'z" nashriyoti
Toshkent 2020 yil

Maktabgacha ta’lim bosqichi uzlusiz ta’limning eng muhim, mas’uliyatli, bola tarbiyasi va ta’lim olishi poydevori, asoslari shakillanadigan bosqichidir. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy me’rosi va ma’naviy-axloqiy an’analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagи bolalarda bilim olish ehtiyojini, o’qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o’zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog’ligini ta’minlashdan iborat. Bu bosqichda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash masalasi eng dolzarb masalalardan sanaladi. Aynan shuni e’tiborga olgan holda bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta’lim sohasida, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash sohasida tub o’zgarishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim sohasida Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev faol tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan ishlар, qabul qilinayotgan farmon va qarorlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, Prezidentimiz tomonidan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 2707-sonli Qaror (2016-yil, 29-dekabr), «Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PF-5198-sonli Farmon (2017-yil 30-sentabr), O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish to’g’risida” gi 528-sonli Qarori (2017- yil, 19-iyo’l), “O’zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Kontsepsiysi” kabi rasmiy hujjatlarning qabul qilinishi maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda alohida o’rin egallamoqda.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash o’zining bir qator mezonlariga ega. Bu jarayonda bolalarni jismoniy, aqliy, ruhiy, irodaviy va ma’naviy jihatdan maktabga tayyorlash ularning maktab ta’limida zo’riqmasligi, ta’limning uzlusizligi va samaradorligini ta’minlovchi asoslardandir.

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonini takomillashtirishda bo’lajak pedagoglarning ilmiy va uslubiy ta’minlanganligi, uning kasbiy tayyorgarligi asosiy masalalardan sanaladi. Ayniqsa, bolalarning jismoniy xususiyatlari, antropometrik ko’rsatkichlari, aqliy-irodaviy jihatlari, ruhan maktabga tayyorligi ularning intellektual va jismoniy jihatdan maktab ta’limiga moslashishi, fanlarni zo’riqishlarsiz o’zlashtirishida ahamiyatli sanaladi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda bu boradagi metodik bilimlarga tayanish, aniq tizim va ketma-ketlikka asoslanish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda “Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” fanining mazmunidan kelib chiqib tayyorlangan ushbu o‘quv qo‘llanma maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bakalavriat talabalari, shu yo‘nalishning maxsus sirtqi va sirtqi ta’limi talabalari hamda bolalar bog‘chalari tarbiyachilariga kerakli ma’lumot va metodik yordam bera oladi. Qo‘llanma zamonaviy pedagogik tehnologiyalarni hisobga olib tayyorlangani va bugungi kun talablarliga to‘laqonli javob berishi bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” fanining asosiy maqsadi bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlari – tarbiyachilarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari, metodikasi va amaliyotiga oid zamonaviy tehnologiyalar bilan tanishtirish, bu boradagi ta’lim tehnologiyalari va didaktik usullarining qo‘llanishiga oid ko‘rsatmalar berishdan iborat. O‘quv qo‘llanmadan zaruriy adabiyotlar ro‘yxati, muhim tushunchalar izohini o‘z ichiga olgan glossariy o‘rin olgan. Bu esa soha mutaxassislari uchun kerakli ma’lumotlar bilan tanishish imkonini beradi.

O‘quv qo‘llanmada bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasining o‘ziga xos xususiyatlari, asosiy yo‘nalishlari, shakllari va metodlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qisqa muddatli guruhlarida bolalarni maktabga tayyorlash, “Ilk qadam” davlat dasturi asosida bolalarni savodga o‘rgatish, bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligi tahlili, tashxislash usullari, bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar, maktabgacha ta’lim tashkiloti, oila va maktab hamkorligiga oid ma’lumotlar keng yoritilgan. Bu jarayonda qo‘llanadigan zamonaviy pedagogik tehnologiyalar ko‘rsatib o‘tilgan, asosiy tushunchalar izohidan tashkil topgan glossariy berilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining 5111800-maktabgacha ta’lim bakalavriat yo‘nalishi talabalari uchun tavsiya etiladi.

“BOLALALARНИ MAKTAB TA’LIMIGА TAYYORLASH METODIKASI” FANINING

MAQSAD VA VAZIFALARI

Tayanch tushunchalar: *ta’lim, maqsad, vazifa, mazmun, davlat talabi, maktabga tayyorlash, rivojlantirish, maktabgacha ta’lim, aqlan rivojlanish, ma’nan rivojlanish, jismonan rivojlanish.*

Davlat talablarida maktabgacha ta’lim-tarbiyaning mazmuni. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang’ich turi hisoblanadi hamda O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g’risidagi Qonun»i va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida tashkil etiladi.

Inson, uning har tomonlama uyg‘un kamol topishi, shaxs manfaatlarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlari va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual me’rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O’zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Maktabgacha ta’lim bolaning sog‘lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta’minlaydi, unda o‘qishga intilish hissini uyg‘otadi, uni muntazam ta’lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta’lim bola 6-7 yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini ro‘yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta’limni rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo‘лади:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta’limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta’minlash;
- zamonaviy o‘quv-uslubiy qo’llanmalar, texnik vositalar, o‘yinchoqlar va o‘yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagи bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlarning har xil turlari uchun turli variantlardagi

- dasturlarni tanlab olish, maktabgacha ta'limning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;
- maktabgacha ta'lim va sog'lomlashtirish tashkilotlari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish kabi vazifalarni maqsad qilib qo'yadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida "Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizom" da maktabgacha ta'limga alohida urg'u berilib, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlangich turi hisoblanadi hamda O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida» qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», talablari asosida tashkil etiladi.

Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lim jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, uzining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish;
- bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish va tugatish qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Qonunga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkilotlari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- Umumiy turda maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari ;
- Inkulyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta'lim tashkilotlari ;
- Qo'shma tipdagи maktabgacha ta'lim tashkilotlari.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir tashkilotdan ikkinchisiga ko'chirish, tashkilotdan chiqarish davlat tashkilotlarida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo'lmagan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa, tashkilotning Ustavi bilan belgilanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bo‘lgan bolalar uchun maxsus Maktabgacha ta’lim tashkilotlari yoki guruqlar tashkil etish ham “Maktabgacha ta’lim muassasasi to‘grisidagi Nizom”da ko‘rsatib o‘tilgan.

Har bir sohada bo‘lganidek, maktabgacha ta’lim tizimida ham maktabgacha ta’lim tashkilotlariga tegishli ma’lumotga, kasb tayyorgarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar ggedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egadirlar.

Ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta’milanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining o‘quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta’lim turiga davlat talabalaridan kelib chiqqan holda Maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsiya etilgan yangi dasturlar, metodik qo‘llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o‘zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, hurmat, e’tirof pedagogikasi asosiga quriladi. O‘zbekiston Respublikasining maktabgacha tarbiya konsepsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi bolaning o‘sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asoslanib, ta’lim-tarbiya tizimida odob, estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi o‘ringa chiqarish, grammatikani u qadar majburiy o‘rgatmaslik lozim bo‘ladi. Shunday yo‘l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi. Xulosa qilib shuni ta’kidlash zarurki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Xususan ta’lim sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi va ta’lim sohasidagi boshqa qonunlar buning yakkol dalilidir. Bulardan kuzlangan maqsad yoki davlatimizga kerakli bo‘lgan etuk, har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni tarbiyalash va ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo‘yilgan. Albatta, bu xayrli ishlarni ta’lim-tarbiyani birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan oila, maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borish maqsadga muvofiqdir, deb ko‘rsatib o‘tilgan. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta’lim tizimiga e’tibor berishimiz, uni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan bolalarni har tomonlama bilimli, odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliy maqsadimizdir.

Maktabgacha ta’limning maqsadi bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talabalariga muvofiq sog‘lom va yetuk, maktabga o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirishdan iborat.

Maktabgacha ta'limning vazifalari: bolalarni xalqning boy milliy, madaniy, tarixiy merosi va ma'naviy-axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat. Ta'lim tizimi rivojlanishining zamonaviy davrida maktabgacha ta'lim bosqichida quyidagicha o'zgarishlar yuz bermoqda: maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me'yoriy asosi takomillashib bormoqda; tashkilotlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining yangi shakllariga o'tmoqda; nodavlat tashkilotlar tarmoqlari kengaymoqda; ta'limning ilg'or tehnologiyalari tatbiq etilmuoqda; kadrlar malakasini oshirish tizimi takomillashmoqda; maktabgacha ta'lim tashkilotlarining muqobil shakllari tatbiq etilmuoqda. Moliya institutlari ishtirokida investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining innovatsion va eksperimental faoliyati kengaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-teknika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va tehnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama: intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi.

Mavjud muammolarni amaliy bartaraf maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Dastur asosida quyidagi keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan:

-bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun ilg'or xorijiy tajribalarni inobatga olgan holda zarur shart-shroitlar yaratish;

-maktabgacha ta'lim mtashkilotlari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarni zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish;

- 2200 ta maktabgacha ta'lim tashkilotining moddiy-teknika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar,

Ushbu tadbirdi amalga oshirish uchun jami 2.2 trillion so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutilmoxda.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi «Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablari» orqali nazorat qilinadi. Davlat talablardan maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» dalat o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

«Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’limning asosiy omili bo‘lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berilgan. Sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishidir.

Davlat talablari asosida tuzilgan «Ilk qadam» dalat o‘quv dasturiga asosan maktabgacha yoshdagi bolalarning ota-onalari, tarbiyachilar hamda o‘zлari uchun turli sohalar bo‘yicha dasturlar, qo‘llanmalar, tavsiyalar, qiziqarli kitoblar, aqlan va jismonan rivojlantirishga yordam beradigan turli-tuman o‘yinchoqlar va ta’lim tarbiya qurollari yaratiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan Davlat talablari belgilangan ko‘rsatkichlarga erishish 6-7 yoshdagi bolalarni maktabga to‘la-to‘kis tayyorlashga, maktabda beriladigan ta’limni mukammal o‘zlashtirishga, mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi uchun xizmat qiladigan barkamol inson bo‘lib yetishishlariga zamin hozirlaydi.

Maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalariga tayangan holda «Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi» fanining maqsadi talabalarni maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashning metod va usullari bilan tanishtirishdan iborat.

«Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi» fani quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- talabalar maktabgacha ta’limning maqsad va vazifalarini yaxshi bilishlari;
- bolalarning maktab ta’limiga umumiy va maxsus tayyorgarligi tushunchalarini bilishlari;
- bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashni aniqlash yo‘llari va metod, usullari to‘g‘risida bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish Maktabgacha ta'lismiz tizimining boshlang'ich bo'limi bo'lgan maktabgacha ta'lismiz tashkilotlaridan boshlanadi. Maktabgacha ta'lismiz tashkilotida amalga oshiriladigan ta'lismiz-tarbiya ishini davr talabi darajasida olib borish maqsadida «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limi vazirligi bu dasto'rni respublikamizning o'ziga xos tomonlarini: iqlimi, jugrofiy, iqtisodiy, madaniy, milliy sharoitlarini hisobga olib, uni qayta ishlab chiqdi. Dastur tug'ilgandan to yetti yoshgacha bo'lgan bolalar egallashi lozim bo'lgan bilim va malakalar hajmini o'z ichiga oladi. U maktabgacha ta'lismiz yoshidagi bolalarning psixologik-fiziologik va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ularni har tomonlama kamol toptirishni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida ta'lismiz-tarbiyani pedagog-tarbiyachi amalga oshiradi. U pedagogik jarayonda markaziy o'rinni egallaydi. Shuning uchun tarbiyachi uz sohasini chuqur bilishi, har xil metodik vositalarni yaxshi egallagan, puxta pedagogik psixologik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda mutaxassislik bo'yicha fanlarni jumladan «Ta'lismiz to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturini, maktabgacha tarbiya pedagogikasi, «Ilk qadam» dalat o'quv dasturini Davlat ta'lismiz standartlarini, “Bolalarni maktabga tayyorlash” fani va boshqalarni puxta egallagan bo'lishi lozimdir. Ayniqsa, bolalarni maktab ta'limga tayyorlangan tarzda tarbiyalash “Bolalarni maktabga tayyorlash” fanining o'rni juda kattadir.

Bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limga tayyorlash bosqichlari. Maktabgacha ta'lismiz yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limga maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limga tayyorlash 3 bosqichda amalga oshiriladi.

1. Bolalarni nutqini rivojlantirish.
2. Jismonan rivojlantirish.
3. Ma'nан rivojlantirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lismiz-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablarini sog'lom va yetuk, maktabga, o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirib borishdan iboratdir.

“Bolalarni maktab ta'limga tayyorlash metodikasi” fanining boshqa fanlar bilan aloqasi. “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” fani ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyani o'rganar ekan, falsafa fani bilan chambarchas bog'liqidir, chunki falsafa tarbiyaning maqsad va vazifalarini o'rganish metodologiyasini belgilaydi. Didaktik masalalarini ishlab chiqishda bilish nazariyasiga, axloqiy tarbiya masalalarini o'rganishda etikaning axloq to'g'risidagi ta'lismotiga, tarbiyaning maqsadini, yo'llarini, metodlarini belgilashda etika faniga asoslanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash fani ana shu ma'lumotlar negizida ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish masalalarini muvaffaqiyatliroq hal eta oladi, psixik voqealar va jarayonlarning ayrim qonuniyatlarini chiqurroq o'rghanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hozirgi zamon fiziologiyasi eng muhim pedagogik muammolarni to'g'ri hal etishda: bolalarning rivojlanishiga, uning qobiliyatlarini shakllantirishga muhit, irlisyat va tarbiyaning ta'siri va shu singarilarni belgilashda yordam beradi. O'sib borayotgan organizm tuzilishining va harakat qilish qonuniyatlarining asosiy prinsiplarini o'rghanuvchi yosh fiziologiyasi ta'lim-tarbiya berish masalalarini ishlab chiqish uchun, ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Bu xususiyatlarni bilmay turib, tarbiyalanuvchilarining yoshiga muvofiq tarbiya vositalari va metodlarini, u yoki bu mashg'ulotlarni yoki tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazishning tashkiliy shakllarini to'g'ri belgilab bo'lmaydi. Fiziologiyaning oliv nerv faoliyati, nerv tizimining tipologik xususiyatlari to'g'risidagi xulosalari pedagogika o'quv-tarbiya jarayoni metodikasini ishlab chiqishda, bolalar faoliyatları uchun yaxshiroq shart-sharoit yaratishda yordam beradi. Insonning voqelikni belgilovchi hamda uning xulq-atvorini boshqaruvchi psixikaning qonuniyatları va mexanizmlari to'g'risidagi fan bo'lgan umumiyligi psixologiya insonning rivojlanishi, tarbiyalanishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlari jarayonida shakllanadigan holat va xislatlarni (tafakkur, xotira, tasavvur, his-tuygu, iroda va hokazo) tadqiq qiladi. Yosh psixologiyasi "Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fanining turli yoshdagi bolalarning bilish imkoniyatlarini, u yoki bu tarbiyaviy ta'sirni ular qanday qabul qilinishini aniqlashida yordam beradi. Psixologiya shaxsning rivojlanish qonuniyatları, yosh va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi xulosalarni tarbiyalash va ta'lim berishning ratsionalroq mazmun, metodini asoslash va shaxsning shakllanish jarayonini to'g'ri loyihalash imkonini yaratadi. Pedagogika jamoani tashkil etishning samaralirok shakllarini, shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash metodlarini ishlab chiqishda ijtimoiy psixologiya bilan qurollanadi.

"Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fani jismoniy rivojlanish masalasini, bola organizmining shu qobiliyatini oshirish, uning faoliyatini me'yorllashtirish masalalarini o'rghanishda umumiyligi va ijtimoiy gigiyena, mehnat gigiyenasi, maktab gigiyenasi, pedatriya va boshqa fanlarning erishgan yutuqlaridagi xulosalardan foydalananadi.

"Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi" fani umumiyligi pedagogika bilan ham bog'liqidir, chunki umumiyligi pedagogika tarbiyaning umumiyligi qobiliyatlar, jamiyatda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalash hamda ta'limning mohiyati va qonuniyatlarini o'rGANADIGAN fandir. Shunday qilib, "Bolalarni maktabga tayyorlash" fani yuqorida keltirilgan fanlar bilan bog'liq holda rivojlanib, boyib boradi. Yechilmay qolgan muammolar pedagogik nuqtayi nazardan ilmiy

asoslangan tarzda o‘z yechimini topadi va kerakli xulosa, tavsiyalar beradi. Bolalarni maktabga tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalar mustaqil ta’lim berish orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun bolalar bog‘chalarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug‘ullanadilar. Ota-onalarga maktab ta’lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligini aniqlashda maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchilar asosiy shart hisoblanadi. Bolaning maktabga tayyorgarligi maktabgacha va maktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko‘prik, vazifasini o‘tashni oila yoki bog‘chadagi ta’lim-tarbiya sharoitlaridan maktab ta’limiga ozorsiz o‘tkazishni ta’minalash zarurligini hisobga olishlari lozim. Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, boshqa fanlar qatori “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” fani ham o‘z fani doirasida bir qator fanlar bilan bog‘liq holda rivojlanadi va tarakkiy etib boradi.

Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash fani falsafa fani bilan bog‘liq ekan ushbu fanning metodologik jihatdan asoslaydi. Yosh psixologiyasi har bir yoshta bolaning yoshga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Birinchi navbatda bola ruhiyati markaziy o‘rin tutib, bu albatta, psixologiyani bilish nazariyasi bilan bog‘liqidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi” fani barcha fanlar bilan chambarchas bog‘langandir.

Nazorat savollari:

1. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi faning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Maktabgacha ta’lim tashkilotda bolalarni rivojlantirish qanday bosqichlarni o‘z ichiga oladi?

Topshiriq: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori mazmunini o‘rganening va taqdimot tayyorlang.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Davlat ta’lim standartlari.
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi. – Toshkent, 2018.
3. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
4. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.
5. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 1997.

BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Tayanch iboralar: *tayyorlov, guruh, məktəb təlimi, psixologik xususiyatlar, jismoniy yeteklik, aqliy yeteklik, mə'naviy yeteklik, axloqiy-irodaviy xususiyatlar, so'z boyligi.*

Bolaning məktəb təlimiga tayyorlığı tushunchası: O'zbekiston Respublikasida məktəbgacha təlim to'g'ri sidagi Nizomga muvofiq bola məktəbgacha təlimni uyda, ota-onalarning mustaqil təlim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan məktəbgacha təlim tashkilotlarda, shuningdek, məktəbgacha təlim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun məktəbgacha təlim tashkilotlarda, məktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlari yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga məktəbgacha təlim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning məktəb təlimiga tayyorligini aniqlashda məktəbgacha yoshdagiligi bolalar təlim-tarbiysi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish – bolaning məktəbga tayyorligi məktəbgacha va məktəb davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'priq vazifasini utashini, oila yoki məktəbgacha təlim tashkilotdagi təlim-tarbiya sharoitlarida məktəb təlimiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim. Məktəbgacha yoshdagiligi bolaning məktəb təlimiga utishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarda anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayok məktəb təlimiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra, «Məktəbga tayyorgarlıq» tushunchasi bolani məktəbga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy;
- shaxsiy (ruhiy);
- aqliy;
- maxsus tayyorgarlik.

Jismoniy tayyorgarlıq bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi, o'zini-o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bolaning məktəbda təlim olishi samarası uning ona tilini

bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi. Chunki butun o‘quv faoliyati shularga, ya‘ni nutqiy-mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o‘z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning mактабда ta’lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya‘ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoni topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o‘rgatish va uning mактабнинг 1-sinf o‘quv dasturi materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Bolalarni mактабда o‘qitishning samaradorligi ko‘p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog‘liq bo‘ladi. Mактабда o‘qishga tayyorgarlik – mактабгача ta’lim tashkiloti va oilada mактабгача ta’lim yoshidagi bolaga qo‘yiladigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o‘ziga xos tomoni o‘quvchining yangi ijtimoiy-psixologik o‘rni bilan bog‘liq. Bola o‘z oldiga qo‘yiladigan vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo‘lishi lozim. Mактабга kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat tizimining o‘zgarishiga aloqador muhim davrdir. Bola hayotida birinchi bor markaziy o‘rinni ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv faoliyati egallaydi. Unga odatiy bo‘lgan erkin o‘yin faoliyatidan farqli ularok, endi ta’lim majburiy bo‘ladi va birinchi sinf o‘quvchisidan 4 ta jiddiy munosabat talab qilinadi. Ta’lim faoliyatining etakchi turi sifatida bolaning kundalik hayot jarayonini qayta quradi: kun tartibi o‘zgaradi, erkin o‘yinlar vaqtini kiskaradi. Bolaning mustaqilligi va uyushganligi, uning ishchanligi va intizomlilikka talablar jiddiy ravishda ortadi. Mактабгача yoshdagи bolalikka nisbatan o‘quvchining o‘z xatti-harakati, majburiyatlarini bajarishga shaxsiy ma’siliyati ancha-muncha ortadi. Bolalarni mактабга tayyorlash, birinchidan bolalar bog‘chasida tarbiyaviy ishni mактабгача ta’lim yoshidagi bolalarni umumiyl, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta’minlaydigan, ikkinchidan bolalarni mактабning boshlang‘ich sinflarida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan o‘quv fanlarini egallahsha maxsus tayyorlashni ta’minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi. Shunga ko‘ra zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotda (A.V.Zaparоjets, A.A.Venger, G.M.Lyamina, G.G.Petrogenko, J.V.Taruntaeva va boshqalar) tayyorgarlik tushunchasi bola shaxsining rivojlantirish sifatida aniqlanadi va ikkita o‘zaro bog‘langan jihatlarda: «Mактабга o‘qishga umumiyl psixologik tayyorgarlik» va «Maxsus tayyorgarlik» tarzida ko‘rib chiqiladi. Mактабга umumiyl tayyorgarlik MTT ning mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta’lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo‘ladi. Mактабга umumiyl tayyorgarlik bolaning mактабга borish vaqtiga kelib aqliy, ma’naviy, estetik va

jismoniy rivolanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallahsga faol kiril borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Umumi tayyorgarlik bola maktab ta'limiga utish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilar ifodalanadi. Psixologik tayyorgarlik tushunchasi maktab ta'limi nuqtai nazaridan 1-sinfga borayotgan bola psixik rivojlanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvaffaqiyatlari jamlaydi. Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'quvchi bulish ishtiyoqida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'quv faoliyati elementlarini egallashi, iroda va ijtimoiy rivojlanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sind jamoasiga olib kirish, maktabda o'quv materialini ongni faol egallah keng doiradagi maktabga oid majburiyatlarni bajarishni kamrab oladi. Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'quv fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallahsga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi. Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlangan bo'lishi darkor. U yangi jiddiy majburiyatlarni uddalashi uchun jismoniy rivojlanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak. Bolaning maktabda (o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha o'zaro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ulardan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Bolaning maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorligi. Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning maktabgacha bolalik oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai nazarni faol egallahsiga hamda o'zining o'qituvchi va sindoshlari bilan o'zaro munosabatlarini axloqiy asosda qurishga imkon beradigan darajaga erishishida ifodalanadi. Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tar'lim yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqari qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan,

ammo maqsaddan chalg‘itadiganiga qarshi o‘larok bajarish ko‘nikmasi va shu kabilar e‘tiborga loyiqdir. Bo‘lajak o‘quvchi xulq-atvoridagi ixtiyorilikning rivojlanish asosini maktabgacha ta‘lim yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o‘zaro buysunuvchilari tashkil qiladi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning tarkib topishida, shuningdek, katta maktabgacha ta‘lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvoridagi *mustaqillik uyushganlik* va *intizomlilik* kabi xususiyatlar ahamiyatlidir. Mustaqillik bilan uzviy bog‘langan xulq-atvor qoidalarni bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to‘g‘ri, odatiy usullaridan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik va xulq-atvordagi uyushganlik intizomlilik bilan xulq-atvordagi maqsadga yo‘nalganlikda, o‘z faoliyatini maktabgacha ta‘lim tashkilotda qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o‘z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o‘z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma‘suliyatni his qilishda o‘z ifodasini topadi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning boshqa muhim tarkibiy qismi bolaning katta yoshlilar va tengqurlari bilan o‘zaro munosabatlarini qoidalarga muvofiq tashkil eta bilishdir. Tajribaning ko‘rsatishicha, maktabdagi o‘qish sharoitlariga moslashish oldingi yillarda bolalarda «jamoatchilik» sifatlari: do‘stlarga nisbatan xayrixoh, hurmat bilan munosabatda bo‘lish, tashkilotchilik ko‘nikmalari, xushmuomalalik, g‘amxo‘rlik bildirish, o‘zaro yordamga hozirlikning qanchalik muvaffaqiyatli shakllantirilganligiga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bola xulq-atvorida jamoachilik hislarida bunday majmuuning mavjudligi uning maktabga axloqiy tayyorgarligining ko‘rsatkichi bo‘la oladi va yangi jamoada tengqurlari bilan muomalada ko‘tarinki, ijobjiy ruhni yuzaga keltiradi. Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlik, shuningdek, axloqiy hissiyot va bola ongi rivojining muayyan darajasi bilan ham ifodalanadi. Bu o‘rinda eng ibratlisi bolalarning axloqiy xulq-atvorining ijtimoiy ahamiyatini tushunish, ularda o‘z xatti-harakatlarini mustaqil baholash qibiliyatini rivojlantirish, ma‘suliyat, haqgo‘ylik, insoniylik va fuqarolik hissiyotlari elementlarini shakllantiridir. Axloqiy-irodaviy tayyorlik tarkibiga maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolaning mehnatga munosabatini ifodalovchi sifatlar majmui ham kiradi. Bu mehnat qilish ishtyoqi, atrofdagilar mehnatiga hurmat, zarur mehnat malakalarini egallashdir.

Bolaning mакtabda o‘qishga aqliy tayyorligi. Maktabga aqliy tayyorlikning muhim tarkibiy qismi mакtabga o‘qishga kirayotgan bolada atrof, dunyo haqida yetarlicha keng bilish boyligining mavjud bo‘lishidir. Bilimlarning bu fondi o‘qituvchi o‘z ishini tashkil etishda tayanadigan zarur asos hisoblanadi. Bolani mакtabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir.

Bilimlar sifatining ko'rsatkichi birinchi navbatda ularni bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqalashtirilganligi; oddiy tushunchilar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish qobiliyatları; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha ta'lif yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtaсидagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda, birinchidan, bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyatı va shu kabilalar; ikkinchidan, bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchidan, bolada atrof-dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallah va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabga aqliy tayyorlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. MTTning bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyatı, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liq lik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qobiliyatı, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalgalashish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalgalashish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yish va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilalar rivojlantiriladi. Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek, bolalar tomonidan o'quv faoliyatni elementlarining egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lif sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanib bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyatni, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tankidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak. Nutqning qanchalik yuqori darajada rivojlangan bo'lishi bola maktabga aqliy tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi

hisoblanadi. Tovushni aniq talaffuz qilish, lug‘atning boyligi, o‘z fikrini mantiqiy va grammatik to‘g‘ri bayon qila bilish, madaniy nutq muomalasi – bularning barchasi matabda muvaffaqiyatli o‘qishning zaruriy sharti hisoblanadi. Aqliy tayyorlik tarkibiga, shuningdek, savodning boshlang‘ich asoslari, oddiy matematik tasavvurlar, ona tili yetarlicha keng bilim, ko‘nikma va malakalar doirasi ham kiradi. Shunday qilib, maktabdagi o‘qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o‘zaro bog‘langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan tizimlashtirilgan tasavvurlar hamda elementlar tasavvurlar, nutq va elementar o‘quv faoliyati umumiy darajasining birligi bolalarda maktabdagi o‘quv materialini egallashga aqliy tayyorlikni vujudga keltiradi.

Bolaning matabda o‘qishga jismoniy tayyorligi. Bolaning matabda o‘qishga jismoniy tayyorligi o‘qishning muvaffaqiyatli bo‘lishida katta ahamiyatga egadir. Maktabga chiqish munosabati bilan bola turmush tarzining qayta qurilishi, kun tartibining o‘zgarishi, jiddiy o‘quv mehnati, darslarning davomiyligi undan sezilarli jismoniy zo‘r berishni talab qiladi. Maktabga jismoniy tayyorlik ko‘pgina tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Bu, birinchi navbatda, bola salomatligining yaxshi bo‘lishi, organizmning chiniqqanligi, ma’lum darajada chidamliligi va ish qobiliyati, kasalliklarga qarshilik ko‘rsata olishidir. Bolalarni maktabga tayyorlashda barmoq mayda muskullarining rivojlanishi alohida o‘rin egallaydiki, bu yozuvni muvaffaqiyatli egallashning zaruriy shartidir. Maktabga jismoniy tayyorlik, shuningdek, bola tomonidan madaniy gigiyenik malakalarni egallanishini, ularda shaxsiy gigiyena qoidalariiga rioya qilish odatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Jismoniy tayyorlik bolada maktabga yetuklikni shakllantirishning zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Maktabga yetuklikni aniqlashda bola sog‘ligining holati va organizmning biologik yetukligini baholash (antropometrik ko‘rsatkichlar, suyak, mushak, nafas olish va yurak-tomir tizimining) rivojlanganligini nazarda tutuvchi ko‘p omilli tahlildan, maktabga funksional tayyorlikning, «Maktabga yetuklik»ning asosiy ko‘rsatkichi va, eng avvalo, bir qator fiziologik funksiyalarining rivojlanish darajasini baholashdan foydalilanadi. Bularga: partada anchagina uzoq muddat o‘tirish uchun zarur bo‘ladigan tormozlanish qobiliyatining rivojlanganligi; harakatlarni yaxshi boshqarish, jumladan, yozish va rasm solishga aloqador grafik vazifalarni bajarishda zarur bo‘ladigan barmoqlarning mayda harakatlari; ijobiy va tormozlanishiga xos shartli aloqalarni nisbatan tez hosil qilish hamda mustahkamlash, shuningdek, ikkinchi signal tizimning yetarlicha rivojlanganligi kiradi.

Bolalarni tekshirish ularni matabda olti yoshdan o‘qishlari mumkinligini aniqlash imkonini beradi. Bolalarning maktabga jismoniy tayyorliklarini tekshirish natijasi ko‘philik bolalarda uning asosiy ko‘rsatkichlari me’yor atrofida ekanligini

va hatto undan ilgarilashini ko'rsatdi. Kun tartibi, chiniqtiruvchi muolajalar, muntazam jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, xilma-xil harakatli o'yinlar va jismoniy mashqlar, faol harakat rejimi bolalarning maktabda o'qishga jismoniy tayyorligini ta'minlashning zaruriy shartlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek MTTlariga jaib qilinmagan bolalar uchun MTTlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi.

6-7 yoshli bolaning muktab ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha yoshdagagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish - bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va muktab davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'priq vazifasini o'tashini, oila yoki MTTdagi ta'lim-tarbiya sharoitlarida muktab ta'limiga ozorsiz o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Maktabgacha yoshdagagi bolaning muktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani yoki uydayoq muktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirip kerak bo'ladi.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va kurish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga, shaxsiy madaniyatni shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bola obrazli va mantiqiy fikrashi, tasavvo'rning, odamiylikning, bilimga qiziqishning, mustaqilligining, o'zini-o'zi nazorat qilishga, hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishni o'z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasini uning ona tilini bilishiga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqni mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrashi, til rivojlanganligi yutuqlarida erkin foydalana olishi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, uz tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga kuriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya'ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniylar topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. Va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani

savodxonlikka o'rgatish va uning mактабнинг 1- синф о'кув дастuri materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bolalarni mактабда o'qitishning samaradorligi ko'п jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq bo'ladi. Maktabda o'qishga tayyorgarlik MTT va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaga qo'yadigan talablar orqali aniqlanadi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik MTT ning maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim-tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi.

Maktabga umumiy tayyorgarlik bolaning maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning mактаб ta'limining yangi sharaoitlariga va o'кув materialining ongli egallashga faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi.

Umumiy tayyorgarlik bola mактаб ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Psixologik tayyorgarlik tushunchasi mактаб ta'limi nuqtai-nazaridan 1 sinfga borayotgan bola psixik rivojanishidagi muhim sifat ko'rsatkichlarini muvoffakiyatli jamlaydi.

Mактаб ta'limiga psixologik tayyorgarlik bolaning o'qishga intilishi o'кувчи bulish ishtirokida bilish faoliyati va tafakkur operatsiyalarining yetarlicha yuqori darajasi bolaning o'кув faoliyati elementlarini egallashi iroda va ijtimoiy rivojanishning muayyan darajasida namoyon bo'lishda asoslangan tayyorlikni uz ichiga oladi. Bolani maktabga psixologik tayyorgarligining barcha komponentlari bolani sind jamoasiga olib kirish maktabda o'кув materialini ongni faol egallash keng doiradagi maktabga oid majburiylarni bajarishni kamrab oladi.

Bolani maktabga maxsus ravishda tayyorligi maktabda o'qishga umumiy psixologik tayyorligiga qo'shimchadir. U bolada matematika va ona tili kabi o'кув fanlarini o'rganish uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligiga ko'ra aniqlanadi. MTTda bolalarda eng oddiy matematika tasavvurlarini tarkib toptirish, nutqni o'stirish hamda savodni egallashga tayyorlanish yuzasidan o'tkaziladigan jadal ish bolalarni maktabda o'qishga maxsus tayyorlashning zarur darajasini ta'minlaydi.

Maktabga qatnaydigan bola yangi turmush tarziga kishilar bilan o'zaro munosabatning yangi tizimiga, faol aqliy faoliyatga tayyorlanga bo'lishi darkor. U yangi jiddyy majburiylarni uddalashi uchun jismoniy rivojanishda muayyan darajaga erishgan bo'lishi kerak.

Bolaning maktabda (o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorgarlik) umumiy tayyorligi mazmunida bir necha uz aro bog'langan jihatlar mavjud bo'lib, ularidan muhimlari ma'naviy, irodaviy, aqliy, jismoniy tayyorgarlikdir.

Maktabda o'qishga axloqiy-irodaviy tayyorlik bolaning mактабгача болалик oxiriga kelib axloqiy xatti-harakat, iroda, axloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni faol egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan uz aro munosabatlарини axloqiy asosda ko'rishga imkon berадиган darajaga erishishida ifodalanadi.

Axloqiy irodaviy tayyorlik katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namoyon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha ta'lim yoshi davomida rivojlanadigan o'z xulq-atvorini boshqari qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talabalarini ongli bajarish, daf'atan asabiylashib ketishiga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iyatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, ammo maqsaddan chalgitadiganiga qarshi ularoq bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqtisir. Bo'lajak o'quvchi xulq-atvordagi ixtiyorilikning rivojlanish asosini maktabgacha ta'lim yoshi oxiriga kelib tarkib topadigan sabablar, o'zaro buysunuvchilar tashkil qiladi.

Maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlikning harf topishida, shuningdek katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bola shaxsiy xulq atvoridaagi mustaqillik uyushganlik va intizomlilik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir.

Mustaqillik bilan uzviy bog'langan xulq-atvor qoidalарини bajarish, yangi sharoitlarda harakatning to'g'ri odatiy usularidan foydalanish, yordam berishga tayyorlik qobiliyatidir. Mustaqillik va xulq-atvordagi uyushganli va intizomlilik bilan xulq-atvordagi maqsadga yo'nalganlikda, o'z faoliyatini MTTda qabul qilingan qoidalarga muvofiq ongli tashkil eta bilishda, faoliyat natijasiga erisha bilish va uni nazorat qilish, o'z xulq-atvorini boshqa bolalarniki bilan muvofiqlashtirish, o'z xatti-harakatlari uchun shaxsiy ma'suliyatni his qilishda o'z ifodasini topadi.

Bolaning maktabga aqliy tayyorligida bolalar egallagan bilimlarning sifati ahamiyatlidir. Bilimlar sifatining ko'rsatkichi, birinchi navbatda, ularning bolalar tomonidan ongli egallaganligi; tasavvurlarining aniq va tabaqa lashtirilganligi; oddiy tushunchlar mazmuni va hajmining to'liqligi; o'zlariga tushunarli o'quv, va amaliy vazifalarni hal etishda bilimlarni mustaqil qo'llay olish qobiliyatları; muntazamlilik, ya'ni maktabgacha ta'lim yoshidagilarning narsa va hodisalar o'rtasidagi tushunarli, muhim aloqa hamda munosabatlarni aks ettira bilish qobiliyatidir.

Bola maktabga aqliy tayyorgarligining tarkibiy qismi bola bilish faoliyatini muayyan darajada rivojlangan bo'lishidir. Bu o'rinda, birinchidan, bilish jarayonining o'sib boruvchi ixtiyoriligi; materialni ma'no jihatdan ixtiyoriy eslab qolish va takror ifodalash, narsa va hodisalarni rejali idrok etish, qo'yilgan bilish va amaliy masalalarni maqsadga muvofiq hal etish qobiliyati va shu kabilar; Ikkinchidan bilish jarayonlari sifatini oshirish: sezgilarning

aniqligi, idrokning to'liq va tabaqalashtirilganligi, eslab qolish va takror ifodalashning tez va aniqligi; uchinchidan bolada atrof dunyoga bilish munosabatlari, bilimlarni egallah va maktabda o'qishga intilishning mavjudligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabga aqliy tayyorlarlikni shakllantirishda bo'lajak o'quvchi tafakkur faoliyatining umumiy darajasi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotining bolalarni aqliy tarbiyalashga oid olib borayotgan muntazam, maqsadga muvofiq ish sharoitlarida bolalarda (faoliyat) tafakkur faoliyatida narsalarning ko'p tomonlama tahlil qilish qobiliyati, ijtimoiy tarkib topgan sensor etalonlardan fan hamda hodisalar xususiyat va sifatlarini tadqiq qilishda foydalana bilish narsa va hodisalardagi asosiy aloqa, bog'liglik, belgilarni aniqlash asosida oddiy umumlashtirishlar qilish qibiliyani, o'xshashlik va farqlanuvchi belgilarni izchil ajratish asosida narsalarni qiyoslashni amalga oshirish ko'nikmasi tarkib toptiriladi. Bo'lajak o'quvchilarda aqliy faoliyatning elementar mustaqilligi: o'z amaliy faoliyatni mustaqil rejalashtirish va uni reja asosida amalga oshirish ko'nikmasi, oddiy bilish vazifasini qo'yib va uni hal etish ko'nikmasi va shu kabilar rivojlantiriladi.

Maktabda aqliy tayyorlik, shuningdek, bolalar tomonidan o'quv faoliyati elementlarining egallab olinishini ham o'z ichiga oladi.

Bolalar muntazam ta'lim sharoitlarida maktabgacha bolalik oxiriga kelib, o'quv faoliyatining asosiy tarkibiy qismlarini: tushunarli o'quv vazifasini qabul qilish, tarbiyachining ko'rsatmalarini tushunish va aniq bajarishni ishni kattalar tomonidan ko'rsatilgan usullaridan foydalanim bajarib bir natijaga erishish, o'z faoliyati, xulq-atvori, topshiriqlarni bajarish sifati ustidan nazorat qilish ko'nikmasini, o'zining va boshqa bolalarning ishlariga tanqidiy baho berish qobiliyatini, egallab olishlari kerak.

Nazorat savolari:

1. Psixologik tayyorlarlik tushunchasi qanday xususiyatlarni o'z ichiga oladi?
2. Maktabga aqliy tayyorlikni rivojlantirishda nimalarga ahamiyat berish darkor?
3. Jismoniy tayyorlik qanday xususiyatlarga ega?

Topshiriq: Har bir yosh guruhi uchun kun tartibini tuzing, yozing, taqdimot tayyorlang.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi, Toshkent-2019.
2. Davlat ta'lim standartlari.
3. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi. – Toshkent, 2018.

4. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.

5. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.

6. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – Toshkent, 1997.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIGA QISQA MUDDATLI GURUHLARDA BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASH

Tayanch so'zlar: *mashg'ulotlar, tarbiyachi, bolalar, qisqa muddatli guruhlar, kunning birinchi va ikkinchi yarmi, mashg'ulot turlari, ta'lif-tarbiya.*

Qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlashni* **rejalashtirish.** Rejalashtirish – bu zarur shart-sharoit, foydalanimilayotgan vosita, shakl va uslublarni ko'rsatgan holda, ta'lif-tarbiya ishini amalga oshirishning tartibi va ketma-ketligini oldindan belgilash jarayoni. Umuman, ta'lif-tarbiya ishining samaradorligi rejalashtirish qay darajada pishiq-puxta o'ylangani va amalga oshirilgani bilan belgilanadi.

Rejalashtirish pedagogik vaziyat rivojida noaniq holatlarning kamayishi bilan bir qatorda, pedagogning bugungi va ertangi faoliyatida uzviylikni ta'minlaydi.

Ta'lif-tarbiya ishini rejalashtirish pedagogning bolalar jamoasi va ota-onalar hamkorligiga, ular tomonidan birligdagi faoliyat doirasidagi maqsad va vazifalarni anglash, maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalar hayotini qiziqarli va foydali bo'lishini ta'minlash istagiga asoslangan.

Rejalashtirish modelini tanlashda har bir pedagogning kasbiy tayyorgarligi, tajribasi, o'z faoliyati natijalarini ko'rib, tahlil eta olishi hamda MTTdagi shart-sharoit e'tiborga olinishi zarur.

Istiqlol reja – bolalar bilan ishslashda asosiy hujjat hisoblanib, u bolalar faoliyatining barcha turlarini va ularga xos kundalik ish shakllarini rejalashtirishni talab etadi. Mazkur hujjatsiz tarbiyachining ish boshlashi tavsiya etilmaydi.

O'zini tutish madaniyati va ma'naviy fazilatlar bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy jarayon mobaynida (maishiy hayotda, o'yin, mehnat, mashg'ulot jarayonida) shakllantirilishi sababli, u alohida bo'lim tarzida rejalashtirilmaydi. Shuning uchun talabning murakkablashib borishini ko'zda tutgan holda, pedagogik uslub va vositalarga tayanib, **istiqlolli rejalashtirishni** joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Istiqlolli mavzu rejasi bir oyga tuzilib, quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1.Ta'lifiy faoliyat paytida ta'lif berish.

2.Bolalar bilan individual ish (ta'limiy faoliyatlardan keyin).

3.Ota-onalar bilan ishlash.

Rejada guruh bolalarining ro'yxati, adabiyotlar ro'yxati, ish kuni davomida bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha mashg'ulotlar jadvali kiritiladi.

Kundalik reja 1-2 haftaga mo'ljalib tuziladi. U reja-konsept shaklida yozilib, unda butun ish kuni davomidagi faoliyat bat afsil yoritiladi:

ertalab (bolalar bilan individual ishslash, madaniy-gigiyenik va o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ish, didaktik o'yinlar o'tkazish va boshq.), mashg'ulotlar davomida (uning turi, mavzusi, maqsadi, kerakli jahozi, mashg'ulotning borishi), sayr paytida (kuzatish, mehnat, harakatli o'yinlar, o'yin faoliyati, yakka ishslash, bolalarning uyg'a ketishi).

Pedagog reja shaklini mustaqil tanlashi mumkin. Shunga qaramasdan, MTT pedagogik kengashi tomonidan tasdiqlangan reja yozishning yagona shaklidan foydalanish tavsija etiladi.

Istiqlolga mo'ljalangan mavzular rejasi quyidagilarni nazarda tutadi:

1. Bolalar asosiy faoliyat turlarining o'zaro bog'liqligini (o'yin, mehnat, ta'lim va h).

2. Bir oyga mo'ljalangan vazifalarning ketma-ketlik va muntazamlilik tamoyilining amalga oshirilishini.

3. Muayyan yosh guruhiга doir dasturning barcha bo'limlaridagi vazifalarning o'zaro bog'liqligini.

4. Bevosita ta'limiy faoliyat, o'yin, mehnat faoliyatidan keyin ayrim bolalar bilan individual ishslashning tizimliylik asosida olib borilishini.

5. Kuzatuvlarni bir kun oldin yoki shu kuni rejada qayd etishni.

Rejani bunday tarzda yozish turini qo'llaganda yakuniy ta'limiy faoliyat, suhbat, ekskursiyalar, kompleks faoliyatlarning kuni belgilanib olinishi zarur. Bunday rejalshtirish pedagogning kuchi va vaqtini tejash bilan birga, bolalar bilan ta'lim-tarbiya ishlarining yaxlit manzarasini ko'rish imkoniyatini yaratadi. Bu o'z navbatida bir yilga mavzular bo'yicha rejalshtirish, ta'lim sohalarini o'zaro uyg'unlashtirish, loyihalarni va bolalarning sinov-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish hamda integral ishslash tamoyilini joriy etishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ish rejasi:

- ta'lim-tarbiya faoliyatining maqsadi, strategik va taktik vazifalarini aniq ifoda etish;

- ta'lim-tarbiya ishining mazmunini maqsadli belgilash, uning vositalari va tashkiliy shakllanishini tanlash;

- jamoaning va har bir shaxsnинг ilgarilanma harakatini rejalshtirib hamda tegishli o'zgartirishlar kiritib borish jarayonida o'z faoliyatning istiqboldagi natijalarini belgilash imkoniyatini yaratadi.

Ilmiy jihatdan asoslangan aniq pedagogik rejaning mavjudligi pedagog ishini yengillashtirib, uning ijodiy imkoniyatlarini oshiradi. Ta'litarbiya ishini rejalashtirish pedagog, bolalar jamoasi va ota-onalarning o'zaro hamkorligiga, ular tomonidan birgalikdagi faoliyat maqsad va vazifalarini tahlil etishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'limga qo'yiladigan Davlat talabslari, bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash «Ilk qadam» davlat o'quv dasturi pedagoglar uchun yangi imkoniyatlarni vujudga keltiradi, maktabgacha ta'limga tashkilotlarida ta'limga jarayonini tashkil etishda qo'llanayotgan eski shakl va uslublarni qayta ko'rib chiqishga undaydi, pedagogik tashabbus, tajriba va ijodga keng yo'l ochadi.

Taxminiy ish tartibi:

HAFTALIK KUN TARTIBI REJASI

T/r	Faoliyat turlari	O'tkazish muddatları
1	Bolalarni erkin mustaqil faoliyati	Har kuni
4	O'yin faoliyati	Har kuni
5	Tasviriy faoliyat	Haftada 4 marta
6	Atrof-muhitni o'rganish	Haftada 2 marta
7	Tabiat bilan tanishtirish	Haftada 1 marta
8	Elementar matematika	Haftada 2 marta
9	Musiqa	Haftada 2 marta
10	Jismoniy tarbiya	Haftada 2 marta
11	Nutq o'stirish	Haftada 1 marta
12	Savodga tayyorlash	Haftada 1 marta

«Ish kuni» shunday tashkil etiladiki, u erkin mustaqil faoliyat va kattalar bilan mashg‘ulot orasida muayyan vaqt muvozanat bo‘lishiga imkon yaratadi.

Har bir kun erkin faoliyat bilan boshlanadi va yakunlanadi, bunda bolalar o‘z qiziqishlari bo‘yicha shug‘ullanadilar. (o‘ynash, rasm chizish, qurish-yasash bo‘yicha biror nima yasash, tengquri bilan birgalikda rasmi kitobni tomosha qilishi va h.k.)

Pedagog erkin faoliyat uchun ajratilgan vaqtidan o‘yin faoliyati uslublari shakllantirish maqsadida bir necha juft, kichik guruhlar (3-4 dan bola) bilan birgalikda o‘ynashda foydalanadi.

Shunday qilib, belgilangan vaqt mobaynida boshqa bolalar o‘z qiziqishlari bo‘yicha ishlari bilan band bo‘lganda, pedagog 2-3 juftni yoki kichik guruhni (har biriga 7-10 daqiqa vaqt ajratib) qamrab olishi mumkin.

Erkin faoliyat davri barcha bolalar taklif etiladigan muloqot, suhbat bilan almashadi. Bu vaqt oldingi kundagi yorqin taassurotlar, tabiatdagi o‘zgarishlar, yaqinlashib kelayotgan esdalik sanalar va h.k.ga doir erkin muloqotga bag‘ishlanadi. Suhbat jarayonida pedagog keyingi kunlardagi Ta‘limiy faoliyatlarning mavzularini rejalashtirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan mabtagacha yoshdagi bolalarni qiziqtirayotgan dolzarb masalalarni o‘zi uchun qayd etib boradi, kelajakda bolalar bilan qiziqarli o‘yinlarni rejalashtiradi. Agarda guruh hayotida nizo va kelishmovchiliklar qayd etilgan bo‘lsa, ularni ijtimoiy maqbul usullar bilan hal qilish yo‘llarini muhokama etish, bolalarning o‘zini tutish me’yor va qoidalari haqidagi tasavvurlarini aniqlashtirish, birgalikda «guruhga xos» qoidalarni ishlab chiqish mumkin.

Pedagog muhokama uchun badiiy matndan foydalanishi – ma’naviy-axloqiy mazmunga ega qisqagina hikoya, ertak, she’r o‘qib berishi, bolalar bilan birgalikda kitobdagi hamda ularning hayotidagi voqealarni o‘zaro taqqoslashi mumkin.

Zarur hollarda pedagog guruh doirasidagi muloqotni kelgusidagi ta‘limiy faoliyatlarga ma’no-mazmun baxsh etadigan (mavzuni, muammoni bolalar uchun qiziqarli bo‘ladigan) badiiy matnni o‘qish bilan yakunlashi mumkin.

Guruh doirasidagi muloqotdan keyin kattalar bilan o‘tkaziladigan ikki ta‘limiy faoliyat (atrof-muhit bilan tanishtirish, elementar matematika, tasviriy faoliyat va boshqalar – haftaning muayyan kuniga mos ravishda) guruh xonasida o‘tkaziladi va butun guruh bilan ishlashni ko‘zda tutadi (muayyan mavzu va mashg‘ulot mazmuniga ko‘ra mabtagacha yoshdagi bolalar qandaydir vazifalarni birgalikda yoki yakka tarzda bajarish maqsadida juftlarga bo‘linadi).

Ayrim bolalar ishda faol ishtiroy etmasligi, chekkaroqdan boshqa bolalar faoliyatini kuzatib turishi mumkin. Bu hol bolaning mashg‘ulotdan hech qanday

foyda olmayotganini anglatmaydi. Keyingi gal u dadilroq bo'lib, ishga kirishiga jazm etadi.

Musiqa yoki sport zaliga o'tganda bolalar katta yoshdagi boshqa ustozlar (musiqa xodimi, trener) bilan muloqot yuritadi. Har kuni guruh xonasi doirasidan tashqariga chiqish bolalar hayotiga rang-baranglik olib kiradi, ularning ijtimoiy-madaniy makonini kengaytiradi. Ushbu ta'limi faoliyatning bir qismini pedagog bolalar bilan birga o'tkazishi, boshqa qismini esa – yengil nonushta tayyorlashga sarflashi mumkin (agarda u ota-onalar iltimosi bilan tashkil etilayotgan bo'lsa). Birgalikda ovqatlanish bolalar guruhining jipslashuviga xizmat qiladi. Nonushta paytida erkin, qulay muhitni vujudga keltirish, bolalarning bir-biri bilan o'tgan ta'limi faoliyatlardan olgan taassurotlari bilan bemalol fikr almashishiga imkon berish zarur. Nonushtadan keyin pedagogga stolni tartibga keltirish uchun navbatchilar yordamlashadi.

Kun bolalarning erkin faoliyati bilan yakunlanadi. Ayni shu vaqtida pedagog haftada ikki marta bir necha bolani (qo'shimcha mashg'ulot zurna bo'lganlarni) kommunikativ treningga taklif etadi. Barcha xohlovchilar ularga qo'shilishi mumkin. Har bir guruh bilan mashqlar majmui 10 daqiqaga mo'ljallangan. Hafta kunlardan birini pedagog bolalarda o'yin faoliyatini usullarini rivojlantirish maqsadida ular bilan o'ynashga bag'ishlaydi.

Kattalarning bolalar bilan o'yini va kommunikativ treningning tashkiliy o'ziga xosligiga e'tibor qaratish lozim: pedagog bu ishni bolalarning erkin mustaqil faoliyati bilan bir vaqtida amalga oshiradi. Bu jarayonda pedagog kichik guruhlar bilan ishlaydi, u bolalarni o'yin yoki suhbatga maxsus jalb qilishi yoki xohlovchilarni taklif etishi mumkin.

Taxminiy rejalashtirish.

Kalendar reja 1-2 haftaga tuziladi. U butun ish kuni davomidagi faoliyat batafsil yoritilgan reja-konspekt shaklida yoziladi:

Sana: _____

Ertalabki soat: Bolalarni kutib olish (ertalabki filtr)

«Men tabiatga qanday yordam beraman?» mavzusida suhbat:

Maqsad: bolalarda «yaxshi» va «yomon» nimaligini tushunishni rivojlantirish, tabiatga muhabbat hissini shakllantirish.

«Yil mavsumlari»ga oid rasmlarni ko'rish:

Maqsad: bolalarning mavsumlar ketma-ketligi haqidagi bilimlarini mustahkamlash. Yilning har bir mavsumiga xos xususiyatlarni aniqlash. Yog'ingarchilik turlarining o'zgarishlari bilan tanishtirish.

«O'simlikni uzib ol» mavzusida ta'limi o'yin;

Maqsad: bolalarda o'simlikning tuzilishi, qismlari va ahamiyati haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Reja bo'yicha ta'limiy faoliyatga o'tish uchun undovchi kirish
 Masalan (Bolalar, sizlarga bormoqchimisiz?
 Bugun bizni bajarishimiz lozim. Siz..... ga yordam berasizmi?
 Nima deb o'ylaysiz, bo'ladimi? Nima uchun.....?
 Qaysi biringiz menga bajarishga yordam bera olasiz?
 Bugun sizlar bilan ertaqlar olamiga sayohat qilamiz. Siz..... ertaqlar olamiga
 sayohat qilmoqchimisiz? Va hokazo.

Pedagogning bolalar individual ishlash daftarini yuritishi

T/r	Sana	Bolaning IF	Individual mashg'ulot mavzusi	Izohlar
1 2	15.09. 2019.	Umarov Umid Toshpo'latova Aziza	Fonematisk eshitish va artikulyasiya apparatini rivojlantirish, eshitish orqali (s-z) tovushlarini farqlash va to'g'ri ifodalash	Uy vazifasi
1 2	16.09.2019.	Sobirova Nigora Umarov Umid	Aytilgan tovushlarga so'zlarni tanlash	
1 2	17.09.2019.	Sobirova Nigora Umarov Umid	Eshitish orqali so'zda u yoki bu tovushning bor- yo'qligini aniqlash.	
1 2	18.09.2019.	Abdullaev Marat Umarov Umid	Aytilgan tovushlarga ega so'zlarni tanlash bo'yicha o'yin	
1 2	19.09.2019.	Sobirova Nigora Gulchehra	Geometrik shakllar haqidagi bilimlarni mustahkamlash	Uy vazifasi
1 2	22.09.2019.	Toshpo'latova Aziza	O'Icham: kenglik, uzunlik haqidagi tushunchalarni mustahkamlash	

Qisqa muddatli guruhda mashg'ulotlar soatlari miqdori

Qisqa muddali guruhda o'quv yili davomida (9 oy) ta'limiy faoliyatlar soatlari miqdori:	Qisqa muddali guruhda yosh mobaynida davomida (3 oy) ta'limiy faoliyatlar soatlari miqdori
Haftasiga 15 soat (kuniga 3,5 soat, haftasiga 5 kun)	Haftasiga 15 soat (kuniga 3,5 soat, haftasiga 5 kun)
Haftasiga 15 soat X bir oyda 4 hafta X 9 oy = 540 soat	Haftasiga 15 soat Haftasiga 15 soat X bir oyda 4 hafta X 3 oy = 180 soat

Ota-onalar taklifini e'tiborga olib, mактабгача та'лим ташкilotida bolalarni qisqa muddatli guruhlarda maktabga tayyorlash bo'yicha mashg'ulotlar ikki smenada kun davomida kuniga 3,5 soat sharti bilan o'tkazish mumkin:

Qisqa muddatli guruhlarga mashg'ulotlar taqsomoti quyidagicha bo'ladi:

1- smena	8:30-12:00 (3,5 soat)
8:30-8:50	Qabul, birlamchi tibbiy ko'rlik, ertalabki badantarbiya
8:50-9:00	Bolalar bilan suhbat
9:00-10:30	O'yinli ta'lim faoliyatları
10:30-11:00	O'yin, mustaqil faoliyat
11:00-11:15	Ikkinchchi nonushta
11:35-12:00	Sayr va undan keyin bolalarni uyiga kuzatish
12:00-13:00	Pedagoglar uchun tushlik tanaffus
13:00-13:30	Pedagoglarning ikkinchi smenadagi ta'limiy faoliyatlarga tayyorlanishi
2- smena	13:30-17:00 (3,5 soat)
13:30-13:40	Qabul qilish, birlamchi tibbiy ko'rlik
13:40-14:00	Bolalar bilan suhbat
14:00-15:30	O'yinli ta'lim faoliyatları
15:30-16:00	O'yin, mustaqil faoliyat
16:00-16:20	Tushdan keyingi ovqatlanish
16:20-16:35	Sayrga tayyorgarlik
16:35-17:00	Sayr va undan keyin bolalarni uyiga kuzatish

1-va 2- smena uchun mashg'ulotlarning haftalik taqsimoti

(mashg'ulotlar o'rtasidagi tanaffus 5 daqiqa)

T/r	Hafta kuni	1-mashg'ulot (30 daqiqa)	2-mashg'ulot (25 daqiqa)	3-mashg'ulot (25 daqiqa)
1	Dushanba	Atrof-muhit bilan tanishtirish	Qurish-yasash Applikatsiya	Jismoniy tarbiya
2	Seshanba	Elementar matematika	Musiqa	Rasm chizish
3	Chorshanba	Nutqni rivojlantirish	Loy ishi	Atrof-muhit bilan tanishtirish
4	Payshanba	Elementar matematika	Jismoniy tarbiya	Tabiat bilan tanishtirish
	Juma	Savodga tayyorlash	Rasm chizish	Musiqa

Qisqa muddatli guruhlar uchun bunday ta'limiy faoliyatlar jadvali, bolalarni maktabga tayyorlashning ham 9 oylik, ham 3 oylik kurslarida taklif etiladi. Bunday jadvalning afzalligi shundaki, agarda ota-onalar pedagog tomonidan ta'limiy faoliyatningr aynan shu turi oldiga quyilgan vazifalarga erishish borasida uni qo'llab-quvvatlab, mashg'ulotlarni davom ettirsalar, ochiq havodagi faoliyatlar vaqtin uzaytirilishi ham mumkin.

Ushbu ta'limiy faoliyatlar jadvaliga ko'ra, qisqa muddatli kun, hafta hamda 9 oylik o'quv yili mobaynida bolalar quyidagi faoliyat turlariga jalb etiladi:

Faoliyat turlari	Kuniga bir smenada	Haftasiga	Yil (9 oy) mobaynida
Ta'limiy faoliyatlar	1 soat 30 daqiqa	7 soat 30 daqiqa	270 soat
O'yin, mustaqil faoliyat	30 daqiqa	2 soat 30 daqiqa	90 soat
Sayr	25 daqiqa	2 soat 5 daqiqa	72 soat

Nazorat savollari:

1. Rejalahtirish qanday xususiyatlarga ega?
2. Tarbiyachining ish hujjalarni sanang.
3. Istiqbol reja qanday muddatga tuziladi?
4. Haftasiga qisqa muddatli guruhlarda mashg'ulotlar nimaga asoslanib tuziladi? 2-smenada-chi?

Topshiriq; Tarbiyachining ish hujjalarinini tartib bilan yozing, har birini mazmun mohiyatini taqdimot orqali namoish qiling.

Foydalilanigan adabiyotlar;

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi, Toshkent-2018.
2. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
3. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.

BOLALARINI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASH SHAKLLARI VA METODLARI

Tayanch tushunchalar: *musiqiy-badiiy tarbiya, jismoniy tarbiya, psixologik xususiyatlar, etnopsixologik xususiyatlar.*

O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lif konsepsiyasida ham belgilangan bosh maqsad va vazifalar maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun yozilgan yangi dasturlar mazmunini amalga oshirishga qadar aniqlana boradi. Maktabgacha ta'lif tashkilotidagi bolaning o'sishidagi psixologik va etnopsixologik xususiyatlarga asosilanib, ta'lif-tarbiya tizimida odob estetik, musiqiy-badiiy, jismoniy tarbiyani birinchi uringa chiqarish, gramatikani bu qadar majburiy o'rgatmaslik lozim bo'ladi. Shunday yo'l bilan maqsad asosida vazifa va usullar belgilanadi va rivojlantiriladi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda tub islohotlarni olib bordi. Xusan, ta'lif sohasida tub islohotlar amalga oshirildi. «Ta'lif to'g'risida»gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi va ta'lif sohasidagi boshqa qonunlar buning yakqol dalilidir. Bulardan kuzlangan maqsad yoki davlatimizga kerakli bo'lgan yetuk, har tomonlama kamol topgan barkamol shaxsni tarbiyalash va ularni jamiyatda uz o'rnnini topishga imkoniyatlar yaratib berishdan iborat qilib qo'yilgan. Albatta, bu xayrli ishlarni ta'lif-tarbiyani birinchi bugini bo'lgan oila, maktabgacha ta'lif tashkilotidan olib borish maqsadga muvofiqdir, deb ko'rsatib o'tilgan. Shunday ekan, biz birinchi navbatda maktabgacha ta'lif tizimiga e'tibor berishimiz, ularni yetuk malakali mutaxassislar bilan boyitishimiz zarurdir. Tarbiyalanayotgan bolalarni har tomonlama bilimli odob-axloqli qilib tarbiyalash bizning oliv maqsadimizdir. Maktabgacha yoshdag'i bolalarga ta'lif-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatları, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik g'oyalalariga sodiq holda voyaga etib borishni ta'minlash, ularni maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lif-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta'limga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdag'i bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qdam» davlat o'quv dasturi asosida amalga oshiriladi.

Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg'urishi lozim. Shu bois «Ta'lif to'g'risida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamalkatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omili bo'lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Soglim avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo'nalishidir.

Inson, uning har tomonlama uygun kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan isloxtolarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir. Xalqning boy intellektual me'rosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va tehnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lif to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariga muvofiq holda tayyorlangan Dastur kadrlar tayyorlash milliy modelini ro'yobga chiqarishni, har tomonlama kamol topgan, jamiyatda turmushga moslashgan, ta'lif va kasb-hunar dasturini ongli ravishda tanlash va keyinchalik puxta uzlashdirish uchun ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa tarzdagi sharoitlarni yaratishni, jamiyat, davlat va oila oldida uz-javobgarligini his etadigan fukarolar tarbiyalashni nazarda tutadi.

Maktabgacha ta'lif bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishni ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lif olishga tayyorladi. Maktabgacha ta'lif, bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat (davlatga qarashli bo'lmagan) maktabgacha ta'lif tashkilotlarida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lifning asosiy vazifalari quyidagilar deb belgilanadi:

- bolalarni xalqning boy milliy, madaniy tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash;
- bolalarda milliy g'urur, vatanparvarlik hislarini shakllantirish;
- maktabgacha yoshdagagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish mayllarini shakllantirib, ularni muntazam ravishdagi ta'lif jarayoniga tayyorlash;
- bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish.
- bolalarning jismoniy va ruhiy sogligini ta'minlash kabilarni o'z oldiga maqsad qilib belgilaydi.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarining yasli va maktabgacha ta'lif yoshdagি bolalar guruhlariiga bir xil yoshdagи, shuningdek turli yoshdagи bolalar qabul qilinishi mumkin.

Guruhlardagi bolalar soni quyidagicha belgilanadi:

- 3 yoshdan 4-5 yoshgacha – 20-25 ta.
- 5-6 yoshdan 6-7 yoshgacha – 25-30 ta.

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari lari hududlarining demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, MTTlarini tashkil etish va tugatish Qonunga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari lari ularning yo'nalishlariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ;
- qo'shma tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari ;
- ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari turlari ota-onalar tomonidan tanlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qabul qilish tartibi, ularni bir muassasadan ikkinchisiga ko'chirish, muassasadan chiqarish davlat muassasalarida Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan tartibda, davlatga qarashli bo'lmagan Maktabgacha ta'lim tashkilotlarilarida esa, tashkilotning Ustavi bilan belgilanadi.

Aqliy va jismoniy rivojlanishda kamchiliklari mavjud bo'lgan bolalar uchun maxsus Maktabgacha ta'lim tashkilotlari yoki guruqlar tashkil etish ham "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'grisida"gi Nizomda ko'rsatib o'tilgan.

Har bir sohada bo'lganidek, Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimida ham Maktabgacha ta'lim tashkilotlar lariga tegishli ma'lumotga, kasb tayyorlarligiga hamda yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish xuquqiga egadirlar. Ta'limni boshqarish bo'yicha vaqolati davlat organlari tomonidan pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, kasb sifatini raqobatbardoshlik darajada saqlab turish ta'minlanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik kadrlarning o'quv pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari turiga davlat talablaridan kelib chiqqan holda Maktabgacha ta'lim vazirligi tomonidan belgilanadi. Ilg'or pedagogik va axborot tehnologiyalarni, mutaxassislar tomonidan tavsija etilgan yangi dasturlar, metodik qo'llanmalar, didaktik materiallarni joriy etish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydi.

Pedagogik kadrlarning o'zaro munosabatlari hamkorlik, demokratiya, hurmat, shaxsning o'z qadr-qimmatini bilishni e'tirof pedagogikasi asosida ko'rildi.

Maktabgacha yoshdag'i bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdag'i bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari takdim etilmoqda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalariga jalb etilmagan 3 milliondan ortiq bolani ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi. Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir suz bilan aytganda barkamol shaxsni

voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu uzlusiz ta'lim tizimining ilk turi-maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondoshuvni talab etar edi.

Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-onas zimmasiga uni soglom, aqli, xush xulqlari qilib tarbiyalash vazifasi quyildi.

Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar, o'yinlar va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshirildi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab kuradi, nimagadir qulqoq soladi, shu tarzda bola dunyoni anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardag'i muhim va muhim bo'limgan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlarga bo'lib, bola bilimlarni chuqur egallab olishga yordam beradi.

Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish, birinchi navbatda, bolaning imkoniyatlarini to'g'ri foydalanishni, ikkinchi tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi kerak, degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to'laqonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng ta'limiy faoliyatlarini va boshqa faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlарини egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari, ularning mактабда muvaffaqiyatli o'qishlari uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunoqarashini shakllantirish. Bola tevarak- atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shu asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagи muhim va muhim bo'limgan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha tizimli mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan o'yinli ta'lim faoliyatini o'tkazishni rejashtirish mumkin. Bular quyidagilar:

«Sen ta'rifla, men topaman».

Didaktik vazifa: Kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish.

O'yin harakati: Kattalarga topishmoqni aytish.

O'vin qoidasi: Ta'riflanayotgan narsaning nomini aytish mumkin emas. Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish.

Jihozlash: Sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinxmaydigan qilib qo'yiladi.

O'yining borishi: Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini surayman. Siz javob berasisz. Faqat uning nomini aytmang. Sizlarning javoblaringizdan men uni topishga harakat qilaman. Keyin tarib bilan tarbiyachi savol beradi: «Shakli qanday?, Hamma tomoni shardek dumaloqmi?, Chuqurchasi bormi?, Rangi qanday?», va boshqalar.

Bolalar savollarga to'la javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib bergenlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi.

Ta'limiy faoliyatda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakkllantiradi. Tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga bolalarning jozibali munosabati imkon beradi. Ta'limiy faoliyatlarda, didaktik o'yinlarda qo'yilgan vazifani hal etishda bola buyum va hodisalarning ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiy xususiyatlarga, belgilari qarab guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rganadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rganadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Ta'limiy faoliyatni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-harakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Ta'limiy faoliyatlar, didaktik o'yinlar davomida turli maktabgacha yoshdagi bolalar ko'p marotoba takrorlash orqali bolalar bog'chasining ta'lim-tarbiya dasturiga xos bilimlar

majmuini uzlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan uynaladigan o'yinlarni tanlashtirishda tarbiyachi o'yining mazmuni atrof muhitdagi tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmasligi lozim.

Masalan: «Urug' sotib olish» o'yini bahorda, «Hosil yigishtirish» esa yoz yoki kuzda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham ta'limiy faoliyat, o'yining turlicha variantlarini o'ylashi mumkin: o'yinga, ta'limiy faoliyatlarga qo'shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrofdagi tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga va boshqalar. Ba'zi bir xil didaktik o'yinni turli variantda, turli yoshdagи bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xhash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o'ynash ko'pincha guruh xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg'a qilishga xohishlari bilan bog'lanadi. Bunday o'yinlarni, Ta'limiy faoliyatni o'tkazishda bolalarni o'simliklarga nisbatan ehtiyotkorlikka, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o'rgatish lozim. Agar bola olma yoki boshqa predmetlarning shakliga diqqatini qaratgan bo'lsa, unga olmani dumalatib ko'rish, koptokdek silab kurish, uning silliqligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o'rgatish lozim. Xilma-xil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita kuzatishlari uchun eng tushunarligi o'simlik va uy hayvonlaridir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, hayvonlarni parvarishlashga, o'simliklarni o'stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Bolalarning bilishga qiziqishi va aqliy qobiliyatları qanday rivojlantiriladi?

3. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish usullarini aytинг.

Topshiriq: Bolalarning aqliy ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi o'yinlarni yozing va izohlang.

Foydalilanilgan adabiyotlar;

1. "Ilk qadam" davlat o'quv davturi, Toshkent-2019.
2. Hasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
3. Qayumova N.M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2013.

“ILK QADAM” DAVLAT DASTURI ASOSIDA BOLALARНИ SAVODGA O’RGATISH

Tayanch tushunchalar: *ta’lim-tarbiya, aqliy tarbiya, ma’naviyat, tug‘ma layoqat, ruhiy tarbiya, rivojlanish, qiziqish, ehtiyoj, minimal talablar,* “Men” konsepsiysi, omil, nutq, o‘qish, savod, tayyorgarlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoni, aqliy va ma’naviy jihatdan shakllantirish, ularning tug‘ma layoqati, ruhiy rivojlanishi, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta’lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantrish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu “Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablar” orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida maktabgacha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorlik darajasiga qo‘yiladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi. Davlat talablar ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, ota-onalar, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismonan sog‘lomligi, qobiliyati, ruhiy rivojlanishi va imkoniyatlari, ya’ni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqiladi. Bola kishilik jamiyatining sog‘lom va faol a’zosi bo‘lib yetishishi uchun odamlar orasida yashashi, insoniyat hayoti va mehnati jarayonida ko‘p asrlardan buyon to‘plab kelinayotgan bilimlarni egallab borishi, kattalar tarbiyasida bo‘lmog‘i lozim. Bolaning xotirasi va kuzatuvchanligi, diqqati va tafakkuri, histuyg‘ulari va irodasini mashq qildirish kabi faoliyatlar, odatda murabbiy va tarbiyachilar tamonidan amalga oshiriladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining ayrim xususiyatlarini rivojlantrishda bu faoliyatning mazmuni va uning qay darajada uyuşhtirilganligi katta ahamiyatga ega. Chunki to‘g‘ri tashkil etilgan faoliyat davomida, atrofdagi kishilar bilan kundalik munosabatda bolaning aqliy, jismoniy va axloqiy rivojlanishi takomillashib boradi. Shuning uchun ham bolalar faolligini bilish, bolada foydali odatlarni shakllantirish, ijobji xarakter belgilarni rivojlantrish ota-onalar va tarbiyachilarning asosiy vazifasidir. Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko‘nikmasi, kattalar va tengdosh o‘rtoqlarini tushunish, ular bilan hamkorlik qilish ham talab etiladi. Shuning uchun, bola maktabga qadam qo‘yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko‘nikmasi, voqe-hodisani mustaqil ravishda tahlil etishi va mustaqil harakat qilishi muhimroq hisoblanadi. Bolani biror narsaga o‘rgatishgina emas, unda o‘z

kuchiga ishonchni orttirish, o‘z g‘oyasini himoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish hamda unda “Men” konsepsiyasini shakllantirish ham muhimdir. O‘zbekiston Respublikasida “Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti to‘g‘risi”da Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda, ota-onalarning mustaqil ravishda ta’lim va tarbiya berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, tashkilotga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta’lim mtashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta’limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun, maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta’lim tashkiotida yoki uydayoq maktab ta’limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi. Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy hodisalar haqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Bolalarni savodxonlikka o‘rgatishda davlat talablarining o‘rni. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar maktabgacha ta’lim tizimi hamda oilalarda bolani to‘laqonli tarbiyalash, ta’lim berish va rivojlantirish, uni maktabga samarali tayyorlashda qo‘llanishi majburiy bo‘lgan davlat hujjati bo‘lib hisoblanadi. Davlat talablari 0-7 yoshli bolaning qay darajada rivojlanganligi va egallagan yutuqlarini baholab boruvchi talablar bo‘lib, ular bilim, malaka va ko‘nikmalar rivojlanishining ko‘rsatkichlarini belgilaydi:

1. Jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
2. Ijtimoiy - hissiy rivojlanish.
3. Nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari.
4. Bilish jarayonining rivojlanishi.
5. Ijodiy rivojlanish.

Mazkur 5 ta yo‘nalish 0 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘z-o‘ziga xizmat ko‘nikmalarining shakllanishi, nutq, o‘qish va savodga tayyorlash darajasini, atrof-olam haqidagi tushunchalarni va qo‘yilgan talablarni egallashi uchun asosiy omil hisoblanadi. U maktabgacha ta’lim tizimining mohiyatini belgilaydi va maktabgacha ta’lim tashkilotlarini mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, barcha bolalarning tengligi va bolalik qadriyatini saqlagan holda har bir bolaning individual (alohida) rivojlanishini ta’minlashga yo‘naltiradi. Davlat talablarining maqsadi:

- mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, texnika va tehnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqib mактабгача ta'lim tizimi faoliyatini yo'lga qo'yish;

- sifatli ta'lim ko'rsatish xizmatlari, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxs, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;

- kadrlar tayyorlash sifati va ta'lim faoliyatining tartibini belgilash;

- bola shaxsi asoslarini shakkantirish hamda uning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish;

- bolaning intellektual shaxs sifatida va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;

- bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish;

- bolalarni mакtab ta'limiga tayyorlashdir.

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalarining to'g'ri qo'llanilishi har bir insonning jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o'rин tutadi. Ma'lumki, aholining savodxonligi bugungi kunda jamiyat rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifati darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatli faoliyat olib borish imkonini yaratadi. Shunday qilib, savodli bo'lish bilimlar kalitiga ega bo'lish deganidir. To'g'ri va ravon nutqqa ega bo'lish murakkab jarayon bo'lib, bola tug'ilganidan boshlanadi va bir nechta omillardan kelib hiqadi. Nutqning rivojlanish jarayonida bola keyingi hayoti davomida rivojlanib va takomillashib boruvchi murakkab bilimlar tizimini egallaydi. Go'dakligida qo'llagan yuz ifodasi va tana harakatlari o'rnini tezda tovushlar, so'zlar va gaplar egallaydi. Shunday qilib, endi ular o'z fikr va hislarini ifoda eta oladilar, shu bilan birga ularga o'zlar so'zlashayotgan o'zga kishilarni tushunish ham zarur bo'ladi. Nutq oilada, keyinchalik, mакtab va jamiyatda rivojlanib boradi. Til va savodning rivojlanishi ona tilida ifodalash qobiliyatiga asoslanadi. "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" yo'naliшining asosi-so'zlashuv nutqini tinglash va tushunish, kitob o'qishga qiziqish uyg'otish, yozish malakalarini rivojlantirishdir. Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi quyidagi talablardan iborat bo'lgan quyidagi kichik sohalarni o'z ichiga oladi:

- nutq va til;

- o'qish malakalari;

- qo'l barmoqlari mayda motorikasi.

5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari sohasi rivojlanishiga quyidagicha davlat talablari qo'yiladi:

- bola nutqni tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- bola so'zlashish va muloqot qilishga qodir bo'lishi;

- oddiy tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- lug'atni faollashtirish;
- nutqning grammatik tuzilishini shakllantirish;
- bog'lanishli nutqni shakllantirish;
- ijodiy hikoya qilishni shakllantirish lozim.

Bu kabi talablarni bajarishda quyidagi ko'rsatkich (indikator) larga e'tibor qaratiladi:

➤ Bola musobaqalar va munozalarda ishtirok etadi va u erda eshitgan ko'rsatmalami to'g'ri bajaradi. Ayrim maxsus so'zlarning ma'nosini tushunadi (shifokor bolalarni davolaydi, o'qituvchi bolalarni o'qitadi...). Boshqalardan yoki radio, televizor, teatrda eshitgan hikoyalarni osonlikcha bayon qiladi.

➤ Ona tilini juda yaxshi biladi, oddiy, umumiy foydalanishdagi gaplar yordamida fikrini ifodalaydi.

➤ Mavjud til tizimi (tovush, so'z, gap) to'g'risida elementar (oddiy) tasavvurga ega.

➤ So'zdan tovushni, unli va undosh tovushlarni ajrata oladi.

➤ Narsalarning nomlarini to'g'ri aytadi, bir-biri bilan solishtirib, ayrim farqlarini tushunadi.

➤ O'z nutqida uyushiq bo'laqli, sodda, yoyiq va qo'shma gaplarning turli xillaridan foydalana oladi.

➤ O'yinchoqlar va buyumlar haqida hikoya tuza oladi.

➤ Shaxsiy tajriba, mazmunli rasmlar asosida hikoya tuza oladi.

➤ Gaplarni grammatika jihatdan to'g'ri tuza oladi.

➤ Surat (rasmlar) bo'yicha mazmunli hikoya tuzadi.

➤ Umumlashtiruvchi so'zlar, antonimlar, solishtirmalardan foydalanadi.

➤ Harakatlarni rejalashtirish uchun nutqdan foydalanadi.

➤ O'z tuyg'ulari va niyatlarini nutqli ifodalab, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda ishtirok etadi.

➤ Turli hikoyalarni so'zlab beradi, hikoyalarni o'ylab topishga harakat qiladi, qofiya va so'z o'yiniga qiziqish bildiradi.

➤ Kitoblar, teleko'rsatuvlardan nutqning turli parchalarini yodlab oladi va ishlatadi.

Ushbu ko'rsatkichlarni amalga oshirish uchun tarbiyachi ta'limga quyidagicha yondashuvi nazarda tutiladi:

➤ Musobaqa, munozara va boshqa tadbirlarni tashkil etishi, savollar berishi va bolani to'g'ri javob berish yoki ko'rsatmalarni bajarishga yo'naltirishi lozim.

➤ Bolalarning yangi so‘zlardan foydalanish va ularning ma’nosini bilish istaklarini rag‘batlantirishi kerak.

➤ Bolaga muntazam ravishda hikoyalari aylib turishi, teatrga olib borishi, bola bilan ko‘rganlarini muhokama qilishi lozim. Rasmga qarab mazmunli hikoya tuzishga, nutqni rivojlantirish bo‘yicha maxsus trening va o‘yinlarni o‘tkazishga yordam berishi, qofiya va so‘z o‘yinlari, she’rlarni ifodali o‘qish, ertaklarni aylib berish, shaxsiy hayotdan hikoya tuzishlariga ko‘maklashishi kerak.

➤ Bolani ijodiy dramatik, rol ijob etish o‘yinlarida ishtirot etishga jalb qilishi lozim.

O‘qish malakalarini egallash nomli kichik sohada quyidagicha talab qo‘yiladi:

Bola bosma materiallarga qiziqish bildiradi, harflar va ramzlarini ajrata oladi.

Bola yozish ko‘nikmalarini o‘rganadi. Oddiy tahlil va sintez qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish. **Indikatorlar (ko‘rsatkichlar):**

➤ Ko‘p vaqt davomida kitob bilan o‘tirib, uni tomosha qilishi mumkin, kitobni to‘g‘ri holatda ushlaydi.

➤ Ayrim ma’lumotlarni yig‘ish uchun kitoblardan foydalanadi. Bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aylib berishi mumkin.

➤ Adabiy asarlarning ayrim parchalarini so‘zlab beradi.

➤ Alifboni biladi.

➤ Bo‘g‘inlar bo‘yicha o‘qishi mumkin.

➤ Yozishning barcha elementlarini biladi (ilmoq, gajak, chiziqchalar, tayoqchalar).

➤ Yozish ko‘nikmalarini o‘rganadi.

➤ Namunadan 2-3 ta so‘zlarni olib yozadi va chizadi.

➤ O‘z ismini va 2-3 ta so‘zlarni bosma harflarda mustaqil ravishda yozadi.

➤ Gapni so‘zlarga bo‘ladi, so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi.

➤ Ma’lum tovushlarning o‘rnini aniqlay oladi (so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida).

➤ So‘zda tovushlar ketma-ketligini aniqlaydi.

➤ Bo‘g‘inlardan so‘zlar, so‘zlar ishtirokida gap tuza oladi;

➤ Tovushlarni eshitib farqlay oladi.

Tarbiyachilar pedagogik tajribaga ega bo‘lsalar, o‘z tarbiyalanuvchilarining psixologik rivojlanish qonuniyatlarini yaxshi bilsalar, albatta, bolalarda ijobjiy o‘zgarish bo‘lishiga erishadilar. Chunki, o‘qitish va tarbiyalash tajribasi boladagi tug‘ma xarakter belgilarini o‘zgartirishda g‘oyat katta imkoniyat manbaidir. Lekin bunday o‘zgarishlarning chegarasi va pedagogdan talab qilinadigan mehnat

o'Ichovi, albatta, xilma-xildir. U yoki bu bola shaxsining o'ziga xosligini, uning boshqa odamdan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlar birikmasi individuallikdir. Individuallik temperamentda va xarakter xususiyatlarida, odatda, qiziqishda, bilish jarayonlariga oid fazilatlarida (idrok, xotira, tafakkur, tasavvur) qobiliyatda, faoliyatning shaxsga xos uslubida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Psixolog suhbat davomida bolaga qilinayotgan ishning maqsadi va natijasi haqida ma'lumot berishi, suhbat mazmuni sir tutilishini aytishi va o'z navbatida bunga qat'iy amal qilishi lozim. Suhbat davomida tashqi muhit ta'siri ham e'tiborga olinishi zarur, chunki tinch va osoyishta muhit bolada o'z kuchiga ishonish hissinn tug'diradi, jiddiylikka da'vat etadi, qolaversa, muomala madaniyatiga o'rgatadi. Umumiy o'rta ta'lif mifik tabulariga olti yoshli bolalaning dastlabki kundan boshlab mifik sharoitiga moslash jarayonini o'rganish muhim sanaladi. Ko'pgina hollarda olti yoshli bolalarda bilish jarayonlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ijtimoiy moslashuvning shakllanmaganligi ta'lif jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Ta'lifi faoliyatlar bolaning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozishga doir malaka va ko'nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta'lif talablariga munosib tabiiy shakl, o'yinlar yordamida rivojlantirib borishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni o'qish va savodga tayyorlash.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish va so'zning tovush tarkibi haqidagi tasavvurlarini aniqlash va shakllantirish. Unli va undosh tovushlar haqida tushuncha berish. Jarangli va jarangsiz tovushlarni ajratishga o'rgatish asosida fonematik idrokni va tasavvurni rivojlantrish. Ushbu navbatdagi gap atrofida gaplar tuzdirish, shu tariqa xabarni mukammal holga keltirish ishini davom ettirish va nihoyalash bog'lanishli nutq o'stirish borasida katta ta'lifi va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ta'lifi jihat shundaki, bolalar bir gapni ikkinchisiga mantiqan bog'lash, bunda leksik va grammatik vositalardan foydalanishga doir qo'shimcha bilim oladigan, ko'nikmalar hosil qiladilar. Tarbiyaviy jihat tuzilayotgan jumlalarning mazmunli va ta'sirchan ekanligida ko'rinadi.

Ta'lifi faoliyatlarini o'tkazib borish jarayonida bolalar bilan samimi, erkin muloqotda bo'lish, ularni shoshirmsandan to'g'ri tushuntirib borish, o'yin tariqasidagi tabiiy muhitni yaratish, bolalarning qobiliyatlarini holisona ko'tarinki tarzda baholash muhim omillardan biri bo'lib sanaladi. Hamma yoshdagagi guruhlarda bajariladigan mashqlar o'yin elementlari kichik guruhda-surpriz momenti ko'rinishida, o'xhash harakatlar, ertak qahramoni va hakozolardan iborat bo'ladi. Katta guruhlarda bunday mashqlar izlanish, musobaqa xarakterida bo'ladi. Shuningdek bolalardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantrishga predmetlar, ularning

nomi, tuzilishi, shakli, rangi, xususiyatlari hamda erta o'qish, sanash, turli material va asboblar bilan tanishish va ishlash kabilar katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z faoliyatida bor bo'lgan imkoniyatlaidan qancha ko'p foydalansa, uning qobiliyatları ham shunchalik rivojlanadi. Bu imkoniyatlardan foydalanish bolaning ilk yoshligidan boshlansa, oson amalgal oshadi. Bu vaqtida olamni bilish jarayoni juda intensivlik bilan kechadi. Bunda kichkintoy har qachongidan ko'proq ijod bilan shug'ullangan va ko'pgina yangi vazifalarni mustaqil echishga majburdir. Ayniqsa, bolalar oldiga muammoli vaziyatni qo'yish, ularni ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Shuning uchun matematika ta'limiy faoliyatları o'yin va qiziqarli masalalar orqali uyuşdırilsa yaxshi samara beradi. Jumladan:

- ta'lim jarayonini osonlashtiradi;
- bolani chuqurroq bilim olishga undaydi,
- bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o'stiradi,
- matematika bo'lgan qiziqishini oshiradi,
- bolalarning tez fikrlash, tasavvur qilish, o'qish malakasini rivojlantiradi.

Matematik o'yinlar bolalar bilimini boyitishga, ularning aqliy faoliyatini o'stirishda, bola hayotining rivojlanishiga yordam beradi. Ta'limiy faoliyat jarayonida raqamlardan foydalanib masalalar tuzishda ularning qatori qancha o'xshash bo'lsa shuncha bolalar chalg'ishadi. Shuning uchun raqamlarni just-just qilib berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 5 raqami, 5 ta olma, 10 raqami undan ko'proq olmani bildiradi deb ko'rsatilganligi tushuntiriladi. Bolalarni qabul qilishi, tushinishi va esda saqlab qolishi osonroq bo'ladi. Bolalar masala echishni juda yaxshi ko'radilar. Bu borada ham aniq tartibga amal qilish kerak. Dastavval ular syujetli masalalarni o'ylab, yechadilar: Ona 15 ta qurt sotib olib, 5 ta qurtni qo'shnisiga berdi. Nechta qurt qoldi? Bu kabi topshiriqlar bolalarni o'ylashga, fikrlashga undaydigan masalalar, o'yinlar, topishmoqli boshqotirmalar tafakkurni o'sishiga, ularni har tomonlama rivojlantirishga ta'sir etuvchi vosita hisoblanib, muammoli vaziyatlar yaratish imkoniyatlarni kengaytiradi, bolalarning kattalar bilan muloqotni tashkil etishga yordam beradi. Bolalarning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o'qish, yozishga doir malaka va ko'nikmalarini boyitib borishga doir quyidagi mashq va mashg'ulotlarni tavsiya etish mumkin:

«Ertak to'qiyimiz»

Maqsad: Bolalarda xotirani, ijodiy tafakko'rni, tasavvo'rni rivojlantirish va qo'l matorikasini yaxshilash.

Ko'rsatma: Bola bir butun matnlarni eslab qolishi va qayta esga tushirish malakasini ham o'zlashtirishi lozim. Shu sababli bolaga 4-5 asosiy epizoddan

iborat qisqa hikoya va ertak o‘qib beriladi hamda uni takrorlab berishi so‘raladi. Bolalar eshitganlarini behato takrorlab berishga ko‘p hollarda qiynaladilar. Bola eshitganini yozib ololmaydi, shu sababli unga ertakni suratlar orqali eslab qolishni taklif etish kerak. Avvaldan tayyorlangan qog‘oz varag‘iga kvadrat chiziladi va ertak boshi eslanadi. Masalan, ertak boshida qizcha uydan chiqqani aytilgan, shu kvadratga uycha va qizcha rasmini chizish bilan voqeа boshini tasvirlasa bo‘ladi. So‘ng yana bitta kvadrat chiziladi va boladan ertakning davomini eslash so‘raladi. Shu holatni 2-3 belgi bilan tasvirlash so‘raladi va shu tariqa ertakning qolgan voqealarini ketma-ket davom ettirish imkonini yaratiladi. O‘yin va mashqlar sekin-asta murakkablasha borib, fonematik idrokni, talaffuz malakasini, eshituv diqqatini, verbal (nutqiy) xotirani, artikulyatsion motorikani rivojlantirishga yo‘naltiradi. Quyida tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, uning yozuvdagi ifodasini taniy olish hamda ushbu tovushlarning so‘zlardagi qo‘llanilish o‘rinlarini o‘rgatishga doir namunalar keltirildi:

1. Rasmlarda tasvirlangan “ayiq”, “tarvuz”, “olma” kabi so‘zlardagi “A” tovushining o‘rnini aniqlash.
2. “A” tovushi ishtirok etgan so‘zlarni eslash va ularni aniqlash.
3. Barmoqlar bilan harflarni hosil qilish.
4. Qalam, sanoq cho‘p yoki kesmalardan harflarni hosil qilish.
5. Tebranish mashqi. “A” tovushini ovozni ko‘tarib, pasaytirib kuylash.
6. “A” tovushi qatnashgan so‘zlardan gap tuzish (rasmlar asosida).
7. Nuqtalarni birlashtirish va harflarning nomini aytish.
8. “A” hamda shu kabi harflarning ichini bo‘yash.
9. “Chapak”, qalam, paxta kabi so‘zlarni bo‘g‘inga bo‘lish.
10. “Klaster” metodi orqali “A” hamda shu kabi harflarni tarmoqlantirish.

11.“L” harfini yasash uchun nechta kubikdan foydalanilgan? Ushbu kubiklarni har xil rangga bo‘yang.

12.Berilgan geometrik shakllarning nomlarini aytинг. Kvadrat shaklini qora, uchburchak shaklini qizil, kub shaklini yashil, to‘rtburchakni sariq, shar shaklini favorangga bo‘yang.

13. Shakllarni 2, 4, 6 va 8 ta teng bo‘laqlarga bo‘ling. Mashg‘ulotlar bolaning bilishga doir psixik jarayonlari: diqqat, tafakkur, idrok, tasavvur, xotira, shuningdek, o‘qish, yozishga doir malaka va ko‘nikmalarini boyitib borish kabi aqliy imkoniyatlarining ta’lim talablariga munosib tabiiy shakl, o‘yinlar yordamida rivojlantirib borishini ta’minlaydi.Maktabgacha yoshdagি bolalarda ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish maqsadida qiziqarli matematik o‘yinlar, mantiqiy masalalar va mashqlar berib, bosh qotirmalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Interfaol ta’lim

– ta’lim oluvchilarning muloqot olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini rivojlantiradi, ular orasida emotsional aloqalar o‘rnatalishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o‘z o‘rtoqlarining fikrini tinglashga o‘rgatish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta’minlaydi.Inson savodxonligi uning kelajak hayotining sifati darajasini belgilaydi va bugungi dunyoning jadal texnik yuksalish davrida muvaffaqiyatlari faoliyat olib borish imkonini yaratadi.

Nazorat savollari:

1. O‘qish va savodga tayyorgarlik sohasida bolaning bosma materiallar va yozuv belgilari hamda harflarga bo‘lgan qiziqishlari qanday rivojlantiriladi?
- 2.Bolalarni savodxonlikka o‘rgatishda qanday davlat talablari qo‘yilgan?
3. O‘qish va savodga o‘rgatishda qanday ususllar samarali?

Topshiriq: “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturini o‘rganing, bolalarni savodga o‘rgatish bo‘yicha “Maktabgacha yoshdagi bolalarni ijodiy qobiliyatlarini o‘stirishga doir, qiziqarli matematik o‘yinlar, mantiqiy masalalar, bosh qotirmalar, mantiqiy tafakkurini rivojlantiruvchi topshiriqlar tayyorlang va taqdimot qiling.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv davturi, Toshkent-2019.
2. Bolalarning elementar matematik tasavvurlarini rivojlantirish. Bolalar bog‘chalari uchun dastur. Tuzuvchilar: N.Bikbaeva, T.Umarova. Toshkent, O‘zPFITI, 1995.
3. Abidova L. MTMdagi matematika mashg‘ulotlarini tashkil etishda qiziqarli matematikaning o‘rnii// Zamonaviy ta’lim jurnali. №2. 2005.
4. Mirjalolova L. Bolalarning so‘z boyligini ertaklar asosida oshirish. – Toshkent, 2008.

BOLANING MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORGARLIGI TAHLILI

Tayanch so'zlar: psixologik tayyorgarlik, intellektual (aqliy) tayyorgarlik, ma'naviy xususiyatlar, irodaviy xususiyatlar, tayyorgarlik, rivojlanganlik darajasi, ommaviy axborot vositalari, sangvinik, temperament, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar, melantholik, flegmatik, betokat, serzarda, harakatchan bolalar, xolerik.

Bolalarning mактабга psixologik tayyorgарligi. Maktabning bola shaxsiga qо'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeining o'zgarishi va kichik mактаб yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uзвiy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, mактабга psixologik tayyorgarlik doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellektual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so'z boyligi zahirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-onha, hatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'laydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarining keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taq qoslay bilish, tahlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini takozo etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda mактаб amaliyotchi-psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalani layotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, surovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib utilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga muljallangan metodikalardan iboratdir. 5-7 yosh bolaning mактабга intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagи narsa-hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu urinda bolalar chizmali tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsa-da, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'rmini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazliligicha qolaveradi. Mактabgacha yosh davridayoq bola kichik mактаб yosh

davrida yetakchi faoliyat turi bo‘ladigan o‘quv faoliyatiga tayyorlangan bo‘lishi lozim. Bunda bolada ma‘lum bir tegishli malakalarning shakllangan bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlaridan biri bolaning o‘quv topshirigini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o‘quvchilaridan topshiriqda o‘zi belgilagan o‘zgarish, yangilik alomatlarini kidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o‘yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o‘zlashtiradi. Yuqorida to‘xtalib o‘tganimiz intellektual tayyorlik bolaning mактабда muvaffaqiyatli o‘qib ketishi uchun yagona zamin emas. Agar bola zarur malaka va ko‘nikmalar zaxirasiga ega bo‘lsa, unda intellektual rvojlanganlik darajasi ham yuqori bo‘lsa-yu o‘quvchilikning ijtimoiy holatiga shaxsan tayyor bo‘lmasa, mактабда o‘qib ketishi qiyin kechadi. Agar o‘qituvchi yoki ota-oni uni o‘qishga qiziqtira olmasalar, o‘quv vazifalarini zo‘rma-zo‘raki, sifatsiz, qo‘l uchida bajaradilar. Bundaylarda zarur natijalarga erishish qiyin bo‘ladi. Eng yomoni, bu yoshda mактабга borishni xohlamaydigan bolalar ham uchrab turadi. 5-7 yoshli bolaning mактабга borishdan bosh tortishi asosan uni tarbiyalashda ota-onalar tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatoning oqibati hisoblanadi. Ayrim ota-onalarda mактабgacha yosh davridagi bolani mактаб bilan qo‘rqtish hollari ham kuzatiladi. “*Ikkita gapni eplab gapira olmasang, mактабда qanday o‘qiysan?*”, “*Sanashni bilmaysan-u, mактабга qanday borasan?*”, “*Mактабга borsang, o‘rtoqlaring bu qilib‘ingdan kulishadi!*” “*Hech narsani bilmaysan, mактабга borsang bizni uyaltirasan!*” kabi ta’na-dashnomlar bolada mактабдан qo‘rqish, undan xavfsirashning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Shunday qo‘rquv bilan mактабга borgan bolalarning mактабга bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish, ularda o‘ziga nisbatan ishonch uyg‘otish uchun haddan ziyod kuch, vaqt, mehnat, sabr-toqat, chidam, e’tibor zarur bo‘ladi. Bu esa bolada oldindan mактабга nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga qaraganda, shubhasiz, murakkab jarayondir. Bolani birinchi sinfda o‘qitishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarning sababi kattalarning bola bilan bo‘ladigan muloqotlari shakli u yoki bu vaziyatga bog‘liq bo‘limgan holda, shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday muloqot bolaning kattalar e’tiboriga va hamdardligiga bo‘lgan ehtiyoj va ehtiyojlarning kattalar tomonidan qondirilishi bilan xarakterlanadi. Muloqotning bu shakliga erishgan bolalar uchun kattalarga e’tibor, ular murojatini tinglash va tushunishga intilish va kattalar tomonidan ham ularga nisbatan shunday e’tibor ko‘rsatilishiga bo‘lgan ishonch xosdir. Bunday bolalar kattalarning turli vaziyatlarda (ko‘chada, uyda, mehmonda, ishxonada) o‘zlarini qanday tutishlarini farqlay oladilar. Kattalarning bunday xulqni anglash

evaziga bolalar ham kattalarga, o'qituvchilarga, shu vaziyatga mos ravishda munosabatlarni namoyon qiladi. Agar bolada kattalarga nisbatan bunday munosabatlar shakllanmagan bo'lsa, unga mos ravishda kattalarga nisbatan ham tegishli munosabat yuzaga kelmaydi, bu esa, albatta, bola bilan olib boriladigan ta'lif jarayonini murakkablashtiradi. Ota-onalar har bir bola ruhiy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi va bu xususiyatlar ularning u yoki bu faoliyat turini egallashida namoyon bo'lishini yodda tutishlari lozim. Ba'zi bolalar endigina birinchi so'zlarni o'zlashtirganlarida ularning tengqurlari allaqachon ma'lum bir iboralar bilan gaplasha oladigan bo'ladilar. Ta'lif jarayonida bola imkoniyatlarining namoyon bo'lishi ma'lum darajada nasliy omillar bilan ham bog'liq dir. Bolalar o'z temperament xususiyatlariga ko'ra ham bir-birlaridan ajralib turadilar:

Xushchaqchaq, sergap, quvnoq, hayotning o'zgaruvchan sharoitlariga tez moslasha oladigan bolalar – *sangvinik* temperamentga mansub bo'ladilar. Ko'pincha noxush kayfiyatda yuradigan, ta'sirchan, kamgap, sust bolalar – *melanxolik* temperamentga kiradilar. Xotirjam, befarq, kamharakat, nutqi sust bolalar – *flegmatiklardir*. Jahldor, betoqat, serzarda, harakatchan bolalar – *xolerik* hisoblanadilar. Bolalar kattalarning yordamiga muhtoj bo'lishiga qarab ham bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bolalar biror xatti-harakatni bajarishni bir necha marta ko'rsatish, tushuntirish, ketidan ergashtirish kerak. Boshqa bolalarga esa bajariladigan ish bir marotaba ko'rsatilsa yetarli bo'radi. Shunday bolalar ham borki, ular berilgan vazifani mustaqil bajaradilar. Bolalar o'zlarini qiziquvchanlik, aqliy faoliyklariga qarab ham bir-birlaridan ajralib turadilar. Ba'zi bolalar ko'p savol beradilar va harakatchan bo'ladilar, ba'zi bolalarni esa hech narsa qiziqtirmaydi. Ota-onalar bolalaridagi o'ziga xosliklarni qanchalik chuqur bilsalar, ularga o'rgatishni muvaffaqiyatli tashkil qila oladilar. Bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi keng va mukammal bo'lib rivojlangan bo'lishi darkor. Bolalarga qanchalik yaxshi bilim bersak, o'ylaymanki ular kelajakda Vatanga sadoqat ruhida, yetuk inson bo'lib etishadilar. Demak, tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun hamma vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda salomatlik va jismoniy rivojlanganlikning ahamiyati. O'qish uchun bolalar anchagina jismoniy va aqliy kuch sarflashlari kerak. Shuning uchun ota-onalar maktabga borguniga qadar uning to'g'ri jismoniy rivojlanishi va sog'lom bo'lib o'sishi g'amxo'rlik qilishi juda muhimdir. Bola hayotining rejimi. Odatda, sog'lom bola kasalmand va zaif bolaga nisbatan maktab rejimiga va butun dars davomida o'zida jush urib turgan g'ayratlarini tiyib jim utirishga tezroq ko'nikadi. Har bir bola aniq kun tartibiga ongli ravishda rioya qilishiga bog'liq . Bolani maktab rejimiga tayyorlashda, uning

sogligini mustahkamlashda ertalab ma'lum vaqtida o'rindan turish, ovqatlanish va uyquga yotishga aniq rioya qilinishi kerak. Har bir oila mehnat faoliyatining xarakteri, maishiy sharoiti, bolalarning soni va shu kabilarga o'z yashash tartibini o'rnatadi. Biroq siz bir narsani, ya'ni mактабгача yoshdagi bolaning nonushtasi va tushligi o'rtasidagi oraliq 4 soatdan oshmasligini, tushlik va kechki ovqat o'rtasidagi oraliq – bir oz kattaroq (6-7 soat), buning orasida yengil ovqatlanish kechki choy bo'lishi kerakligini unutmasligingiz kerak. Bolaning bir sutkadagi uyqusi taxminan 11 soatni tashkil qilishi kerak. Bola tushlikdan so'ng 1-1,5 soat dam olishga odatlansin. Kechqurun u doimo bir vaqtida, ya'ni 9 dan kechikmay uxlagani yotsin. Bola miriqib uxlasin desangiz, quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- bola uxlaydigan xonani yaxshilab shamollating;
- bolani uplashga yotishdan oldin tishini tozalashga, yuz-qo'li, buyni, oyogini yuvishga odatlantiring;
- bolaga o'rinda nonushta qilishga aslo yo'l qo'y mang;

- bolaning me'yoriy rivojlanishi uchun u toza havoda ko'p harakat qilishi kerak. Tengdoshlari bilan chopsin, sakrasin, narsalarga tirmashib chiqsin. Bola ochiq havoda kish oyalarida 4 soatdan kam bo'lmasin, yozda esa deyarli butun kunini ochiq havoda o'tkazsin. Bolaga kun bo'yti tinim bilmay lakillab yurishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, bunday ortiqcha o'ynoqilikdan bola mактабнинг talabchan intizomiga ko'nikishi qiyin bo'ladi. Harakatlari o'yinlarning tinch faoliyatlar bilan almashinib turishini kuzatib borish zarur. Bolaning kundalik rejimga amal qilishi uchun asosan, qat'iy nazorat lozim. Bola kundalik rejimni bajarish majburiyligiga va hech qanday gap, iltimoslar, ma'lum vaqtida ovqatlanmaslik hamda o'ynamaslikka sabab bo'la olmasligiga ko'nikishi kerak. Shu bilan birga rejimning zarurligi va uning foydasini doimo tushuntirib borish lozim. Masalan: "*Ertalabki badantarbiya mashqlarini yaxshi bajarding, endi kun bo'yi tetik yurasan*", "*Barakalla, gullarni tozalab yaxshi qilbsan. Menga ancha yordaming tegdi*", "*O'z vaqtida ovqatlansang, tez o'sasan hamda, kasalga chalinmaysan*" va shu kabilar. Rejimning qimmati bola faoliyatining har xil turlarining almashinib turishini ta'minlashdir, bu esa yosh, o'suvchi organizmni charchashdan saqlaydi, bolaning har tomonlama kamol topishiga imkon beradi. Masalan, bola rasm solishga qiziqib ketib, stoldan 40 daqiqa davomida turmadi, lekin u faol harakat qilishi, ya'ni o'ynashi, chopishi kerak. Shuning uchun u o'ynab bo'lganidan keyingina unga tinch o'zin yoki mashg'ulotni tavsiya qilish mumkin. Agarda ish shu yusinda ketsa, bola shunday tartibga rioya qilsa, u qay darajada bo'lmasin astasekin o'z faoliyatini boshqarishga odatlanadi, bu uni kundalik va mактаб rejimining asosiy qoidalariга osongina ko'nikishida katta

ahamiyatga egadir. Olti yoshli bolaning kundalik rejimi taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

Nº	Kundalik rejim	Vaqti
1.	O'rindan turish, badan tarbiya mashqlarini qilish, yuvinish, o'rinni yigishtirish.	8.00-8.45
2.	Nonushta	8.45-9.15
3.	Sayr	9.15-10.00
4.	O'yinli ta'lim faoliyatları	10.00-11.00
5.	Ochiq havoda o'ynash, sayr qilish, ko'ngil ochish.	11.00-12.45
6.	Tushlik	12.45-13.15
7.	Kunduzgi uyqu	13.15-15.00
8.	O'zi yoqtirgan ish bilan shug'ullanish uchun bo'sh vaqt	15.00-16.00
9.	Kechki choy	16.00-16.15
10.	Ochiq havoda sayr qilish va o'ynash	16.15-18.00
11.	Kechki ovqat	18.00-18.30
12.	Tinch o'yinlar, kattalar topshirig'iga ko'ra qo'lidan keladigan ishlarni bajarish	18.30-20.15
13.	Uyquga tayyorlanish, gigiyenik tadbirlar (tishni tozalash, yuvinish)	20.15-20.30
14.	Tungi uyqu	20.30

Nazorat savollari:

1. Bolalarning maktabga ruhiy tayyorgarligi ahamiyatini aytинг.
2. Bolalarning maktabga tayyorlashda jismoniylar tarbiyaning o'rni qanday?
3. Olti yoshli bolaning kun tartibi qanday bo'lsa maqsadga muvofiq?

Topshiriq: "tarbiyachi bola shaxsida axloqiy his-tuyg'ularni tarbiyalash uchun qanday vosita va metodlarni qo'llasa, yaxshi xulq namunalarini o'rgatish ancha oson kechadi" izohlash uchun taqdimot tayyorlang.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. "Илк қадам" давлат ўқув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В., Евстафева Л.Г., Махмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.
2. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
3. Mavru洛 A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2008.
4. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.
5. Қодирова Ф., Тошпӯлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: "Маънавият", 2013.

BOLALARNING MAKTABDA TA'LIM OLİSHGA TAYYORLIGINI TASHXISLASH USULLARI

Tayanch so'zlar: *tashxislash, aqliy rivojlanish, Kern-Irasek, «Grafik diktant», yo'rignoma, suhbat, kuzatish, ko'nikma, tayyorgarlik, discomfort, yondashish, omil.*

Bolalarning matabda ta'lif olishga tayyorligini tashxislash usullari. Bolaning matabda ta'lif olishga tayyorligini tashxislash bu tekshiruv juda zarur. U oila uchun bolaning qaysi jihatlariga tuzatish (agar u zarur bulsa) kiritishda, olti yoshlining muvaffaqiyatlari va kamchiliklariga qanday yondashishda, shu maqsadda u tarbiyachilarga, qolaversa, 1-sinf o'qituvchilari uchun ham kerak. Bolani o'qitish uchun uni har tomonlama bilish kerak. Afsuski, bugungi kunda tashxis tiziminining takomillashmaganligi, o'zini oqlamagan turli xil shakllarni ko'pligi ta'lif muassasalarining hamda ota-onalarning bolalarni matabga tayyorlash borasida faoliyatini qiyinlashtirmoqda. Masalan, ayrim matablarda bolalarni birinchi sinfga olishda bolaning matabga tayyorgarligini belgilovchi asosiy ko'rsatgich sifatida tez o'qish ko'nikmasi (bir minutda 50-70 va undan ham oshiq so'z) ilgari surilmoqda. Vaholanki, bu ko'nikma matabgacha ta'lif davlat dasturiga kiritilmagan. Agar bola tez o'qishga o'rgangan bo'lsa yomon emas, biroq bu matabga borishdagi shartli talab sifatida qabul qilinmasligi kerak.

Tashxis o'tkazish, bolaning rivojlanganligi va matabda ta'lif lishga tayyorgarligi darajasini aniqlash maqsadida turli usullarning bir necha variantlari berilmoqda. Biroq bu har bir bolaga tashxis qo'yishda maskur uslublarning barchasini qo'llash zarur, degani emas. Bolani tashxisdan o'tkazishni majburiylikka asoslanmagan, ishonchli suhbat yoki o'yin tartibida olib borgan ma'qul. Toki bola o'zini tekshirilayotganligini sezmasin. Bolani berilgan savollarga javob bervyotganda shoshirmaslik, uning qiziqishini so'ndirmaslik uchun suhbat va tavsija etilayotgan o'yinlardan 2-3 tasini o'tkazgan ma'qul. Bir marta tashxis o'tkazish vaqtি 20-25 daqiqadan oshmasligi lozim. Barcha turdagи matabgacha ta'lif tashkilotlari, matablar uchun majburiy bo'lgan hamda ota-onalarning ham bolani matabga tayyorligini aniqlash va bola rivojlanishidagi ayrim jihatlarni chuqurroq yechishlariga imkon beruvchi asosiy tashxislash usullarining asosiy larga quyidagilar kiradi:

1. Bolaning sog'ligi va jismoniy rivojlanganligi holati tashxisi.
2. Shaxsiy – psixologik va aqliy rivojlanganlik tashxisi: - tashxislovchi kirish suhbat;
- Kern-Irasek tizimi bo'yicha tashxislar;
- Venger metodi bo'yicha tashxislash (grafik diktant).
- 3.Ta'lif olish faoliyatining ko'nikma va ilk zaminini aniqlash tashxisi:

- bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarini aniqlovchi savolnoma (mativatsion tayyorgarlik);
- bolalarning matematik tushunchalarini aniqlovchi savolnoma;
- bolalarning ogzaki savodxonligi va nutqi rivojlanganligini aniqlovchi savolnoma.

4. Tekshirishning qo'shimcha shakllari:

- ko'rish xotirasi;
- eshitish xotirasi;
- mazmun xotirasi;
- tasavvuri va ijodiy fikrlashining rivoji;
- ogzaki – mantiqiy fikrlash rivoji;
- ma'lum joyda, hududda mo'ljal olish rivoji;
- matematik tushunchalari rivoji;
- tasvirlash faoliyati bo'yicha ko'nikma va uddalashi rivoji;
- o'zi va o'zining tasvirlash faoliyatiga munosabatini ifodalash.

Bolalarning sog'ligi va jismoniy rivojlanganligi holatini tashxislash.

Maktabga qabul qilinishdan oldin barcha bolalar o'z yashash joylaridan bolalar poliklinikasi tarkibida tor mutaxassislik bo'yicha shifokorlardan iborat bo'lgan tibbiy komissiya tekshiruvidan utishi shart. Ular bolaning sog'ligi va maktabga tayyorgarligi haqida o'z xulosalarini berishadi. Mazkur tekshiruvning erta bahorda o'tkazilishi bolada aniqlangan yetishmovchiliklarni yoz davomida dispanserizatsiyada to'ldirib olish imkonini beradi. Harakatning asosiy turlari, qo'l muskullari sport o'yinlarining oddiy ko'nikmalari, harakat sifati rivojlanganligini musobaqa, estafeta tarzida o'tkaziladigan sport va harakatlari o'yinlar davomida tekshirish mumkin.

Bolaning shaxsiy-psixologik va aqliy rivojlanganligini tashxislash.

Tashxislash subbati savollari:

1. Familiyangni, ismingni, otangni ismini ayt.
2. Ota – onangning familiyasi, ismi, otasining ismini ayt.
3. Sen qizmi yoki o'g'il ? Katta bo'lsang kim bo'lasan: xolami, tog'ami?
4. Sening akang (opang) bormi, kim katta ?
5. Yoshing nechada ? Bir yildan keyin nechaga kirasan, iki yildan keyin- hi?
6. Hozir ertalabmi yoki kechqurun(kunduzimi yoki ertalabmi)?
7. Sen qachon nonushta kilasan-kechqurunmi, ertalabmi? Tushlikni ertalab qilasanmi, kunduzimi? Tushlik oldin bo'ladimi yoki kechki ovqat?
8. Sen qayerda yashaysan? Uy manzilingni ayt (Qanday mamlakatda? Prezident kim? Vatanimizning bayrog'ini, gerbini ko'rsat va boshq.)
9. Otang (onang) kim bo'lib ishlaydi?

10. Rasm chizishni yaxshi ko'rasanmi? Bu qalamning (lentaning, ro'molning) rangi qanaqa?
11. Hozir yilning qaysi fasli – qishmi, bahormi, yozmi, kuzmi? Nega sen shunday deb hisoblaysan?
12. Nega qor qishda bo'ladi, yozda emas?
13. Haydovchi (shifokor, o'qituvchi) nima ish qiladi?
14. Maktabda qo'ngiroq, parta nima uchun kerak?
15. O'zingning o'ng ko'zingni, chap qulog`ingni (o'ng yoki chap qo'l bilan) ko'rsat. Ko'z va qulqo nima uchun kerak?
16. Qanday hayvonlarni bilasan?
17. Sen qanday qushlarni bilasan?
18. Nima katta: sigirmi, echkimi? Kushmi yoki asalari? Nimaning panjasি katta: kuchuknikimi, xo'roznikimi?
19. Nima katta: 8mi, 5mi, 7mi, 3 ? 3dan 6 gacha, 9 dan 2 gacha sana.
- 20) Bilmasdan birovning narsasini sindirib qo'ysang, nima qilish kerak?
21. Uy telefonlaringning, onangning, otangning, buvingning ish joylaridagi telefonlarning raqamini eslab ko'r...
22. Agar ota-onang (kechqurun va dam olish kunlari) uyda yo'q bo'lsa – qayerda bo'lishi mumkin?
23. Sen (katta do'konda, bozorda, hayvonot bogida, seni majburan olib ketganda, notanish ko'chada ko'p kishilik avtobusda, metroda va boshq.) adashib qolsang, bunday holatlarda nima qilgan bo'larding?
- Kern-Irasek uslubi bo'yicha tashxis o'tkazish.** Bolalarni tekshiruvdan o'tkazish 4 topshiriqdan iborat bo'lib, undan ko'zlangan maqsad ulardagi maktab uchun zarur bo'lan faoliyatlari rivojidagi, jumladan, bosh miya chanog'ini analistik va sintetik vazifalari, motorikalaridagi yetishmovchilikni aniqlash. Kern-Irasek metodi bo'yicha bolaning maktabda ta'lim olishga tayyorligi darajasini aniqlash alohida yoki 10-15 boladan iborat guruh bilan bir vaqtning o'zida olib borilishi mumkin. To'rtinchi topshiriq esa har bir bola bilan alohida, maxsus ajratilgan xonalarda ajratiladi. Bolaga (yoki guruhdagi 10-15 bolaga) oddiy qog'ozdan toza bir varoq beriladi. Qog'ozning yuqorida o'ng burchagiga tadqiqot bilan qamrab olingan bolaning ismi, familiyasi, yoshi hamda tekshirish o'tkazilayotgan sana yozib quyiladi. Ish qog'izi tagiga qattiq qog'oz qo'yiladi. Qalam bolaning oldiga shunday qo'yilishi kerakki, unga o'ng va chap qo'l bilan ham olish o'ng'ay bo'lsin. Tashxis o'tkazish uch topshiriqdan iborat:
1. Odam rasmi. 2. Uch so'zidan iborat, chizilgan qisqa ibora (*U osh yedi*).
 3. Chizilgan nuqtalar guruhi. Varaqning yuz qismi birinchi topshiriqni bajarish uchun ajratiladi. **Birinchi topshiriqqa** quyidagi yo'riqnomaga beriladi: «Bu yerga

(har biriga qaergaligi ko'rsatiladi) biror-bir erkakning (tog'angning) rasmini bilganlar izingizcha chizinglar». Shundan so'ng tushuncha (yordam) berish, rasmning kamchiligi va xatosi yuzasidan ogohlantirish taqiqlanadi. Boladan tushadigan har bir savolga quyidagicha javob berish lozim. «O'zing bilganingday qilib chiz». Agar bola ishni boshlay olmay tursa, quyidagicha unga dalda berish kerak: «Ko'ryapsanmi, sen qanday yaxshi boshlading», «Chizishda davom et». «Xola»ni chizsam bo'ladimi? Degan savolga barchamiz tog'ani chizyapmiz deya tushuntirish kerak. Agar bola ayol figurasini chiza boshlagan bo'lsa, uni oxirigacha etkazishni kutib turib, keyin yonidan erkak kishining rasmini chizishni so'rash kerak. Bola rasm chizishni yakunlagach, ish qog'ozni teskari ag'dariladi. Uning orqa tarafi ko'ndalang chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi (buni oldindan qilish ham mumkin). 2-topshirqni bajarish uchun 10-15 ta kartochka (7-8sm ga 13-14 sm o'lchamda) kerak bo'ladi. Unga «U osh edi» iborasi qo'lyozmada yoziladi (harflar o'lchami-1 sm, bosh harf-1, sm). Ibora yozilgan kartochka bolaning oldiga, ish qog'ozdan sal yuqoriroqqa qo'yiladi. Ikkinci topshiriq quyidagicha izohlanadi: «Qaranglar, bu erda nimadir yozilgan. Sen hali yozishni bilmaysan. Shuning uchun buni chizishga harakat qil. Yaxshilab ko'rib olgin, bu qanday yozilagn va varaqning yuqori qismiga (qaergaligini ko'rsating) xuddi shunday qilib yozing». Agar bolalardan birortasi qator o'zunligi hisobini ololmay uchinchi so'zni sig'dira olmasa, unga uchinchi so'zni pastdan yoki tepadan yozish mumkinligini aytish lozim. Yuqoridagi o'lchamli kartochkalarni uchinchi topshiriqni bajarish uchun ham tayyorlab qo'yish kerak. Ulardan nuqtalar guruhi tasvirlangan bo'lib, ular oralig'i vertikal va gorizontal bo'yicha – 1 sm, nuqtalar diametri-2mm: Bola 2-topshiriqni bajarib bo'lgan birinchi kartochka undan olinib, o'rniga ikkinchi (nuqtalari bor) kartochka shunday qo'yiladiki, unda nuqtalar orqali tasvirlangan besh burchakli o'tkir burchagi pastga qaragan bo'lishi kerak. Uchinchi topshiriqqa quyidagicha yo'riqnomaga beriladi: «Bu yerda nuqtalar chizilgan. Xuddi shunday qilib varaqning pastki qismiga (qayergaligini ko'rsating) o'zing chizishga harakat qil».

Natijani baholang. Har bir topshiriq ballar bilan baholanadi: 1 – eng yaxshi baho, 5 – eng yomon baho. Besh ballik tizimda baholashning namunaviy mezonlari rasmlarda ko'rsatilgan. **1-topshiriq (odam rasmi)** 1 ball-chizilgan figurada bosh, gavda va qo'l-oyoqlar bo'lishi lozim. Boshni gavdaga bog'lovchi bo'yin (u gavdadan katta bo'lmasligi kerak). Boshda soch bo'lishi (yoki do'ppi, telpak), qulqoq bo'lishi, yuzda ko'z, burun, og'iz bo'lishi kerak. Qo'l 5 ta barmoq bilan. Erkak kishi kiyimi belgilari. 2 ball – 1balga qo'yilgan talablarning barchasi. Uch qismning tushib qolishi mumkin: bo'yin, soch, qo'lning bitta barmog'i, biroq yuzdagisi hech

bir a'zoning tushib qolishi mumkin emas. 3 ball – rasmdagi figurada bosh, gavda, qo'l-oyoqlar bo'lishi kerak. Qo'l va oyoqlar ikki chiziq bilan chizilishi lozim. Bo'yin, qulqoq, soch, qo'l panjalari bo'lmasligi mumkin. 4 ball – oddiy bosh rasmi qo'l-oyoqlar bilan. Qo'l va oyoqlar bir chiziq bilan tasvirlangan. 5 ball – gavda va qo'l-oyoqlarning aniq tasviri yo'q.

2-topshiriq (yozilgan matnni chizish). 1 ball – bola tomonidan chizilgan iborani chizish mumkin. Harflar namunadagiga nisbatan 2 baravar katta. Harflar uchun so'zni hosil etgan.Qatorlar to'g'ri chiziqdan 300dan ko'p og'magan. 2 ball – gapni o'qish mumkin. Harflar kattaligi namunaga yaqin, ular tikligi shart emas. 3 ball – harflar kamida ikki guruhga bo'lingan bo'lishi lozim. Hech bo'limganda 4 ta harfni o'qish mumkin. 4 ball – namunaga hech bo'limganda 2 ta harf o'xhashi kerak. Barcha harflar guruhi hali yozuv ko'rinishiga ega emas. 5 ball – chiziqlar tasvirlanmagan, tushunarsiz.

3-topshiriq (nuqtalar guruhini chizish). 1 ball-berilgan namunaga qarab aniq bajarilgan. Nuqtalar chizilgan, aylanar emas. Gorizontal va vertikal bo'yiga simetriya saqlangan.Figuralar qanchalik kichik bo'lsa ham mayli, biroq katta bo'lsa yarim barobardan oshmagan bo'lishi kerak. 2 ball –simmetriyada unchalik ahamiyatli bo'limgan kamchilik bo'lishi mumkin: bitta nuqta tikkasiga yoki eniga qolganlaridan chiqib qolgan yoki nuqta o'rning aylana chizilgan bo'lishi ham mumkin. 3 ball-nuqtalar guruhi namunaga qo'pol ravishda o'xhash. Barcha figuralarda simmetriya buzilgan bo'lishi mumkin. Beshburchakning o'xhash, uchi pastga yoki tepaga qaragan shakli saqlangan bo'lsa. Nuqtalar soni ko'p yoki kam bo'lishi mumkin (7 tadan kam emas, 20 tadan ko'p emas). 4 ball – nuqtalar to'p bo'lib joylashgan bo'lib, ular har qanday geometrik figurani eslatishi mumkin. Nuqtalar kattaligi va soni ahamiyatli emas. 5 ball –noaniq chiziqlar. Bajarilgan alohida topshiriqlar ballari yig'indisi tekshirishning umumiy natijasini belgilaydi.

4-topshiriq (yig'ma fikrni tekshirish).

Maqsad: bolaning fikrlash amaliyoti, mantig'i, lug'at boyligi rivojlanganligi darajasi va boshqalarni aniqlash.

1. Qaysi hayvon katta: otmi yoki it. a) ot- 0 ball b) it-(-5) ball

2. Ertalab biz nonushta qilamiz, kun yarmida (yoki tunda...) a) tushlik qilamiz... biz osh, go'sht yoki nimadir yeymiz - 0 b) peshinlik, kechki ovqat eymiz, uklaymiz va boshqalar – (-3).

3. Kunduzi yorug‘ , kechasi...

a) qorong'u – 0 b) noto'g'ri javob – (-4).

4. Osmon ko'm-ko'k , o't... a) yashil 0.b) noto'g'ri javob – (-1).

5. Gilos, nok, olxo‘ri, olma- bular nima? a) mevalar – 1.b) noto‘g‘ri javob – (-1).

6. Nega poezd o‘tmasdan turib, uning yo‘li yoniga shlagbaum to‘siladi? a) poezdnинг tagiga hech kim tushib ketmasligi, falokat yuz bermasligi uchun – 0. b) noto‘g‘ri javob – (-1)

7.Toshkent, Samarqand, Chirchiq (tanish shaharlar aytildi) nima ular? a) shaharlar-1. b) bekatlar – 0. v) noto‘g‘ri javob – (-1).

8. Soat necha (soatdan to‘g‘ri kelgan soatinining 18, 15, 19, 55, 11, 5 minutlarini ko‘rsating)? Bola soatini o‘zi belgilasin. a) agar barcha javoblar to‘g‘ri bo‘lsa – 4. b) agar bilmasa – 0. v) agar bir martaginasi to‘g‘ri bo‘lsa – 3.

9. Kichik sigir-bu buzoqcha, kichik it- bu..., kichik qo‘y-bu.... a) kuchukvachcha, qo‘zichoq –4. b) ikkalasidan bittasi –0. v) noto‘g‘ri javob – (-1).

10. It ko‘proq mushukka o‘xshaydimi yoki tovuqqa? a) mushukka (nimasi bilan ular bir xil), chunki unda ham to‘rt oyoq, jun, tirnoq bor (hech bo‘lmasa bitta o‘xshash joyini aytsa – 0). b) o‘xshash belgilarisiz aytsa – (-). v) agar tovuqqa desa-(-3).

11. Nega barcha avtomobilarda tormoz bor? a) tog‘dan tushayotganda, burilishda uni sekinlatish uchun (ikkita sabab) – 1. b) bitta sabab-0. v) noto‘g‘ri javob-(-1).

12. Bolg‘a bilan bolta nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi? a) agar ikkita umumiy belgisi (taxta, temir, mix qoqish mumkin, asboblar, orqa tomoni yassi) aytilsa – 3. b) agar bitta belgisi aytilsa – 2. v) noto‘g‘ri javob – 0.

13. Olmaxon bilan mushuk nimasi bilan bir-biriga o‘xshaydi? a) agar ikkalasining ham ikki umumiy belgisi (oyog‘i, juni, daraxtga chiqib yurishi kabi) aytilsa-3. b) agar bitta o‘xshash jihatni aytilsa – 2. v) noto‘g‘ri javob-0.

14. Mix nimasi bilan vintdan farq qiladi? Agar stolda, sening yoningda ikkalasi ham yotgan bo‘lsa sen ularni qanday bilasan? a) rezbasidan (bolaning tushuntirishi) – 3. b) vint buraladi, mix qoqladi, vint gayka, mixda esa qalpoqcha bor – 2. v) noto‘g‘ri javob – 0.

15. Futbol, suvg‘a sakrash, tennis, suzish, gimnastika – bu nimalar? a) sport jismoniy madaniyat – 3. b) o‘yinlar, mashqlar, musobaqalar – 2. v) noto‘g‘ri javob – 0.

16. Sen qanday transport vositalarini bilasan? Agar «u nima» deb so‘rashsa «Bu minib harakatlantiriladigan narsalar» deb javob qaytarish kerak. a) agar erda yuradigan 3 ta transportni va samolyot, kemani aytса – 4.

b) agar faqat erda yuradigan uchta transport vositasini aytsa yoki tushuntirishdan so'ng barchasini sanab bersa – 2. v) noto'g'ri javob – 0.

17. Keksa kishi nimasi bilan yosh kishidan ajralib turadi? Ular o'ttasida qanday farq bor? a) uchta belgisi (ajinlar, yomon ko'radi yoki eshitadi, oq sochi va soqoli bilan) – 4. b) bir-ikki belgi uchun – 2. v) noto'g'ri javob – 0.

18. Odamlar nima uchun sport bilan shug'ullanadilar? a) ikkita sababga – 4. b) bittaga – 2. v) noto'g'ri javob – 0.

19. Kimdir ishdan bosh tortsa nega bu axloqsizlik, noto'g'ri, yomon deyiladi? a) qolganlar u uchun ishlashi kerak (mazmuni: kimdir jabr chekadi) yoki dangasalik qilyapti hech narsa sotib ololmaydi deyilsa – 2. b) noto'g'ri javob- (-2).

20. Nima uchun xatning ustiga marka yopishtiriladi? a) xatni pochta orqali jo'natish uchun – 5. b) agar jarima to'lanish kerak bo'lsa – 2. v) noto'g'ri javob – (-2). Natijalarни ishlash quyidagi sxemalar bo'yicha olib boriladi: ballarning summasi alohida savollar bilan aniqlanadi. Yig'ma fikr rivojlanganligining birinchi darajasini +24 va undan baland. Ikkinchi daraja +14 dan +23 gacha- o'rta yuqori. Uchinchi daraja 0 dan +13 gacha – o'rta (me'yor). To'rtinchi daraja (-1) dan (-10) gacha – past. Beshinchi daraja (-1) va undan past –juda yomon.

«Grafik diktant». O'quv topshirig'ini qabul qilish, o'quv amaliyotini bajarish, ya'ni ixtiyoriy (erkin) e'tibor rivojlanganligi darajasini aniqlash uchun L.A.Venger metodikasi bo'yicha tashxis o'tkazish.

Yo'riqnomा:

– Katakli daftar varog'idan olish va bolaga chiroqli naqshlar chizishni o'rgatishni taklif etish. – Men senga chiziqni qanday tortishni aytaman, sen men aytgandek qilib chiz. – Sen o'ng qo'ling qayerdaligini eslaysanmi?. To'g'ri, bu o'sha qalam ushlab turgan qo'ling. Qani uni yonga cho'z-chi. Qayerni u ko'rsatib turibdi (eshikni va boshq). – Demak, men qachon chiziqni o'ng tomonga tortinglar desam sen eshik tomonga qaratib chizasan. – Chap qo'ling qaerni ko'rsatyapti? (derazani yoki boshq). -To'g'ri. Men qachon chap tomonga, desam sen chiziqni deraza tomongan tortasan. – Men faqat qaysi tomonga chiziqni chizishni aytmay, balki uning o'zunligiga qancha ya'ni, bir katak yoki ikki katak bo'lishini ham aytaman. – Faqat men aytgan narsani chizinglar. Chiziq tortayotganingda to'xtab, kutib tur, qachon men yangi chiziqni qanday chizishni aytganimdan so'ng oldingisi to'xtagan joydan boshlash kerak. Bolaga naqshni qaerdan boshlab chizishni ko'rsatish (varaqnинг ustki chap burchagidan, chekkasidan biroz joy tashlab) va aytib turish kerak: bitta katakcha yuqoriga. Bitta katakcha o'ngga. Bitta katakcha pastga. Bitta katakcha o'ngga. Bitta katakcha yuqoriga. Bitta katakcha o'ngga. Bitta katakcha pastga. Bitta katakcha o'ngga. Bitta katakcha yuqoriga. Endi o'zing

xuddi chizganingga o‘xshatib davom ettir. «Diktant» to‘g‘ri bajarilgan holda quyidagi naqsh hosil bo‘lishi kerak: Agar bola xatoga yo‘l qo‘ysa, tuzating: Bu naqsh mashq uchun edi. Bola uni chiza turib yo‘riqnomani tushunishi kerak. Mustaqil chizishni davom ettirayotganida uni oxirigacha etkazish zarur. Naqsh oxiriga etgach, bolaga navbatdagi naqshni qaerdan boshlash kerakligini ko‘rsating va aytib turing: -Ikki katak yuqoriga. Bir katak o‘ngga. Bir katak yuqoriga. Ikki katak chapga. Ikki katak pastga. Bir katak o‘ngga. Ikki katak pastga. Ikki katak o‘ngga. Ikkita yuqoriga. Bitta o‘ngga. Bir katak yuqoriga. Ikkita o‘ngga. Bitta pastga. Bitta katak o‘ngga. Ikkita pastga. Naqshni chizishni o‘zing davom ettir. Endi chizish jarayonida hech qanday qo‘srimcha ko‘rsatmalar berilmaydi va xatolar tuzatilmaydi. Naqsh qatorini oxirigacha to‘liq chizib bo‘lingach, quyidagilarni aytib turishni boshlang: – Ikki katak tepaga, ikki katak o‘ngga, bir katak pastga, bir katak chapga («chapga» so‘zini ovozda alohida ta‘kidlash kerak). Bir katak pastga. Ikki katak chapga. Ikki katak tepaga. Ikki katak o‘ngga. Bir katak pastga. Bir katak chapga. Bir katak pastga. Chizishni o‘zing davom ettir: Va, nihoyat oxirgi naqsh: – Ikki katak tepaga. Bir katak chapga. Ikki katak tepaga. Bir katak o‘ngga. Bir katak pastga. Ikki katak o‘ngga. Bir katak pastga. Bir katak chapga. Ikki katak pastga. Uch katak o‘ngga. Ikki katak tepaga. Bir katak chapga. Ikki katak tepaga. Bir katak o‘ngga. Bir katak pastga. Ikki katak o‘ngga. Bir katak pastga. Chizishni o‘zing davom ettir: **Har bir naqshning (mashq uchun berilganlaridan tashqari) bajarilish darjasи.** Naqshning aytib turilgandagisi hamda bola tomonidan mustaqil davom ettirilib bajarilgani alohida-alohida baholanadi. Eng yuqori daraja, bu –naqshning xatosiz chizilishi. Uni 4 ball bilan baholash kerak. Agar 2-3 ta xatosi bo‘lsa 3 ball qo‘yiladi. Ko‘p xatolari bo‘lsa 2 ball. Agar to‘g‘ri chizilgan qismlardan, xato chizilgan qismlar ko‘p bo‘lsa, bu holda 1 ball beriladi. Va nihoyat agar birorta chizilgan qism bo‘lmasa 0 ball qo‘yiladi. Bola naqshni aytib turilganda bajarib 0 dan (agar butunlay noto‘gri bo‘lsa), 12 ballgacha (agar uch asosiy naqsh xatosiz bajarilgan bo‘lsa) umumiy ball yig‘ishi mumkin. Tashxisning aynan ushbu usulini tanlashimizning boisi – unda bolaning aqliy rivojlanishining barcha shakllari qamrab olinadi: Bilish jarayoni (solishtirish ko‘nikmasi, umumlashtirish, tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish va boshq..), obrazli fikrlash, bolaning mantiqiy imkoniyatlari uning qanchalik aqliy rivojlanganligiga holis baho beradi. «Grafik diktant» bolaning o‘quv topshiriqni qanday qabul qilishini, o‘quv harakatlarini qanday bajara olishini aniqlashtiradi.

Ta’lim olish faoliyatining ko‘nikma va ilk zaminini aniqlash tashxisi: Bolaning o‘quv faoliyatiga ilk zamin va ko‘nikmalarni egallaganligi va darajasini aniqlash uchun J.Saidnazarova tomonidan tayyorlangan savollar jamlanmasi tavsiya etiladi.

I. Bolaning maktab haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun savolnoma (motivatsion tayyorgarlik). *Maqsad:* Ushbu savolnoma shaxsining belgisi sifatida unda mas'uliyat hissi qanchalik shakllanganligi darajasini, bolaning maktab vazifasini qanchalik tushunib etganligini va uning mактабга munosabatini aniqlaydi.

1. Sen mактаб-mактаб o'ynashni yaxshi ko'rasanmi? (bolaning mактабга munosabati va unda o'qishga xohishi).

2. Bu o'yinda sen kim bo'lishni xohlaysan: o'qituvchimi, o'quvchi? (savol bilim manbai sifatida o'qituvchi bo'lish istagi sababini va bilim olishga intilish sifatida o'quvchi bo'lish istagi sababini aniqlaydi).

3. O'qish -bu qiyinmi yoki oson? Nima uchun? (savol bolalardagi ta'llim olish jarayonibu ko'p mehnat qilishi lozim bo'lган jarayon degan tushunchaga oydinlik kiritadi).

4. Katta bo'lгaniningda, sen o'qituvchi bo'lishni xohlaysanmi? (o'qituvchi bo'lish yoki bo'lmaslik xohishining asosli tushunib etilishi, o'qituvchi kasbiga uning munosabati).

5. Sen mактабга bora boshlansang, popkangga nimalarni joylab borasan? (sanab o'tgan narsalardan uning bilimi va mактабда nimalar bilan shug'ullanishi haqidagi tasavvurlarini aniqlash mumkin).

6. Maktabingga sen sevimli o'yinchog'ingni olib borasanmi? Uni qachon o'ynaysan? (savol bolalarning mактаб tartib tizimi mактабда tanaffuslar bo'lishi haqidagi tasavvurlarini aniqlaydi).

7. Nega ayrim bolalar mактабда yomon o'qishadi? (bolalarda mas'uliyat hissining shakllanganishi, irodaviy tayyorgarligi darajasini oydinlashtiradi).

8. Mактабда o'qish bolalar uchun nega kerak? (savol bolaning bilim olishga bo'lган intilishini aniqlaydi).

9. Agar senga o'qituvching «2» qo'ysa, sen xafa bo'lasanmi? Nega? (salbiy bahoga bola munosabatining asosi).

10. Mактабда sen qanday baholar olishga harakat qilasan? Buning uchun nima qilish kerak? (bolaning ijobjiy va salbiy baholar haqida bilishi).

II. Matematika bo'yicha ilk tasavvurlarini aniqlash uchun savolnoma. *Maqsad:* Bola tafakkuri rivojlanganligi darajasini, mashg'ulotlarda olgan bilimlarini amaliyatda qo'llay olishni aniqlaydi.

1. Qara, atrofimizdagi kvadrat shaklidagi va to'g'ri burchak shaklidagi narsalarni ayt?

2. Kvadrat to'g'ri to'rtburchakdan nimasi bilan farq qiladi?

3. Kvadratni teng ikkiga bo'l, undan ikkita to'g'ri burchak hosil bo'lsin.

4. To'g'ri burchakni bo'l, undan ikkita kvadrat hosil bo'lsin.

5. Kvadrat aylanadan nimasi bilan farq qiladi?

6. Chap qulog'ingni o'ng qo'ling bilan ko'rsat.
7. Mening chap qo'limni ko'rsat.
8. Shkaf qayerda (chapda, o'ngda) turibdi?
9. 8 sonidan keyin qanday son keladi?
10. 5 soni kattami 6 soni? Necha marta katta?
11. Ikki soni kichiikmi 3? Necha marta?
12. 10 va 2 sonlari ishtirokida ayirish amalini bajarish uchun topshiriq shartini tuz.
13. Temur stakandagi sutning yarmini ichdi, Barchinoy to'liq. Kim ko'p ichdi?
14. Qanday qilib 5 ni har xil qilib hosil qilish mumkin?
15. Baland va past daraxtni chiz.
16. Xonamiz enini qadamining bilan o'lcha.

III. Bola nutqi rivojlanganligini aniqlash (savodxonlikka o'rgatish).

Maqсад: Bolalarning tovushlar, so'zlar va so'z birkimlari haqidagi bilim va tasavvurlarini, ularning so'zlarni bo'g'lnlarga ajaratish hamda berilgan so'zlardan gap tuzishni bilishini aniqlash.

1. «Chiroli stol» so'zi ishtirokida gap tuzish.
2. «Ruchka» chiqib so'zi bilan so'z birkmasi o'yla.
3. Koptok haqida imkon qadar ko'p so'z ayt.
4. «Bolalar mакtabga kelishdi. Ular sinfda o'tirishibdi. Dars boshlandi. Bir o'quvchini doskaga chaqirishdi». Bu hikoyada nechta gap bor.(Har bir gapni uchburchak bilan belgilang. Qancha uchburchak bo'lsa, demak shuncha gap bo'ladi.)
5. «Mashina», «oshxona» so'zlarini bo'g'inlab ayt.
6. «Bahor keldi» so'z birkmasidan gap tuz.
7. So'z nimadan tashkil topgan?
8. Gap nimadan tashkil topgan?
9. Xonadagi «O» tovushi bor narsalarni ayt (boshqa tovushlarni ham aytish mumkin).

Savollarga javoblarni baholash mezonlari (J.Saidnazarova).

1. Agar bola savollarga to'liq javob bersa-bu 100 % hisoblanib, + belgi bilan belgilab qo'yiladi.
2. Agar bola savollarining yarmiga javob bersa- bu 50% hisoblanib X belgisi bilan qayd etiladi.
3. Agar bola savollarning yarmidan ozrog'iga javob bersa-bu 25 % hisoblanib / belgisi bilan qayd etiladi.
4. Agar bola har bir testning 2-3 savoliga javob bergen bo'lsa bu ko'rsatkich me'yordan past hisoblanib, - belgisi bilan qayd etiladi. Bolada o'quv faoliyatiga

tayyorgarlikning ilk zamini shakllanganligini (umumlashtirish, uyg‘unlashtirish, solishtirish, ajratish, xulosa chiqarish va boshqa bilish) aniqlash uchun yuqorida ko‘rsatilgan tashxislashning asosiy shakllaridagi topshiriqlar ko‘zda tutilgan edi. O‘tkazilgan tashxislash suhbati, Kern Irasek metodi bo‘yicha to‘rt topshiriq, shuningdek A.A.Venger metodikasi bo‘yicha «Grafik diktant» va J.Saidnazarovaning o‘quv faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha savollar jamlamasi natijalarining mакtab tayyorgarligining solishtirilishi va tahlili bolaning shaxsiy-ruhiy, aqliy va maxsus tayyorgarlik darajalarini holis belgilash imkonini beradi, rivojlanishdagi qusurlarni aniqlaydi, bola shaxsi rivojining turli tomonlarini (qobiliyat, iqtidori yoki qoloqligi) tekshirish (zarur bo‘lganda) yo‘llarini ko‘rsatib beradi.

Tashxislashning qo‘srimcha shakllari.

1. Ko‘rib, yodda saqlash. Bolagabir minut davomida 7-10 ta bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган narsalarning, masalan, koptok, daraxt, avtobus, tuya, olma, qulqop, kitob, piyola, zontik, kapalak rasmi ko‘rsatiladi. So‘ngra ular teskari ag‘darilib qo‘yiladi, boladan ko‘rgan narsalarni aytib berish so‘raladi. Agar bola bir daqiqa davomida xohlagan tartibida ko‘rgan narsalaridan 5, 7 yoki 10 tasini aytса, demak bu eng yaxshi natija.

2. Eshitib yodda saqlash. Bolaga 2-3 soniya oralatib 7-10 ta, bir-biriga bog‘liq bo‘lмаган narsalar nomini aytинг va undan eslab qolganlarini takrorlashni so‘rang. Uslubiyati xuddi ko‘rib, yodda saqlashning tekshiruvdagidek bo‘ladi.

3. Mazmunini yodda saqlash. Bolaga ma‘lum bir mazmundagi hikoya (1-2 marta) aytib yoki o‘qib beriladi. So‘ngra boladan unda nima haqida gapirilayotganligini aytib berish so‘raladi. Agar bola hikoyani so‘zma-so‘z aytса, demak, unda eshitib yodda saqlash rivojlangan, agar u hikoyani o‘z so‘zlari bilan aytib, shu o‘rinda hikoyadagi asosiy narsani ajratsa, uning mazmunini etkaza bilsa, demak unda mazmunini yodda saqlash rivojlangan.

4. Bolaning tasavvuri va ijodiy fikrlashi rivojlanganligini aniqlashda Rorshax metodikasi bo‘yicha tashxislash yordam beradi. Bu metodikani shvetsariyalik olim, doktor Rorshax ishlаб chiqqanligi uchun uning nomi bilan atalgan. Bolaga qog‘ozga simmetrik tarzda 10 ta siyox charejamasi (tomchisi) havola etiladi. Tekshiruvdan o‘tayotgan bola har bir dog‘ga qarab, xuddi mo‘saffo yoz osmonida so‘zib yurgan bulutlarning goho kemaga, goho uchib borayotgan chavandozga o‘xshab ketishidek, ularning nimani eslatayotganligini, ularni nimani ko‘rayotganligini aytib berish kerak. Bola qarayotganda vaqtini cheklash tavsiya etilmaydi. Javoblarni izohlash, aniqlash juda murakkab va mutaxassis-psixologlar tomonidan to‘liq amalga oshirilgan bo‘lishi mumkin. Biroq nafaqat mutaxassislar, balki ota-onalar ham bolasida ko‘p narsani

ko‘rishi va bilishi mumkin. Mana bir necha misollar: agar 6-7 yoshli bola o‘zigi taklif etilgan siyoh charejamasidan biron marta ham odamga o‘xshagan shaklini uchratmagan bo‘lsa, Rorshax testi asosida bu bolada rivojlanish to‘xtab, uning yon-atrofdagi kishilar bilan munosabati juda-juda og‘ir yuzaga kelgan, deb xulosa chiqarish mumkin emasmi? Agar shu yoshdagagi bola aynan o‘sha dog‘larda turli xil tuzilmalarni ko‘rsa demak, u o‘zida hissiyot shaklining, keng qulami o‘ylashning rivojlanganligini namoyon etib, ranglarni qiziqarli qilib izohlaydi, talqin etadi. Uning javoblarida odatiylik bilan o‘ziga xoslik o‘rtasida munosabat me’yorda. Bu hol bola juda aqli, ruhiy vazmin, o‘z salohiyatidan yengil va erkin foydalana biladi, degan xulosa chiqarish nahotki haqiqiy bo‘lmasa. agar bola dog‘larda hech narsa ko‘ra olmasa, demak, gap uning fikirlashi, asosan tasavvuri past darajadaligiga borib taqaladi.

5. Bo‘lajak birinchi sinf o‘quvchilarining og‘zaki-mantiqiy fikrlashini tekshirib ko‘rishni quyidagi topshiriqlar yordamida o‘tkazish mumkin: Buning uchun: **Qanday so‘z to‘g‘ri keladi?** - qish oyi...(sentyabr, oktyabr, fevral, noyabr, mart); - bir yilda ... (24 oy, 3, 12, 4, 7); -ota o‘z o‘g‘lidan...(katta, kichik, teng); -yo‘lovchilar transporti...(kombayn, yuk mashinasi, avtobus, teplovoz). **Ortiqcha so‘zni aytинг:**

-atirgul, lola, shahar, boychechak, rayhon; -daryo, ko‘l, ko‘prik, hovuz;

-qo‘g‘irchoq, sakragich, qum, koptok, lego; -stol, gilam, kreslo, krovat, stul;

-terak, qayin, arg‘uvon daraxti, atirgul tog‘ teragi; -tovuq, xo‘roz, burgut, kurka;

-aylana, uchburchak, to‘rburchak, ko‘rsatkich, kvadrat; -Sanjar, Iskandar, Ho‘san, Mavluda, Burhonov; -son, bo‘linma, qo‘shilma, ayirish, ko‘paytirish;

-quvnoq, tez, g‘amgin, shirin, ehtiyyotkor. To‘g‘ri ayt (og‘zaki-mantiqiy fikrlash darjasini bir-biriga o‘xshash narsalarni chiqara bilish). Masalan, «chinnigul» so‘ziga xuddi «bodiring»ga «sabzavot» qanday to‘g‘ri kelganidek mos so‘z topishini tanlab olish kerak.

1. Bodring (sabzavot) - Chinnigul (begona o‘t, shudring).

2. Poliz (sabzi) – Bog‘ (devor, qo‘ziqorin, olma, quduq, o‘chirgich).

3. Soat (vaqt) – Gradusnik (oyna, katta, krovat, harorat, shifokor).

4. Mashina (motor) – Qayiq (dengiz, mayoq, elkanli kema, to‘lqin, quruqlik)

5. Stol (kotiba) – Pol (daryo, gilam, chang, taxtalar, mix).

Ularni umumlashtirib qanday so‘z bilan aytish mumkin? -ola bug‘i, tovon baliq...; -bodring, pomidor...; -shkaf, divan...; -iyun, iyo‘l...; -fil, chumoli...;

6. Ko‘rsat, rasmida qayerda aylana kvadrat ostida, kvadrat aylana ustida, aylana kvadrat ustida, kvadrat aylana ostida, aylana kvadrat ustida va aylana

kvadratning chap tomonida, aylana va kvadrat ichida va boshqa.

7. Mantiqiy fikrlash: Bola oldiga uch qator, har birida to'rttadan kartochkalar qo'yiladi-nuqtalar, qorchalar va tayoqchalar. Birinchi qatorda nuqtachalar, ikkinchisida qorchalar, uchinchisida tayoqchalar chizilgan. Birinchi va ikkinchi qatordagi kartochkalarni ko'zdan kechira turib kattalar bolalar bilan ularning 1 dan 4 gacha oshib borish tartibida qo'yilganligiga ishonch hosil qiladi.

Topshiriq: Tayoqchalar chizilgan uchinchi qatordagi kartochkalarni ham 1- va 2- qatordagi kabi joylashtirib chiqing.

8. Har bir kvadratga kerakli sonni yoz.

$3 + = 8$	$4 + = 8$	$7 -$	= 4
9. Ikki qo'shiluvchi sondan aylana va uchburchak yordamida 5 soni tarkibini birinchi qatorda ko'rsatilganidek tasvirlang.			

10. «Katta» ($>$) va «Kichik» ($<$) belgilarini to'g'ri qo'y.

11. Sabzilarni sana. Quyonchalarning qaysi biri to'g'ri javobni tashlab turibdi. X bilan belgilga.

12. 3-va 5-kvadrat oralig'idagi kvadrat ichida nechta aylana bor? X bilan belgilang.

13. Beshinchi o'rindagi narsani aylana ichiga ol.

14. Bir xil miqdorda olmalar bo'lgan tovoqlarni bir-biri bilan bog'la.

15. Topshiriqni yeching. Lobarda uchta shar bor edi. Bittasi yorildi. Qancha shar qoldi? Chiz.

16. Quyonchalarning qo'li nechta? Topshiriqni yech.

17. Uchta sichqonning nechta qulog'i bor? Topshiriqning echimini yozamiz.

18. Yetishmayotgan shakl (chiz).

19. Sonni kvadrat bilan (qaysi birida shuncha narsaning rasmi bo'lsa) birlashtir.

20. Uchburchakka quyida chizilgan narsalardan bitta kam bo'lgan miqdorda aylanalar chiz.

21. Gultuvaklardan oltita guli borini aylanaga ol.

22. Bolalardagi tasvirlash faoliyati bo'yicha bilim, ko'nikma va malakasini tekshirish uchun topshiriq.

Bolalarning sovuq va iliq ranglarini, ko'z, bahor, yoz va qishning o'ziga xos ranglarini biladigan, aniq ajratadiganlarini aniqlash. -To'q qizil, jigarang, yashil va ko'm- ko'k rangli suratlarni toping.

-Qalam, bo‘yoq (akvarel, guash), flomaster, barmoq, kaftga chizilgan suratlarni ko‘rsating.

-Rasmlarni (rasm aralashib yotibdi) quyidagi tartibda joylashtir: portret, peyzaj, natyurmort.

-Fotosuratlardan kichik shakldagi haykalchalarini, (loydan yasalgan o‘yinchoqlar) monumental haykal (yodgorlik) qayerdaligini ko‘rsat.

- Shahrimizdagи yoki qishlog‘imizdagи maydon va yodgorliklarni aytib ber.

- Qaysi rassom va bezakchi rassomlarni bilasan (Tansiqboev, Kamoliddin Behzod, Abdullaev, M.Nabiev, Repin, Ayvazov.)

- Odamni, hayvonni harakatda va yer usti hamda er osti, havo, suv, kosmik transport rasmini chiz.

- Butun bo‘lakdan kuchukcha yasa.

- Qog‘ozdan do‘ppi, kema, stakan kabilarni yasa.

- Pape-mashe (qog‘ozdan biron-bir buyum yasash piyola, lagan va h.) usuli bilan qanday qilib piyola yasashni aytib ber.

- To‘g‘ri burchak va kavdratdan qaychi yordamida boshqa geometrik shakllar qiling (kvadrat-aylana, to‘rtburchak-oval.).

- Fotosurat yoki chizmalardan metro-ertaqlar saroyini qur.

- Gugurt qutisidan kley yordamida mashina, uy yasa.

23. Odam rasmini chiz. Keksa kishini, Bolani (o‘g‘il yoki qiz bola).

24. Odam rasmini chiz. U chopyapti U o‘tiribdi.

25. Majnuntol, terak va archa rasmini chiz.

26. Ranglarni bo‘yab chiq, qanday rang paydo bo‘ldi?

Sariq + ko‘k =

Qizil + ko‘k =

Sariq + qizil =

Qizil + oq =

27. Chiz. Natyurmort Portret Peyzaj.

28. Sana, nechta kvadrat (4). Sana nechta to‘rtburchak (3)

29. Sana qancha uchburchak (5). Aylana qancha (5)

30. Tasvirlash faoliyatida o‘zini namoyon etish va unga munosabati.

Bolalar rasmiga qaraymiz... Ayrimlar o‘ylaydiki, bular hech narsani anglatmaydi, shunchaki chizilgan birinchi mashg‘ulot faoliyati. Biroq bu faoliyat boshqalardan ko‘ra ko‘proq bolani namoyon qiladi, uning atrof-olamga munosabatining ko‘plab jihatlarinin ochib beradi. Misollarda qarab ko‘ramiz: Olti yoshli bolaga «Mening oilam» mavzusida rasm chizishni taklif qiling:

-jon-jon deb ishga kirishdi-u o‘zi yashaydigan o‘yini sevadi;

-oilasini chizishdan bosh tortdi-bu noxush xotiralar bilan bog‘liq;

- kimni birinchi bo'lib chizsa-bola uchun aziz inson;
- o'zini yirik qilib chizsa uyda unga ko'proq ahamiyat berishadi, kattalar diqqat markazida;
 - aksi bo'lsa-oiladagi ahamiyatsizliginin ko'rsatadi;
 - katta ona va kichik ota-oilada ruhiy muvofiqlik bузилган. ona ahamiyatli;
 - barcha figuralar juda kichik bo'lsa- bola ziqlik, ezilganlik, tashvishlilik holatlari mavjud; -jinsiy alohidalik hisobga olinmay chizilsa-jinsiy tarbiyaning to'xtab qolganligi;
 - oyog'i katta bo'lsa- oilada joyi borligi belgisi, oyog'i kichik bo'lsa-oilada tutumming noqat'iyligidan darak;
 - boshiga chiziqchalar tortilgan, go'yoki bizga orqasini o'girib turgandek bo'lsa-o'ziga ketdi; -yopiq yuz-bola oilada bo'lishni xohlamaydi;
 - og'zi labi katta va yorqin bo'lsa-serjahllilik belgisi;
 - qiz bola o'zini kipriklarigacha chizsa-uni birovga yoqish yoqadi, katta ehtiroy kuchi bor;
 - to'xtab-to'xtab chizilganda yoki chizgan tasvirini obrazini ustidan chizib tashlasa-bu kishi oldida qo'rquv hissini tutayotganligi;
 - barcha oila a'zolari alohida bo'laqlarda chizilsa-oilada do'stlik yo'q, ko'pchilik begonalashib ketgan;
 - televizor va gilamlar ham chizilgan bo'lsa-ularga bola xayriyoh.
 - yoritgich uskunalarini, kuyoshni chizsa-oilada issiqlik yo'qligini boshidan kechiryapti;
 - oila o'mniga oddiy uyni chizsa-uni zo'rlash manbai sifatida qarab, borgisi kelmayotganligidan darak;
 - rasmda qo'g'irchoq yoki kuchukchaning rasmi bo'lsa-oilada iliqlik etishmaydi. bola hayvonlar va o'yinchoqlar bilan munosabat etarli emas;
 - ko'pgina mayda narsalar-yaqinlar bilan munosabat etarli emas;
 - ko'p qora chiziqlar-tashvishlanishni boshdan kechirmoqda;
 - rangli qalamlarni ishlatishdan bosh tortsa-tashvishli va o'zini past baholaydi;
 - bola o'zini o'rtaga chizsa – demak o'zini eng ahamiyatli, agar qog'oz pastiga chizsa – eng qaram deb hisoblaydi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tibbiyot xodimlari ishining ahamiyati. Har bir ota-onalar farzandining hayotda o'z o'mini topishini xohlaydi. Lekin hamma ota-onalar ham bolani maktabga qanday tayyorlash, unga nimalarни o'rgatish kerakligini bilavermaydi. Bolani maktabga tayyorlashning quyidagi ikki usuli mavjud:

bolani oilada maktabga tayyorlash;

Bolani mактабгача та'lim tashkilotida mактабга tayyorlash. Bundan tashqari bolaning mактабга moslashishida ba'zi qiyinchiliklarga duch kelinadi, bu qiyinchiliklar tibbiy, shaxsiy, ijtimoiy-psixologik, aqliy omillarga bog'lik. Ular o'quv faoliyati jarayonida bartaraf etib boriladi. 5-7 yoshli bola organizimining faol yetishish jarayoni davom etadi. Bolaning vazni oyiga o'rtacha 200 gr, bo'y 0,5 sm ga o'sa boradi. Tana (gavda) tuzilishining imkoniyatlari o'zgaradi. 6 yoshga kelib bolaning harakat jihatlari yetaricha yaxshi shakllangan bo'ladi: u turli tezliklarda yura oladi, qadam bosishi, tekis, yengil va tez yuguradi. U yugurib kelib sakrash, osilib (chirmashib) chiqish kabi murakkab harakatlarni o'zlashtirgan bo'ladi. Uning musiqa mashg'ulotlaridagi harakatlari xilma-xil, ritmik va egiluvchan bo'ladi. U o'yin va mashqlarda chaqqonlik, abjirlik, tezkorlik, merganlik kabi sifatlarni yaxshiroq namoyon eta boshlaydi. Lekin shular bilan birga ularning asab tizimini mustahkamlash, asosiy jismoniy sifatlari bulmish chaqqonlik, chidamlilik, tezkorlik, kuchlilik, epchillik kabilarni yanada rivojlantirish lozim bo'ladi. Bolaning nafaqat o'quv dasturlarini o'zlashtirishida, balki har qanday ishda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlardan biri chidamlilikdir. Bolani mактабга tayyorlashda navbatdagi muhim ish uni shifoxonada shifokor tekshiruvidan o'tkazishdir. Bolaning sogligi va jismoniy rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar mакtab uchun zarur. Maktab shifokori va pedagog bolaning jismoniy rivojlanishi, kurish va eshitish darajasini hisobga olib, uni o'qishning dastlabki kunlaridayoq partaga to'g'ri o'tkazishda, unga tegishli jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tavsiya etishda, shuningdek, bolaning xulq-atvorini, axloqini bilib olib, har qaysisiga xos muomala topishda shu ma'lumotlardan foydalanadi. Bola qanday yukumli kasalliklar bilan ogriganligi, u qanday em-dorilar qabul kilganligi va kasalliklar oldini olish uchun nimalar qilish kerakligini mакtab shifokori bilishi lozim. Har yili 1-yanvardan boshlab, shifoxonaning patronaj hamshirasi shu yili mактабга borishi kerak bo'lgan bolalarning uylariga borib, ota-onalarga bolalarini o'zları bilan birga olib borib, uchastka bolalar shifokoriga ko'rsatishlari lozimligini aytadi. Ota-onalar hamshiraning taklifiga jiddiy qarab, paysalga solmay poliklinikaga borilari kerak. Poliklinikada mutaxassis shifokorlar bolaning ko'zi, qulogi, burni, tomog'ini tekshiradilar, tishini davolaydilar. Nutqida nuqsoni bo'lgan (ayrim harflarni noto'g'ri talaffuz etadigan, nutqi noaniq, duduqlanadigan va haqozo) bola shifokor-logopedga yuboriladi. Bunday atroficha tekshirishlar natijasida shifokor ota-onalar qo'liga bolaning shifoxonadagi shifokorlar ko'rigidan o'ttganligi haqida Ma'lumotnomma beradi. Maktab shifokorining so'rovi bilan shifoxona bolaning shaxsiy ambulatoriya kartochkasini mактабга yuboradi. Bolalarini birinchi sinfga beradigan ota-onalar bajaradigan tayyorlov ishlari mana shulardan iborat. Mana

shularni hisobga olgan holda bolani uyda qanday qilib sog‘lomlashadirish kerakligi haqida to‘xtalib o‘tamiz. Shuning uchun ham zamonaviy sog‘lomlashadirish tadbirlarini sanab o‘tamiz:

1. Avval qirovli, so‘ng qorli yerda yalang oyoq yurish;
2. Ochiq havoda badandan suv quyish;
3. Saunadan foydalanish;
4. Kontrastli dush;
5. Yurish uchun muzlatilgan sochiqdan foydalanish;
6. Relaksatsiya va meditatsiya o‘tkazish;
7. Bolaga individual yondoshish, magnit to‘lqinlar davrida yengillatilgan rejim bilan ta’minalash;

Biz bolaning sog‘lomlashishini quyidagi vazifalarning amalga oshirilishidan kuramiz. Bolalardagi shamollash kasalligi asosan bolaning kiyimi va poyafzali harorat rejimiga to‘g‘ri kelmasligidan kelib chiqadi. Demak, haroratni va kiyimni doimo taqqoslاب, kichkintoylar badani haroratning ko‘tarilishi yoki pasayishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Shuningdek, bolalarning uxlashi va ovqatlanishi uchun sharoitlar yaratish ham muhim. Bolalar sog‘ligi uchun u yashayotgan shart-sharoitlar, muhitni shakllantirish uchun zarur bo‘lgan asosiy shartlar hisoblangan musiqa va hid terapiyasi juda ham muhim. Bolaning eshitish qobiliyati, ko‘rishi, ichak, jigar foliyati, jinsiy rivojlanishi qanday axvolda ekanligi va xokozo. Faqat diagnostik ma’lumotlarga oilada bolaga aniq individual yondoshishni ta’minalaydi. **Rejim** – hamisha bolalarning to‘liq fiziologik rivojlanishining negizi bo‘lgan va bo‘lib qoladi. **Sayrlar** – fiziologlar va psixologlarning ilmiy dalillariga ko‘ra, mакtabgacha yoshdagi bola bir kunda 6-13 ming harakat bajarar ekan, jumladan, 6 mingdan kam bo‘lsa bolalarda qo‘laylikning buzilishi (diskamfort) boshlanishi alohida ta’kidlanadi. Bola birinchi sinfga o‘qishga borar ekan, uning mакtab ta’limiga jismonan tayyor holda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Bolaning o‘ziga nisbatan jismonan baquvvat, kuchli bolalar orasiga tushib qolishi unda turli holatlarning shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Tibbiy, psixologik – pedagogik kuzatuv daftari mакtabgacha ta’lim tashkilotining har bir tarbiyalanuvchisi uchun alohida yuritiladi. Unda shu tarbiyalanuvchi bilan yil davomida o‘tkazilgan tibbiy ko‘rik, psixologik-pedagogik tashxis xulosalari hamda uning mакtabgacha ta’lim Davlat talablarini asosida o‘lashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalarining ko‘rsatkichlari uzlksiz qayd etib boriladi:

- Mакtabga tayyorlov davri (6-7 yoshgacha).
- Rivojlanish ko‘rsatkichlari: _____
- Antropometrik ma’lumotlar:
- bo‘yi _____
- vazni _____

- Salomatligi: _____
- Psixonevrolog: _____
- Otoloringolog: _____
- Oftalmolog: _____
- Uyquning kechishi: _____
- Ishtaxasi: _____
- Asab tizimining xususiyati: _____
- Nutq va nutqiy malakalar: _____
- Tovushning talaffuzi: _____
- So‘z boyligi: _____
- Nutqi ifodali: _____
- Nutqi ravon: _____
- Gaplar tugallangan mantiqiy: _____
- Qisqa hikoya so‘zlab bera oladi: _____
- Jismoniy rivojlanishi: _____
- Harakat: _____
- Mayda qo‘llar motorikasi: _____
- Ma’naviy axloqiy yetuklik: _____
- Ma’naviy ko‘nikma: _____
- Madaniy gigiyenik ko‘nikma: _____

Har

qanday maktab yoshiga etgan (6-7 yosh) bola, avvalo tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim. Tibbiy ko‘rik orqali bolani maktabga aqlan, jismonan, ma’nан sog‘lom yoki sog‘lom emasligini aniqlash orqali uni maktabga chiqishini yoki chiqmasligini aniqlash mumkin.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tayyorgarlik. Maktabgacha yoshdagи bolalarga ta’lim-tarbiya berishning asosiy maqsad va vazifalari bolalarni jismoniy va aqliy jihatdan rivojlantirish, ularning ruhiyat, shaxsiy qobiliyatları, intilish va ehtiyojlarini qondirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, mustaqillik goyalariga sodiq holda voyaga yetib borishini ta’minalash, ularni maktabgacha yoshdagи bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yilgan davlat talablariga muvofiq maktab ta’limiga tayyorlashdan iborat. Maktabgacha yoshdagи bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi asosida amalga oshiriladi. Har bir oila barkamol avlodni tarbiyalash uchun qayg‘urishi lozim. Shu bois «Ta’lim to‘g‘ri sida»gi qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da mamalkatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta’minalashning asosiy omili bo‘lgan kadrlarni tayyorlash borasidagi eng zarur tadbirlar tizimi belgilab berildi. Sog‘lom avlodni tarbiyalash davlat va jamiyatning ustuvor yo‘nalishidir. Hech kimga sir emaski,

respublikada bolalarni maktabgacha ta'lim-tarbiya tashkilotlariga jalg qilish kam foizni tashkil qiladi. Bunday nomutanosiblik, bolalar maktab ostonasiga qadam qo'ygan kundan boshlab ularning rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim tarbiya mazmuni, shakli, vosita va metodlarini engilashga alohida e'tibor berilmoqda. Davlat va jamiyat maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarni yagona talab asosida rivojlantirish vazifasini qo'ydi. Shunga ko'ra maktabgacha yoshdagagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga tayangan holda maktabgacha yoshdagagi bolalarga integral tarzda ta'lim-tarbiya berish maqsadida tayanch dasturlari taqdim etilmoxda. Bu tayanch dasturlari bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalg etilmagan bolalarni ham rivojlantirish va yagona davlat talablari asosida maktabga tayyorlash imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida mustaqil fikrlaydigan, erkin, bilimli, bir so'z bilan aytganda barkamol shaxsni voyaga etkazish asosiy maqsad qilib belgilandi. Bu o'zluksiz ta'lim tizimining ilk turi – maktabgacha ta'limga o'ziga xos yondoshuvni talab etar edi. Bola dunyoga kelgan kundan boshlab, davlat va jamiyat hamda ota-onasi zimmasiga uni sog'lom, aqli, xush xulqli qilib tarbiyalash vazifasi qo'yiladi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomila orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar, o'yinlar, bilim berish orqali amalga oshiriladi. Bola har doim buyumlar, hodisalar orasida bo'ladi. Doimo biror narsa bilan tanishadi, nimanidir bilib oladi, ushlab ko'radi, nimagadir quloq soladi, shu tarzda bola dunyonи anglaydi. Tevarak-atrof buyum va narsalar bolalarining sezgi organlariga, analizatorlarga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. Bolada aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, eng oddiy faoliyat usullari predmetlarini tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma, malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlarga bo'lib, bor bilimlarni chuqur egallab olishga yordam beradi. Pedagogika, psixologiya fani aqliy tarbiya vazifalarini samarali hal etish *birinchi* navbatda bolaning imkoniyatlarini to'g'ri foydalanishni, *ikkinci* tomondan bola organizmining charchashiga sabab bo'ladigan ortiqcha zo'riqish bo'imasligi kerak degan fikrni ilgari suradi. To'g'ri tashkil etilgan faoliyat jarayonidagina to`la qonli aqliy rivojlanish ro'y beradi. Shu sababli pedagoglarning vazifasi muayyan maqsadni ko'zlab, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun kerakli sharoitni yaratish bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali so'ng ta'limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning roli kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari, ularni aqliy faolligini rivojlantirish, aqliy malaka va

ko'nikmalarini egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun, bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib, xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilar:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlar tizimini ilmiy dunyoqarashini shakllantirish. Bola tevarak-atrofdagi narsalar, ularning vazifasi, sifati, xossalari haqida, qaysi materiallardan foydalanganligi, tayyorlanganligi to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak.

2. Bilihga dorir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq va boshqalar. Bilimga doir nutqni rivojlantirish aqliy tarbiyaning erkin vazifasidir.

3. Bilihga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlning sinchikovligini rivojlantirish va shular asosida bilihga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, ya'ni oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha yoshdagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir.

O'simlik va hayvonlar bilan tanishish bo'yicha tizimli ta'limiy faoliyatlar olib borilgandan keyin bolalar o'simlik, yosh hayvonlar to'g'risidagi ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy ko'nikma, malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan ta'limiy faoliyatlarni o'tkazishni rejalashtirish mumkin. Bular quyidagilar: «*Sen ta'rifla, men topaman*». Didaktik vazifa – kattalarning savollariga narsaning xarakterli belgisini ajratib va nomini aytib javob berish. O'yin harakati – kattalarga topishmoqni aytish. O'yin qoidasi – ta'riflanayotgan narsani nomini aytish mumkin emas. Tarbiyachining savollariga aniq va to'g'ri javob berish. Jixozlash – sabzavot va mevalarni stol ustiga qo'yiladi. Tarbiyachi stulini o'simliklar ko'rinxmaydigan qilib qo'yiladi. O'yinning borishi – Tarbiyachi bolalarga stol ustidagi sabzavotlardan bittasini tanlang. Men sizdan uning qandayligini surayman. Siz javob berasiz. Faqat uning nomini aytmgan. Sizlarning javoblariningizdan men uni topishga harakat qilaman. Keyin tartib bilan tarbiyachi savol beradi: «*Shakli qanday?, Hamma tomoni shardek dumaloqmi?, Chuqurchasi bormi?, Rangi qanday?*» va boshqa. Bolalar savollarga tula javob berishadi. Bolalar narsaning xarakterli belgilari haqida gapirib bergenlaridan keyin tarbiyachi topishmoqni topadi. Ta'limiy faoliyatda, o'yinda, tabiat burchagida va maydonchadagi mehnatda, ekskursiya va sayr vaqtida tarbiyachi bolalarga atrofdagi olamning turli-tumanligini, chiroyini ko'rsatadi, o'simlikning turli

xususiyatlari, sifatlari bilan tanishtiradi, o'simlik va hayvonot olami haqida elementar tushunchani shakkllantiradi. Tarbiyachining hikoyasidan faolroq o'zlashtirib olishga bolalarning jozibali munosabati imkon beradi. Ta'limi faoliyatlarda, didaktik o'yinlarda qo'yilgan vazifani hal etishda bola buyum va hodisalarining ayrim xususiyatlarini ajratishga, solishtirishga, umumiylar xususiyatlarga, belgilariga qarab guruhlarga ajratishga, klassifikatsiya etishga o'rghanadilar. Bolalar fikr yuritishga, xulosalar chiqarishga o'rghanadi, bolalar diqqati, xotirasi va ixtiyoriy idroki rivojlanadi. Ta'limi faoliyatni, o'yin vazifasini hal etishda bola o'zining xatti-harakatini tushuntiradi. Bu esa nutqining o'sishiga yordam beradi. Ta'limi faoliyatlar, didaktik o'yinlar davomida turli mактабгача yoshdagи bolalar ko'p marotaba takrorlash orqali Mактабгача ta'lim tashkilotining ta'lim-tarbiya dasturiga xos bilimlar majmuini o'zlashtiradilar. Tabiiy materiallar bilan uynaladigan o'yinlarni tanlashtirishda tarbiyachi o'yinning mazmuni atrof muhitdagi tabiatdagi o'zgarishlarga mosligini unutmasligi lozim. Masalan: «Urug sotib olish» o'yini bahorda, «Hosil yigishtirish» esa yoz yoki ko'zda o'tkazilishi kerak. Tarbiyachining o'zi ham ta'limi faoliyat, o'yinning turlicha variantlarini uylashi mumkin: o'yinga, ta'limi faoliyatga qo'shimcha vazifa, yangi rol, bolalarning atrofdagi tabiat haqidagi bilimlarini boyitishga va boshqalar. Ba'zi bir xil didaktik o'yinni turli variantda, turli yoshdagи bolalar uchun tavsiya etiladi. O'yinlar o'simliklar, hayvonlar yoki boshqa predmetlarning soni oshishi, turlicha qoida va o'yin harakatlarining oshishi hisobiga murakkablashadi. Masalan: paypaslab bilish uchun sabzi, bodring, olma va boshqalar olish mumkin, keyinchalik shakli o'xshash bo'lgan meva va sabzavotlarni kiritish mumkin. Mактабгача ta'lim yoshidagi bolalarga barg, gullar bilan o'ynash ko'pincha guruh xonasini, ovqat stolini bezash, guldasta, barglarni kattalarga, kichik bolalarga sovg'a qilishga xohishlari bilan bog'lanadi. Bunday o'yinlarni, ta'limi faoliyatlarni o'tkazishda bolalarni o'simliklarga nisbatan ehtiyyotkorlik, gullarni bekordan-bekorga uzmaslikka o'rgatish lozim. Agar bola olma yoki boshqa predmetlarni shakliga diqqatini qaratgan bo'lsa, unga olmani dumalatib ko'rish, koptokdek silab ko'rish, uning sillikligini aniqlashni taklif etish lozim. Bolalarda rang, shakl, kattalik tushunchalarini ishlatishga o'rgatish lozim. Xilma-xil tabiat hodisasi olamida bolalarning bevosita Kuzatishlari uchun eng tushunarligi o'simlik va uy hayvonlaridir. Mактабгача ta'lim yoshidagi bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan tanishtirish jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan muhabbat tarbiyalanadi, hayvonlarni parvarishlashga, o'simliklarni o'stirishga nisbatan istaklari tarbiyalanadi.

Nazorat savollari:

- 1.Bolalarning sog‘ligi va jismoniy rivojlanganligi holati qanday tashxislanadi?
2. Tashxislashda nimalarga alohida e’tibor qaratish kerak?
3. Kern-Irasek uslubi qanday bajariladi?

Topshiriq: «Grafik diktant» va tashxislashning qo‘sishimcha shakllarini tahlil qiling va izohlang.

BOLALARNING MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORGARLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

Tayanch so‘zlar: *oila, mashg‘ulot, shakl, ma’naviy tarbiya, faoliyat, estetik tarbiya, mehnat tarbiyasi, rasm, loy, qurilish materiallari, musiqa, jismoniy madaniyat.*

Bolalarni mакtabga tayyorlashda oilani va mакtabgacha ta’lim tashkilotining o‘rni. O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom”ga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga jalb qilingan bolalar uchun MTTlarda, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bolani maktabga tayyorlashda oilaning o‘rni juda kattadir. Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning taqdiri uchun yuksak ma’suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oila bolani maktabga tayyorlashda tarbiyani har tomonlama, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi. *Ma’naviy tarbiyani* bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she’r va qo’shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analaramizni o‘rgatish orqali singdirish mumkin. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator *axloqiy* jihatlari shakllanadi-ki boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafkat, hamdardlik, muomala madaniyati, burchi va sadokat minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi. Kelajak avlodga *estetik tarbiya* berishda ham oilaning muhim o‘rni bor. Oila davrasida qo’shiqlar kuyylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino ko‘rish va tahlil qilish, qiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda gullar parvarish qilish, rasm solish va hakozolar bolani estetik tarbiyasini shakllantirishdagi

jihatlardir. Ota-onalar voyaga etayotgan farzandlarining *jismoniy* barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badan tarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida *mehnat tarbiyasi* muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani mакtabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyoq qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlarini rivojlantirish vositasidir. Maktabgacha ta'limgoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash mакtabgacha tarlim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarining muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalash davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining qo'yilishiga kompleks yondashishga, tarbiyaviy muassasalarning, oila va jamiyatshilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq. Maktabgacha yoshdagagi bolaning mакtab ta'limgiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabtalarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani bog'chadayoq yoki uydayoq mакtab ta'limgiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'Imagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim. Maktabgacha ta'limgoshidagi tarbiyachilar tomonidan o'tkaziladigan ta'limi faoliyatlar jarayonida bolalarda mustaqil fikrleshish ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zin tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda qancha mashg'ulot o'tkazish mакtabgacha ta'limgoshidagi muassasasi ta'limgoshidagi dasturida belgilab qo'yilgan. Har bir MTTda metodik xonalar mavjud bo'lib, unda MTTda ta'limgoshidagi tarbiya dasturining hamma bilimlari bo'yicha metodik qo'llamalar bo'ladi. Tarbiyachi ta'limi faoliyat jarayonida yangi pedagogik tehnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalanadi. Bolaning yoshi, ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi. Tarbiyachi har bir bolaning imkoniyatlarini aniqlab olishi

kerak, bolalar o'zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo'linadi:

1-guruh: ijobjiy xulqli bolalar bo'lib, ular tez do'stlashadilar. Ularni jamoa a'zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo'lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o'rnatishda ularga suyanadi.

2-guruh: faol tashabbusga qo'shiladi, ammo beqaror bo'ladi.

3-guruh: tortinchoq bo'lib, o'yinda qatnashmaydilar, mashg'ulotlarda sust bo'ladilar. Bunday bolalarga alohida e'tibor zarur. Tarbiyachi guruhdagi har bir bolaga individual yondashib, ularning bir-biri bilan o'z aro munosabatga kirishib, do'stlashishiga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni maktabda o'qishga har tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko'rsatishdan iborat: Maktabgacha tarbiya tashkiloti xodimlarining eng birinchi vazifasi – maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshqa a'zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va har bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uyg'otishdir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya haqidagi fanga qiziqish uyg'otadi. O'z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish hissini uyg'otadi. Keyinchalik esa maktab pedagogik umumta'limiga kirishib ketish hissini uyg'otadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyani har tomonlama, jumladan, ma'naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalari birgalikda olib borilib bola maktabga chiqariladi. Bola MTTda olgan bilimlarini maktabda davom ettirishga shundagina qiyalmaydi.

Aql keng ma'noda sezish, idrok etishdan boshlanadigan tafakkur va xayolni o'z ichiga oladigan jarayondir. Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o'rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faollikni va mustaqillikni rivojlantirish, maktabda yaxshi o'qish, keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir. Bola 6-7 yoshdan maktabga o'tishi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish etarli bo'lishini ta'minlash tarbiyachidan katta mas'uliyatni talab etadi. Maktabgacha ta'lim yoshida bilim tez sur'atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so'ng ta'limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tevarak-atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga, ya'ni analizatorlariga ta'sir etadi va sezgi hosil bo'ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi. (Issiq-sovuq, g'adir-budir). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi

hisoblanadi. Bolalarning bilimlarni egallab olishlari ularning aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikma egallab olishlari, ularning maktabda muvaffaqiyatli o'qishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to'g'ri sidagi bilimlar tizimini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilishga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilishga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchilarni, ya'ni qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat.

3. Aqliy malaka va ko'nikmalarни rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish, ulardagи muhim va muhim bo'lмаган belgilarni ajratib ko'rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolaning bilimlarni chuqur egallab olishiga yordam beradi. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o'rgatish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oila bilan ishlash tizimida aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishish mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlaridan ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

➤ Ota-onalar bilan yakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotidagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

➤ Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular otaonalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar muktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

➤ Ko'rsatmali ishlar – ishning bu turi: ko'rgazmalar uyshtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.

➤ Bolaning oilasini borib ko‘rish va oila a’zolari bilan yaqindan tanishish. Bolalar maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo‘llarini izlab topilsa, maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining, pedagog olimlar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlarning o‘rni juda ham kattadir.

Bolalarni maktabga tayyorlashda talimiylar faoliyatlarining ahamiyati. Talimiylar faoliyat tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarini umumiy holda xabardor qilish demakdir. Ta’limiy faoliyatlar kun davomida o’tkazib boriladi. Kunning birinchi qismiga mo‘ljallangan mashg‘ulotlar ancha samara beradi. Talimiylar faoliyat jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko‘nikma va malakalarini hosil qilinadi, tarbiyachining so‘zini tinglash, o‘rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o‘rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta ta’limiy faoliyat o’tkazish bolalar Maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi. Talimiylar faoliyatning turlari haqida gapiradigan bo‘lsak, talimiylar faoliyatning turlari quyidagichadir: Bolalarning bilimlarini sinovchi talimiylar faoliyatlar – ushbu ta’limiy faoliyatlarini o’tkazishdan maqsad, tarbiyachi dasturda belgilangan bilim va malakalarini egallash darajasini bilib oladi va keyingi ishlari davomida ishlarni inobatga oladi. Kompleks ta’limiy faoliyatlar – bu ta’limiy faoliyat bolalar maktabgacha ta’lim ashkiloti tajribasida keng tarqalgan bo‘lib, bunday ta’limiy faoliyatlarda bolalarga yangi bilim beriladi. Talimiylar faoliyatning tuzilishi esa:

- bolalarni uyuşdırish;
- asosiy qism;
- yakuniy qism.

Talimiylar faoliyatga tayyorlanish mazmuni ham mavjud bo‘lib, ushbu mazmunga quyidagi larni kiritishimiz mumkin:

1. Ta’limiy faoliyatni rejalashtirish.
2. Kerakli jihozlarni oldindan tayyorlash.
3. Bolalarni ta’limiy faoliyatga tayyorlash.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachi ta’limiy faoliyatni bir bo‘limidan bitta emas, balki butun bir ta’limiy faoliyatning mazunini rejalashtirib olib borilsa, ijobjiy natijani qo‘lga kiritadi. Tarbiyachiga metodik qo‘llanmalardan foydalanib mashg‘ulot o‘tish tavsiya etiladi. Har bir MTTda metodik xonalar mavjuddir. Unda maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’lim-tarbiya dasturining hamda hamma bo‘limlari bo‘yicha metodik qo‘llanmalar bo‘ladi.

Yetishmovchiliklarni tarbiyachi o'zi tayyorlaydi va bu ishga ba'zan tayyorlov guruhidagi, ya'ni maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni jalg etadi. Tarbiyachi ta'limiy faoliyat uchun kerakli jihozlarni bir kun avval tayyorlab qo'yadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotining *birinchi kichik guruhida* haftasiga 10 ta ta'limiy faoliyat o'tkaziladi. Ular quyidagicha taqsimlanadi:

- atrofdagi voqealar bilan tanishtirish va bolalar nutqini rivojlanтирish;
- rasm chizish va loy yoki plastilindan narsa yasash;
- qurilish materiallari bilan mashqlar bajarish;
- musiqa mashg'ulotlari;
- jismoniy tarbiya mashg'ulotlari.

Ta'limiy faoliyatlar 10-15 daqiqa davom etadi va ular shanba kunidan tashqari har kuni ertalab va kechqurun o'tkaziladi. ta'limiy faoliyatlar bilan bir qatorda sayr vaqtida atrofdagi narsalarni kuzatish, harakatli va didaktik o'yinlar rejalashtiriladi. ta'limiy faoliyatlarning katta qismi rivojlanishi bir xil darajada bo'lgan bolalarni birlashtiruvchi kichik guruhlarda o'tkaziladi. Batafsil tushuntirish va kattalarning yordamini talab qiladigan yangi materialdan foydalaniladigan ta'limiy faoliyatlar (masalan, yig'ma kartinalar yoki yangi konstruktor, birinchi marta beriladigan mashg'ulotlar) ana shunday o'tkaziladi. Harakatlarining navbatiga riosa qilinadigan ta'limiy faoliyatlarda bolalar uncha ko'p bo'lmasligi kerak. Masalan, gimnastika asboblari bilan o'tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari, «Loto» tipidagi va nutqni rivojlanтирish mashg'ulotlari ana shunday bo'ladi, bunda ayrim bolalar o'z faolliklari bilan boshqalarini chetga surib qo'yishlari mumkin. Ammo hayotning uchunchi yilda ta'limiy faoliyatlarning ayrim turlarini butun guruh bilan o'tkazish ham mumkin, chunki bola xulq-atvor qoidalarini (butun e'tibor bilan tinglash, jim utirish) egallagan bo'ladi, o'z harakatlarini boshqa bolalar bilan muvofiqlashtira boshlaydi, kattalarning nutqi uning harakatini yo'lga soladigan bo'ladi. Bolalarning butun guruh bilan ayni vaqtida musiqa ta'limiy faoliyatlarini, harakatli o'yinlarni, shuningdek bolalarning o'zları asosan tomoshabin bo'ladigan ko'rgazmali insenirovkalarni o'tkazish mumkin.

Ta'limiy faoliyat vaqtida tarbiyachining e'tiborini hech kim chalg'itmasligi, xona jumjut bo'lishi, halaqit berishi mumkin bo'lgan hamma narsalar chetga olib qo'yilishi kerak. Bolalarning mustaqil faoliyati bilan, ayniqsa, o'yin bilan bog'liq mashg'ulotlar katta samara beradi. Masalan: musiqa mashg'ulotlari, sensor rivojlanish ta'limiy faoliyat turlaridan foydalanish mumkin. Hayotning uchunchi yilda bolalarni o'rgatish ko'rgazmali tarzda olib boriladi. Ta'limiy faoliyatlar maktabgacha ta'lim tashkilotida o'qitishning asosiy shaklidir. Ular maktabgacha ta'lim yoshidagi hamma bolalar uchun majburiy; ular uchun dastur mazmuni belgilangan, kundalik rejimida doimiy vaqt ajratilgan, ularning qancha vaqt davom

etishi tayinlangan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limiy faoliyatlar bolalarni maktabga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Bu ta'limiy faoliatlarda bolalar o'quv faoliyati ko'nikmalari hosil qiladilar, ancha intizomli, uyushgan bo'lib boradilar. Ularda barqaror diqqat, diqqatni bir narsaga qarata olish, irodaviy zo'r berilish qobiliyati rivojlanadi. Tizimli o'qish natijasida bilishga qiziqish paydo bo'ladi. Bolalarni jamoada o'qitish muayyan afzalliklarga ega: birqalikda ishda ular bir-birlariga faol ta'sir etadilar, tashabbus, fahm-farosat ko'rsatish imkoniga ega bo'ladilar. Bolalar oldilariga ko'pchilikdan kuch-g'ayrat talab qiladigan vazifalar qo'yilganda birqalikdagi kechinmalar paydo bo'ladi, jamoaviylik tuyg'usi vujudga keladi Ekskursiyalar, rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar yasash, qurish-yasashga oid ishlarni birqalikda bajarish, umumiyo'yinlarda va musiqa mashg'ulotlardagi raqlarda, harakatlarni rivojlantirish ta'limiy faoliyatlarida birlashish, badiiy adapbiyotni o'qish tufayli yuzaga kelgan birqalikdagi kechinmalar – bularning hammasi inoq bolalar jamoasini vujudga keltirishda yordam beradi hamda, jamoada yashash va ishslash ko'nikmasi hosil qiladi. Ta'limiy faoliyatlardagi o'qitish jarayonida bolalarda maktabga va o'qishga qiziqish tarbiyalanadi, to'g'ri va xulq-atvor ko'nikmalari, mas'uliyat hissi, ishchanlik, o'zini tuta bilish, ishda zo'r berish odati hosil qilinadi. Bolalarga kerakli bilim va malakalarni ta'limiy faoliyat jarayonida, yangi pedagogik tehnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod usullaridan foydalanilsa, bolani yosh, ruhiy fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi. Bolalar ta'limiy faoliyatlarning turli xil ko'rinishlarini egallashlari orqali, yoshlari o'sib borishi davomida maktabga bo'lgan qiziqishlari ham o'sib rivojlanib boradi. Buning natijasida ular mакtabda ham hech qynalmay o'qib, rivojlanishni davom ettirib boradilar.

Bolalarni maktabga tayyorlashda jismoniy tarbiyalashning ahamiyati. Jismoniy tarbiya – maktabgacha pedagogikaning muhim bir bo'limi bo'lib, bizda qaror topgan jismoniy tarbiya tizimining dastlabki bo'g'inidir. Uning vazifasi, bola sogligini saqlash, jismoniy sifatlarini o'stirish, yoshlarni mehnatga va vatan himoyasiga tayyorlashdir. Jismoniy rivojlanish tor ma'noda bo'yning o'sishi, muskullarning ortishi, va shu kabi antropometrik va biometrik ko'rsatkichlardir. Jismoniy rivojlanish kishi organizmini o'rab turgan muhitga bog'liqligi to'g'risidagi biologik qonuniyatlar asosida amalga oshiriladi. Masalan: hayot sharoitini jismoniy tarbiya metodini bir muncha o'zgartirish orqali organizmning funksional imkoniyat darajasini bir muncha ko'tarish, jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkin. Jismoniy tarbiya deganda organizmning morfologik va fiunksional rivojlanishini jamiyat talablari darajasida amalga oshirish, jismoniy sifatlarni qobiliyatlarni rivojlantirish, harakat malaka va ko'nikmalarini shakkantirish, jismoniy madaniyat va sport sohasiga taanuqli

maxsus bilimlarni o'zlashtrib olish tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'ligini mustahkamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish madaniy genetik malakalarini shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan. Kun tartibidagi aksariyat hollarda genetik va chiniqtiruvchi muolajalarini bajarish orqali bolaning bilim doirasi kengayadi. Aqliy faolligi ortadi. U jasurlik, hallolik, batartiblik, qat'iylik, mustaqillik va shunga o'xshash ijobjiy xulq me'yorlari va qoidalarini ham egallab shakllanadi. Jismoniy tarbiya aksariyat hollarda butun guruh bilan bajariladi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida harakatli o'yinlarda bolalarda jamoatchilik uyushqoqlik, intizomlilik kabi xislatlar shakllanadi. Maktabga ta'lim yoshidagi bolalar organizmning o'ziga xos tomoni shundaki, u juda tez o'sadi va rivojlanadi. Shu bilan birga organizm funksiyalari va tizimlarining shakllanishi, hali tugallanmagan bo'ladi. Shunga ko'ra u tez jarohatlanadi. Shuning uchun bolalarga jismoniy tarbiya berishda quyidagilar birinchi darajali vazifalar hisoblanadi.

1. Sog'lomashtiruvchi vazifalar.
2. Ta'limiy vazifalar.
3. Tarbiyaviy vazifalar.

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari, qo'l mushaklari va ko'rish-motor muvofiqligi rivojlanganligi bilan izohlanadi. «Rivojlanmaganlik» ning asosiy belgilari o'ziga xos jismoniy rivojlanishning alohida jihatlarida ko'rindi. Masalan, suyak tuzilishida past bo'yli bolalarda o'z yoshiga ko'ra tana bo'yli va og'irligidagi nomutanosiblik, tanadagi muvozanat buzilishlari, yurak kon tomir tuzilishidagi fiziologik yetishmovchiliklar tez toliqishlar, jismoniy yuklamalarni bajarishdagi imkoniyatlari pastligi shular jumlasiga kiradi. Kasalliklar va ularga moyillik bo'yicha o'tkaziladigan tekshiruvlarga kelsak, ular yashash joyidagi bolalar poliklinikalarida tor mutaxassis shifokorlar guruhi tomonidan olib boriladi. Jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- harakatning asosiy turlarini rivojlantirish;
- yurish va yugurishning barcha turlarini to'g'ri bajarish, shart-sharoitga muvofiq ulardan foydalanish;
- sakrash, irgitish, tirmashib chiqishning barcha turlarini to'g'ri bajarish;
- yumshoq joyda 40 sm balandlikka sakrash, joyidan turib 70 smdan kam bo'limgan uzunlikka sakrash, 100 metr masofani yugurib o'tish predmetini turli vaziyatlardan turib otish 4-5 metr masofadagi vertikal va gorizontal nishonlarga tushirish;

- 2-3 doira yurib aylanib 3-4 qatorga safni o'zgartirib tizilish, «birinchi, ikkinchi» hisob sanogidan keyin ikki qatorga tizilish, harakat davomida oraliq masofani saqlash;

- turli xil dastlabki holatlardan turib jismoniy mashqlarni aniq, ritmik ko'rsatilgan maromda musiqaga mos og'zaki ko'rsatmalarda aytiganidek bajarish;

- sport o'yinlari unsurlari ishtirok etadigan o'yinlarda (voleybol, futbol, xokkey, basketbol, stol tennisi) faol ishtirok etish. 15 metrga erkin suzish, tana qismidagi mushakchalarini rivojlantirish;

- qo'l panjasи va barmoqlar harakatchanligini ta'minlash, barmoqlarni uynatish;

- miriqib uyquga ketish va oromli uyqu;

- o'zining jismoniy kiyofasi va sogligi haqida tasavvo'rni shakllantirish, sog'lom turmush tarziga erishish;

- antropometrik ko'rsatkichlarning (bo'yi, vazni, boshining doirasi, ko'krak kengligi) yosh ko'rsatkichi standartlariga muvofiq kelishi. Jismoniy rivojlanganlik darajasi, maktab yoshiga yetgan bolalarning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar:

- mustaqil tarzda jismoniy mashqlarni bajara olish;

- buyruqqa (start, stop) asoslanib yugura olish;

- narvon yordamida tepalikka chiqa olish va pastga tusha olish;

- narvon ustida o'tirib oldinga siljiy olish;

- 5 soniya davomida arqonda osilib turish;

- arg'imchoq ucha olish;

- cheklangan saf va chiziq bo'ylab yura olish;

- qiya qo'yilgan taxta ustidan yurib o'ta olish;

- bir oyoqda qaldirg'och bo'lib tura olish;

- oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko'tarish, pastga surish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chira olish;

- joyidan turib 15-20 marta sakray olish, 70-8- sm o'zunlikka sakray olish, 30 sm balandlikdagi to'siqdan sakrab o'tish;

- to'xtamasdan 2-3 daqiqa davomida yugura olish; 100 metr masofani to'xtamasdan yugurib o'tish;

- 10 metr masofani emaklab o'tish;

- safda to'g'ri turish va safni uzunasiga yurish;

- saflanish va qayta saflanishni bilish;

- musiqa ohangiga mos holda harakat qila bilish;

- koptokni irgitish va ilib olish;

- ilon izi shaklida yurish;

- to‘p-to‘p bo‘lib aylana bo‘ylab yura olish; xalq o‘yinlari «Kim chaqqon», «Ok terakmi-ko‘k terak?», «Quyonim-quyonim ne bo‘ldi?», «Chitti gul», «Bog‘lam-bog‘lam», «Kim oladi shu ginani», «Uchdi, chopdi, sakrad», «Qushim boshi», «Qoch bolam, qush keldi», «Tortishmachoq» kabi harakatlari o‘yinlarda ishtirok eta olishdan iborat. Syoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan yosh davri «dastlabki bo‘y cho‘zilishi» dasri deb ataladi. Chunki bu davrda bola yil davomida 7-10 sm o‘sishi mumkin. Maktabgacha 5 yoshli bolaning bo‘yi 106,0-10,7 sm, vazni esa 17-18 kilogrammni tashkil etadi. Hayotining 6 yili davomida har oyda o‘rtacha vazniga 200,0 gr, bo‘yiga 0,5 sm qo‘shilib boradi. Tajribalar va maqsadga qaratilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari natijasida 6 yoshli bolalar harakat texnikasiga doir mashqlarni to‘g‘ri va tushungan holda bajaradilar.

Bolalarni maktabga tayyorlashda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning ahamiyati. Bolalarning matematik tushunchalarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishi, ularning idrokini, ya’ni sensor tuyg‘ularini o‘stirish bilan bevosita bog‘liqidir. Umumlashtirish va abstraktlashtirish qobiliyati real predmetlarning xususiyatlarini aniqlash va shu xususiyatlarga qarab mazkur predmetlarni bir-biriga taqqoslash va guruhlarga ajratish asosida o‘sib boradi. Shuning uchun bola maktabga borgunga qadar unda matematik tasavvurlarni shakllantirish uchun MTTdagi barcha o‘quv-tarbiya ishlari bilan uzviy ravishda bog‘lab maxsus ish olib boriladi. Matematik bilimlar bolalarga ma’lum tizim va izchillikda berilishi, bunda yangi bilim kamroq miqdorda, ya’ni bolalar o‘zlashtirib oladigan darajada bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham bir vazifa bir qancha mayda qismlarga bo‘linib, ular birin-ketin o‘rganib boriladi. Tarbiyachi har bir yosh guruhining dasturi qanday tuzilganini bilishi lozim. Bu unga o‘z guruhidagi bolalarning matematikaga doir bilim darajalarini aniqlash uchungina emas, balki maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarda boshlang‘ich matematik tasavvurlarni o‘stirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar tizimida har bir ta‘limiy faoliyatining³ qanday muhim rol o‘ynashi va o‘rin egallashini ko‘z oldiga keltirish uchun ham imkon beradi. Matematik tasavvurlarni shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishning asosiy shakli – ta‘limiy faoliyatdir. Dastur vazifalarining ko‘pchilik qismi ta‘limiy faoliyatlarda hal qilinadi. Bolalarda ma’lum izchillikda tasavvurlar shakllantiriladi, zarur malaka va ko‘nikmalar hosil qilinadi. Atrofdagi hamma narsani miqdor jihatidan Kuzatishlarni uyuştirishga, bolalarning o‘z faoliyatlarining xilma-xil turlarida matematik mazmundagi bilim va ko‘nikmalaridan qanday foydalishlariga katta ahamiyat beriladi. Ta‘limiy faoliyatlarda va kundalik hayotda didaktik o‘yinlardan hamda o‘yin-mashqlardan keng foydlaniladi. Ta‘limiy faoliyatlardan tashqari vaqtlarda o‘yinlar tashkil qilib, bolalarning matematik tasavvurlari mustahkamlanadi, chuqurlashtiriladi va kengaytiriladi. Bir qancha hollarda, masalan, joyni bilish

ko'nikmasini rivojlantirish yuzasidan olib boriladigan ishlarda o'yinlar asosiy o'quv vazifasini utaydi. Ta'limiy faoliyatlarda bolalarning faol faoliyati birinchi navbatda yangi material ustida ishlashni hamda ilgari o'tilgan materialni takrorlashni birga to'g'ri qo'shib olib borish bilan ish turlarini va uni tashkil etish usullarini almashtirib turish bilan, ya'ni ta'limiy faoliyat tuzilmasi bilan ta'minlanadi.

Ta'limiy faoliyat tuzilmasi dastur vazifalarining hajmi, mazmuni, birga qo'shib olib borilishi, tegishli bilim va ko'nikmalarning o'zlashtirilishi darajasi, bolalarning yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Maktabga borish davriga kelib bolalar to'plam va son, shakl va kattalik haqida o'zaro bog'langan bilimlarni nisbatan ko'proq egallagan, fazoda va vaqtini mo'ljal ola bilishni o'rgangan bo'lishlari zarur. Tajriba, birinchi sinf o'quvchilarida uchraydigan qiyinchilik, odatda abstrakt bilimlarni egallab olish, konkret predmetlar, ularning obrazlari bilan amal qilishdan, sonlar va boshqa abstrakt tushunchalar bilan bajariladigan amallarga o'tish zarurligini ko'rsatadi. Bunday o'tish bolaning rivojlangan aqliy faoliyatini talab etadi. Bolalar turli matematik bog'lanishli munosabatlarni aniqlash usullarini, masalan, to'plam elementlari o'rtaсидаги moslikni aniqlash usullarini egallaydilar (to'plamdagи elementlarni birma-bir amalda solishtiradilar, kattalik nisbatlarini aniqlash uchun ularni ustma-ust, yonma-yon qo'yib ko'rish usullaridan foydalanadilar). Ular miqdor nisbatlarini aniqlashda eng aniq usul predmetlarni sanash va kattaliklarni o'lhash ekanligini tushuna boshlaydilar. Sanash va o'lhash malakalari ularda tobora mustahkam va ongli bo'lib boradi. Har qaysi yosh guruhi dasturi ushbu bo'limlardan iborat:

- Miqdor va sanoq.
- Kattalik.
- Geometrik figuralar.
- Fazoda mo'ljal olish.
- Vaqt bo'yicha orientir (mo'ljal) olish.

O'quv yilining oxirida katta guruh bolalari quyidagilarni bilishlari kerak:

- narsalarni 10 tagacha sanay olish;
- sanoq va tartib sonlardan to'g'ri foydalanish;
- 10 tagacha bo'lgan sonlarni yonma-yon turganlarini (ko'rgazma asosida) taqqoslaysi olish;
- teng bo'Imagan 2 guruh narsalar sonini ikki usul bilan tenglashtira olish (1ta arsa kushish yoki ayirish usuli bilan);
- 0 dan 9 gacha bo'lgan raqamlarning nomi va farqi;
- turli miqdordagi 10 tagacha bo'lgan narsalarni eni, bo'yi, balandligi,

qalnligi, o'lchami va ular orasidagi munosabatlarni hisobga olgan holda ortib borishi yoki kamayib borishi tartibida joylashtirib taqqoslash;

- narsalar shaklini: doiraviy, uchrubchak, to'g'ri to'rtburchakli, kvadrat, to'rburchakli, oval ko'rinishdagilarini farqlash;

- qog'oz varag'ida yo'naliishlarini farqlash;

- narsalarning o'ziga yoki boshqa narsalarga nisbatan joylashish vaziyati, yo'naliishini so'z bilan ifodalash;

- hafta kunlari ketma-ketligi, sutka qismlari nomlari kabilari.

Bo'lajak fuqaro shaxsining har tomonlama kamol toptirilishining asoslari bola hayotining dastlabki yillarida, mактабгача bolalikda qо'yiladi. So`nggi yillarning psixologik-pedagogik tadqiqotlari bolada idrok qilinadigan obyektlar xususiyatlarining analizi va sintezining, kuzatiladigan hodisalarни taqqoslash va umumlashtirishlarning, eng sodda bog'lanishlar va ular orasidagi munosabatlarni tushunmoqning yetarlicha murakkab shakllari tarkib topishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari dasturida nazarda tutilganidek, matematik tayyorgarlikda bolalarni sanoqqa o'rgatish, birinchi o'nlik uchida miqdoriy munosabatlarni rivojlantirish, eng sodda arifmetik masalalarni yechish va tuzish bilan bir qatorda namoyon qilingan to'plamlar ustida amallar bajarishga, shartli ulchovlar bilan o'lhashlar o'tkazishga, sochiluvchi va suyuq jismarning hajmini aniqlashga bolalarning ko'z bilan chandalash malakalarini rivojlantirishga ularning geometric figuralar va predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga, fazoviy munosabatlarni tushunishlarini, predmetlarni teng qismlarga bo'lish malakalarini shakllantirishga katta ahamiyat beriladi. Masalalarning bunday kompleksi matematik rivojlantirishning dasturi bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalarning miqdoriy va boshqa munosabatlarni chuqurroq tushunishlarini ta'minlaydi va matematik tafakkurning, nutqning istiqbolda takomillashuviga asos soladi. Bularning hammasi bolalarning aqliy rivojlanishlariga va ularni mактабда o'qishlariga muvaffaqiyatli tayyorlashga imkon beradi.

Bolalarni mehnat malaka ko'nikmalarini shakllantirish orqali maktabga tayyorlash. 5-7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga zo'r qiziqishi biror mehnat jarayoninida kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarish ishtiyoqini namoyon qiladilar. Ularning faoliyatları kichik mактаб yoshidlagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan, e'tiborlari hamda maqsadga qaratilgandir. Bolalarda mehnat malakaları mehnat qilish odatini shakllantirish har bir ishni oxiriga etkazish ko'nikmasini tarbiyalash pedagogik jarayonini to'g'ri tashkil etib quyidagi qoidalarga rioya qilingandagina:

1. Katta guruhlarga o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatish mehnati xo‘jalik turmush mehnati tabiatdagи mehnat, shuningdek qo‘l mehnatini tashkil etish.

2. Kun tartibiga ko‘ra «Maktabgacha ta’lim dasturi» asosida mehnat uchun nazarda tutilgan vaqtдан to‘liq foydalanish. Bolalarni har xil sport turlariga muntazam jalb qilish.

3. Mehnatning har xil turlari tashkil etilar ekan, bolalar faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish.

4. Bolalar mehnatiga rahbarlik metod va usullarini ta’lim tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash.

5. Xilma-xil mehnat turlarini tashkil etishda ularning bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona biriktirish orqaligina amalga oshirish mumkin. Har kuni kun tartibida guruhdagi barcha bolalar uchun va har bir bola uchun yakka mehnatni nazarda tutish kerak. Bolalar to‘g‘ri tashkil etilgan mehnatdan katta quvonch his qiladilar.

Katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning kun tartibida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish mehnati sezilarli o‘rin egallaydi. Tarbiyachilar mustaqil yuvinish, kiyinish ko‘nikmasini shakllantirishni davom ettiradilar. Ular bolalardan yuvinish, yechinish, ovqatlanish tartibini aniq bilishni ularni o‘z vaqtida va aniq bajarilishlarini talab qiladilar. Tarbiyachi bu shakllangan ko‘nikmalardan bolalarning o‘z aro yordamlarini tashkil etish va axloqiy me’yorlarni tarbiyalashda foydalaniladi. O‘z-o‘ziga xizmatni yaxshi tashkil etish shartlaridan biri kun tartibi jarayonini izchil va bosqichma-bosqich o‘tkazish va bunda barcha bolalarning ishtirok etishidi, bolalar o‘zlariga qo‘yilayotgan talablarni tushunishlari va o‘z burchini muntazam tarzda bajarishlari kerak. Katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning o‘ziga o‘zi xizmatlari tashkil etishda guruh tarbiyachisi bolalardagi malakalarni hisobga olib shunga muvofiq harakat usullarini eslatadi hamda shu orqali ularning e’tiborini jalb qiladi. Tarbiyachi, shuningdek, bolalarning o‘ziga o‘zi xizmat ko‘rsatishiga doir ish sifatlarini hisobga olib boradi, uni baholaydi, nima yaxshi chiqayotgan bo`lsa tahlil qiladi. Katta va tayyorlov guruhida muhim vazifa nonushtagacha tayyorlanish, nonushtadan so‘ng, shuningdek, tushlik va kech tushki ovqatga tayyorlanish vaqtida navbatchilar ishini aniq tashkil etishdan iborat. Navbatchilik qilish ko‘nikmasini shakllantirish ishi davom ettiriladi, chunki navbatchilikning vazifalari kengayib boradi. Navbatchilikni tayinlashda bu ishda tajribaga ega bo‘lganlar qatori yangi bolalarni tayinlash ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Yil boshida tarbiyachi navbatchilarni o‘z vazifalari bilan tanishtiradi, zaruriyat bo‘lganda ayrim harakatlarni ko‘rsatadi. Topshirilgan ish uchun jamoa oldidagi mas’uliyatini ta’kidlaydi (o‘z vaqtida kelish, harakatlar izchilligi, hamma narsani bolalar o‘zlarini tayyorlash, asbob anjomlardan to‘g‘ri foydalanish shu kabilar). Shuningdek navbatchilar ta’limiy faoliyatga kerakli asbob

anjomlarni o‘quv materiallarini ta’limiy faoliyat o‘tish uchun tayyorlab qo‘yishlari kerak. Bola mustaqil faoliyatga tayyorlana turib ta’limiy faoliyatga kerakli bo‘lgan qalam, idishda suv, latta va mo‘yqalam tayyorlashi ta’limiy faoliyat tugashi bilan ularni joy-joyiga qo‘yib ish o‘rnini tozalab olishi, qurish-yasash o‘yinini o‘ynab bo‘lgandan so‘ng ularni detallaridan ajratib olib idishga solish va o‘z o‘rniga olib borib qo‘yish, tarbiyachi bolalar mehnat qilayotganlarida ularni batartibligi yoki ehtiyyotkorligini tartibsizlikka e’tibor beryaptilarmi yoki befarq qilyaptilarmi, shularni hammasini diqqat bilan kuzatib boradi. Navbatchilarning tabiat burchagidagi mehnati ham har kuni tashkil etiladi. Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik, g‘amxo‘rlik munosabatlari shakllantiriladi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan ma’suliyatni his etib yondashishini tarbiyalaydi. Bolalar o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar, uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan ma’suliyatini tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarini egallab olgan bo‘lishlari o‘z mehnatlarining ahamiyatini tushunishlari lozim. Tabiatdagi mehnat maktabgacha yoshdagি bolalarning sensor tarbiyasi uchun qulay sharoitlar yaratadi. Mehnat jarayonida bolalar o‘simliklar holati, ularni yorug‘likka, namlikka, issiqlikka yaxshi tuproqqa bo‘lgan ehtiyojlarini qondirilishiga bog‘liq ekanligini anglab ladilar. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o‘sirishining usullaridan biridir. Tabiatdagi mehnat jarayonida tarbiyaviy vazifalardan tashqari ta’limiy vazifalar ham hal qilinadi. Tabiat burchagida bo‘ladigan navbatchilik ertalab baliqchalarni boqadilar, gullarga suv quyadilar, yerkarni yumshatadilar, qushlar qafaslarini tozalashda yordam beradilar. Vaqtı-vaqtida ko‘chat o‘tqazishda ham yordam beradilar.

Tarbiyachi va bolalar navbatchilar ishini nazorat qiladilar hamda uni baholaydilar. Katta maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar mehnati orasida alohida o‘rinni guruh xonalarida doimo tozalik va tartibni saqlash ishi egallashi lozim. Tarbiyachi bolalardan qaysi biridir kiyinishini shkafga tartibli kuymaganligini ko‘rib, masalan: shapka qayerda turishi kerakligini yoki koftochkasining yengi nima uchun chiqarilmaganligini so‘raydi. Vaqtı-vaqtida (odatda haftaga bir) bolalar tarbiyachi topshirig‘iga ko‘ra qo‘llanma va o‘yinchoqlarni ajratadilar, yuvadilar, guruh xonasini umumiy yigishtirishda qatnashadilar. Xo‘jalik turmush mehnati yaxshi tashkil etishda bolalarning yonma-yon ishlab umumiy natijasini tasavvur qilishlari muhimdir. Ba’zan umumiy ishni bajarish uchun tarbiyachi vazifani bolalar o‘rtasida har bir bolaning tajribasiga ko‘ra taqsimlaydi va u ishni oxirigacha bajaradi. Mehnat vazifalarini uyuştirishda tashabbus va mustaqillikni namoyon qilganlarni rag‘batlantiriladi. Tayyorlov guruhida tarbiyachi bolalar mehnatini tashkil etishning yana bir ko‘rinishi hamkorlikdagi mehnatdan

foydalaniлади. Bu holatda bolalardan bittasi ishining oz qismini bajaradi, ikkinchisi uni davom ettiradi. Ko‘pincha qo‘l mehnati ta‘limiy faoliyatlariga barcha bolalar uchun bir vaqt ajratiladi. O‘yinchoqlar qog‘oz, tabiiy materiallarni bolalar butun guruh bo‘lib yoki kichik guruhlarga bo‘linib bajaradilar. Bu maqsadda alohida joy jihozlanib, u erga material va asboblar joylashtriladi. Qo‘l mehnatini bajarishda bola natijaga erishadigan narsa bu buyum vujudga keladi bolalar yopishtirish, bo‘yash, tikish, qirqish va shunga o‘xhash oddiy mehnat malaka ko‘nikmalarini egallab oladilar. Yilning issiq vaqtlaridagi sayrlarda yerni chopish va yumshatish, o‘toq qilish, hosilni yig‘ishtirish bo‘yicha birgalikdagi ish tashkil etiladi. Bu holatda mehnatni tashkil etishning asosiy shakli guruh (3-4 bola) bo‘lib bajariladigan davomli topshiriqlar bo‘ladi. Mehnat faoliyati har xil mehnat jarayonlaridan tashkil topgan har xil mehnat turlarining umumlashtiruvchi keng tushunchasidir. Mehnat jarayonini mehnat faoliyatining o‘ziga xos bir Bo‘lagi bo‘lib uning tarkibida esa mehnat faoliyatining hamma tarkibiy qismlari mehnatning maqsadi. Material va mehnat qurollari biron natijani yuzaga keltirish maqsadiga erishishi uchun sarf qilingan barcha mehnat harajatlari, mehnat sabablari va mehnat mahsuli yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mehnat faoliyatini egallah bu, birinchi navbatda, mehnat jarayonining uning tarkibiy qismlari bilan birgalikda egallab olishdir. Shunga qarab bolalarning mehnat tarbiyasi vazifalari belgilanadi va ular quyidagilardan iboratdir.

1. Bolalarni bo‘lajak mehnat faoliyati oldidan maqsad qo‘yishga o‘rgatish.
2. Mehnat jarayonini, mehnat faoliyatini eng oddiy rejalab olishga o‘rgatish.
3. O‘z ish joyini tayyorlab olishga o‘rgatish.
4. Mehnat malaka va ko‘nikmalarini o‘rgatish.
5. Bajarilgan mehnatning natijasi, sifati va ahamiyati qancha vaqt bajarilganligiga qarab o‘zining va boshqalarning ishini to‘g‘ri baholashga o‘rgatish.
6. Mehnat faoliyati sabablarini shakllantirish.
7. Jamoa mehnat faoliyatini vaqtida bolalarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish.

Shunday qilib, bolalar mehnatini to‘g‘ri tashkil etish har bir bolani har xil mehnat turlariga muntazam jalb qilishni nazarda tutadi. Bunda ishning jamoa va yakka tartibdagi shakllaridan foydalaniлади. Ish hajmi nazarda tutiladi. Uskunalar to‘g‘ri tanlanadi.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tabiat bilan tanishtirish mazmuni. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida xilma-xil metodlar: ko‘rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm va kinofilmarni namoyish qilish), amaliy (o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar), og‘zaki (tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbat) metodlaridan va

xilma-xil formalardan: ta`limiy faoliyatlardan, ekskursiyalardan, kundalik hayotga mehnatdan, kuzatishlardan, yer maydonchasi va tabiat burchagidan o'yinlardan foydalaniladi.

Natijada bolalarda bilimlarni egallah malaka va ko'nikmalarni hosil qilish qobiliyatlarini o'stirish ilmiy dunyoqarashlarni axloqiy sifatlarini xulq-atvorlarini shakllantirishga erishiladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlaridan *ko'rgazmali metodlar*:

Kuzatishlar. Kuzatish atrof olam predmetlari va hodisalarini maqsadga muvofiq rejali idrok etishdir. Kuzatish murakkab bilim faoliyati bo'lib unda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi. Barqaror diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi va malakalri muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Tabiatni bolalar bilan birligida kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyani bir qator vazifalarni hal etadi: bolalarda tabiat haqida bilimni shakllantiradi. Kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchanlikni o'stiradi, estetik jihatdan tarbiyalaydi. Predmet va hodisalarning xususiyati hamda sifatlari haqidagi bilimni shakllantirish maqsadida tashkil etiladigan qisqa muddatli kuzatuvlar jarayonida bolalar qismalarning shakli, rangi, kattaligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, satxining harakatini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat xarakteri ular chiqaradigan tovushlarni ham o'rganadilar va hokazo. O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamgarilishi uchun kuzatishning ancha murakkab turi uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. bunda bolalarga obyektning kuzatilayotgan holatini ilgarigi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi o'sadi. Analiz qilish, qiyoslash, xulosa chiqarish jarayoni takomillashadi. Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan ob-havo bilan kattalarning tabiatdagи mehnati bilan tanishtirishda tashkil etiladi. Kuzatishlar ta`limiy faoliyat va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida va shu kabi joylarda olib boriladi. Tarqatma materiallardan foydalanib kuzatish: bu kuzatishlar o'rta guruhdan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish bir obyektni kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroqdir. Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning qismlari: bargi, mevasi, va urugi, shoxlari, sabzavot va mevalardan foydalanish mumkin. Rasmlarni ko'rish, kinofilmlar va diafilmlarni namoyish etish. Bu metodlardan foydalanish xilma-xil vazifalarni hal qilishga: tasavvurlarni aniqlash va konkretlashtirish bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish estetik idrokni tarkib toptirishga yordam beradi.

Rasmlarni ko'rish: rasmlar tabiat hodisalarini batafsilroq kurish, diqqatni uzoq muddat shularga qaratish imkonini beradi, buni esa ko'pincha tabiatni bevosita kuzatishda tabiatning dinamikligi hamda o'zgaruvchanligi tufayli amalga

oshirishning imkonи bo'lmaydi. Bundan tashqari ko'pgina hodisalarni bevosita kuzatish mumkin emas. Masalan, yovvoyi hayvonlar, janubiy va shimoliy o'lkalarining hayvonlari bilan bolalarni asosan rasmlar orqali tanishtirish mumkin. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik syujetli predmetli, shuningdek, badiiy rasmlardan foydalaniladi. Didaktik syujetli va predmetli rasmlar – bolalarni o'qitishda ko'rgazmali vosita sifatida maxsus yaratilgandir «Yilning to'rt fasli», «Uy hayvonlari», «Yovvoyi hayvonlar», «O'tsimon o'simliklar» va shu kabi rasmlar seriyasi shular jumlasidandir. Bulardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Badiiy rasmlarni faqat maktabgacha katta yoshdagи bolalar bilan ko'rish maqsadga muvofigdir. O'quv ekrani maktabgacha taqlim tashkilotida bolalarni tabiat bilan tanishtirishda diafilmalar, kinofilmlar va telefilmlardan foydalaniladi. O'quv ekrani bolalarda tabiat hodisalarining dinamikasi: o'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi kattalarning mehnati haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Qisqa muddat ichida uzoq vaqt bo'lib o'tgan hodisalarni ko'rsatish imkonini beradi. Bu esa bilimlarni yanada muvaffaqiyatliroq egallashga yordam beradi. Syujetli diafilmalar, kinofilmlar va telefilmlar syujetining qiziqarliligi bilan bolalarda alohida qiziqish uyg'otadi. Bu bilimlarning faol idrok etishga yordam beradi. Ekrandagi hodisalarga alohida munosabat uyg'otadi. Syujetli diafilm kinofilm va telefilmlardan turli maqsadlarda bilimlarni konspektlashtirish, u yoki bu hodisani xarakterlovchi muhimroq xususiyatlarni ajratib ko'rsatish, bilimlarni kengaytirish tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bulishni shakllantirish maqsadlarida foydalaniladi.

Amaliy metodlar.

O'yin. Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda didaktik xarakterli va ijodiy o'yinlardan foydalaniladi.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, musitahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda klassifikatsiya qilishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar, xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi. Bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlardan foydalanishga o'rgatadi. Turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi. Lug'atni boyitadi. Bolalarda birligida o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi. O'yin mashqlari predmet va hodisalarni sifati hamda xususiyatlariga ko'ra farqlashga o'rgatadi. Kuzatuvchanlikni o'stiradi. Bu o'yinlar

butun guruh bolalari bilan yoki ularning bir qismi bilan o'tkaziladi. O'yin mashqlari kichik va o'rtalarda alohida ahamiyatga ega. Katta guruhlarga esa u ta'limiy faoliyatning bir qismi hisoblanadi.

Harakatli o'yinlar. Tabiatshunoslik xarakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq. Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga tovushlarga taqlid qilib bilimlarni chuqurroq egallaydilar. O'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtiradi.

Ijodiy o'yinlar. O'yinda bolalar ta'limiy faoliyat, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan tasavvurlarni aks ettiradilar. Kattalarning tabiatdagagi mehnati haqidagi bilimni egallaydilar. Bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi. Ular kattalarning tabiatdagagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar. Tabiatdagagi mehnat. Bolalar mehnat obektlari o'simliklarning xususiyatlari va sifatlari ularning tuzilishi ehtiyojlari rivojlanishining asosiy bosqichlari o'stirish usullari o'simliklar hayotidagi mavsumiy o'zgarishlar haqida hayvonlar, ularning tashki ko'rinishi ehtiyojlari, harakat qilish usullari, xatti-harakatlari, hayot tarzları va uning mavsumiy o'zgarishlari haqida tasavvurga ega bo'ladilar. Ular yashash muhiti o'rtasida mutanosiblik o'rnatishni hayvonning tabiatdagagi hayot tarzi va ularni tabiat burchagida parvarish qilishni o'rganadilar. Mehnatni tashkil etish shakllari va ularga rahbarlik qilish metodikasi maktabgacha ta'lim davomida murakkablashib boradi. Murakkablashish bolaning yosh imkoniyatlari, shuningdek, mehnat faoliyatining o'sishi tufayli aniqlanadi.

Og'zaki metodlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan suhbatdan foydalilanildi. Og'zaki metodlarda foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqini tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini uzoq muddatli ixtiyoriy diqqatlarini va so'z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni qarata olishlarini, shuningdek, bolalarda muhokama, aniqlash, tizimlashtirish predmeti bo'luvchi u yoki bu hodisa yoki fakt haqida yorqin tasavvurlarning bor-yo'qligini e'tiborga oladi.

Tarbiyachining hikoyasi. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalar nutqini eshitishi va tinglay olishi hikoya davomida uni anglab olishi og'zaki tasvir asosida yetralicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi hikoyasidagi voqealarni bir biriga bog'liqligi hamda munosabatlarini aniqlash hamda tushunishi hikoya mazmunidagi yanglishlikni o'zining avvalgi bilim bilan qiyoslab ko'rishi lozim.

Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga – oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: birovlar kuzatiladigan obektlarni tor doirada

kuzatgandan so'ng, boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovlari hodisalarning keng doirasini qamrovchilarni – bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini tizimlashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Badiiy adabiyotni o'qish. O'z mazmuniga ko'ra ilmiy bo'lgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtida san'atning bir turidir. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilish huquqini, kuzatuvchanlikni, bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy meterial beradi.

Ta'limi faoliyat. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ta'limi faoliyatları bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda o'rabi turgan tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda izchil shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tadigan ta'limi faoliyat larda guruhning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq elementar bilimlar shakllanadi. Asosiy bilim protseslari va bolalarning qobiliyatları ma'lum tizim hamda izchillikda o'stiriladi. Kundalik hayotda kuzatish, o'yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yigilib boriladi. Ta'limi faoliyatlar ularni aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Ta'limi faoliyatning ta'limi vazifasi. Bu bolalarga ta'limi faoliyatlarda berilish yoki aniqlanishi hamda konkretlashtirilishi lozim bo'lgan bilim hajmidir. Bunga yana bolalarning tabiatni bilishga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishni ko'shish mumkin. Ta'limi faoliyatda hal etiladigan tarbiyali vazifalar. Tabiatga ijobiy ehtiyojkorona, g'amxo'rona munosabatni shakllantirish. Tabiatga estetik munosabatni o'stirishga yo'naladi. Ta'limi faoliyatga tayyorlanish hamda uni o'tkazishda ta'limi faoliyatning tuzilishi metodini to'g'ri aniqlash muhimdir. Metodni tanlash ta'limi faoliyatning vazifalar xarakteri, tabiiy obyektning xususiyatlari, hamda bolalarning yoshiga bog'liqdir. Ta'limi faoliyat davomida topshiriqni bajarishga barcha bolalarni jalb qilish muhimdir. Ta'limi faoliyat oxirida qoidaga binoan tarbiyachi bolalarni malaka va ko'nikmalarini ularning ta'limi faoliyatga munosabatlarini, qiziqishlarni pedagogik jihatdan baholaydi. Baholarning differensiyalashuvi bolalarning yoshiga bog'liq bo'ladi.

Ekskursiyalar. Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ta'limi faoliyatlar turidan biridir. Ekskursiyalar vaqtida bola tabiat hodisalarini mavsumiy o'zgarishlarni tabiiy sharoitda kuzatish insonning hayot talablariga muvofiq tabiatni qanday o'zgarayotganini va tabiat kishilarga qanday xizmat qilayotganini ko'rish mumkin. Ekskursiya faoliyatlarining afzalligi yana shundaki, unda bolalar o'simlik va hayvonlar, ular yashaydigan muhitni ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ekskursiyalar tufayli bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni o'zgarishiga qiziqish o'sadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning xarakterini xususiyatlarini qayd qilishga odatlanadilar.

Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi. Estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda yana tabiatga muhabbat, unga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantiriladi.

Ekskursiyalarни уюштириш. Ekskursiyadan ta'limiy faoliyat turi sifatida o'rta, katta, hamda tayyorlov guruhlarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bo'lgan dastur mazmuni belgilanadi.

Kundalik hayotdagi ish. Ta'limiy faoliyat va ekaskursiyalardagi kuzatishlarni kundalik hayotdagi, shuningdek, boshqa shakllari bilan uzviy aloqada olib boriladi.

Sayrlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish uchun sayrlardan keng foydalaniladi. Sayrlar vaqtida tarbiyachi bolalar tasavvurining shakllanishi uchun o'zok muddat talab qilinadigan tabiat hodisalarini bilan tanishtirish imkoniga ega bo'ladi. Bolalarni qorning erishi, kurtaklarning bo'rtishi, maysaning paydo bo'lishi va shu kabilar bilan tanishtiriladi. Sayrlarda tabiiy materiallar kum, loy, suv, muz, barg, va shu kabilar bilan xilma-xil o'yinlarni tashkil etish mumkin. Maktabgacha yoshdagи bolalarda sezgi tajribasi yig'ladi, ular tabiat hodisalarini barcha aloqa va munosabatlarda tabiiy sharoitlarda ko'radilar. Sayrlar bolalarda qiziqish uyg'otadi, ularga katta quvonch, tabiat bilan munosabatda bulish esa lazzat baxsh etadi. Maktabgacha yoshdagи bolani tabiat bilan tanishtirish orqali bolaning har tomonlama bilimlarini egallashi psixik jarayonlarning rivojlanishi, qobiliyatlarini o'sishi, ilmiy dunyoqarashini shakllanishi, axloqiy sifatlarni, ijobiy xulq odatlarini o'zlashtirilishi estetik hissiyotlarni rivojlanishiga erishishda yordam beradi. Tabiatning go'zalligi bolalarda chuqur hissiyotlar uyg'otadi, o'chmas taassurot qoldiradi, estetik hissiyotlarning o'sishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabiatga muhabbat, unga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lish, vatanga muhabbat shakllantirib, tabiatni o'rganishga qiziqish (jonli va jonsiz tabiatga) o'sadi.

Tasviriy faoliyat ta'limiy faoliyatlarini orqali bolalarni maktabga tayyorlash. Tasviriy faoliyat bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkiloti dasturi va maktabda tasviriy san'at dasturi bolalarda tevarak-atrofga nisbatan, san'at bolalarda estetik munosabatni tarbiyalash ijodiy qobiliyat va tasvirlashlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti mashg'ulotlarida, maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun zarur bo'lgan vazifalar hal etiladi. Rasm, applikatsiya, loy ishlari jarayonida bolalarda fikr yuritishning analiz, sintez, takrorlash, konkretlashtirish kabilar shakllanadi. Shuningdek, bu jarayonlarda bolalar jamoada ishlashga, o'z harakatini o'rtoqlarining harakatiga bo'ysindirishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat ta'limiy

faoliyatlari bolalarda, o'quv faoliyatida zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarini shakllantiradi. Bular: topshiriqni tinglash va yodda tutish malum vaqt orasida bajarish o'z ishini rejalashtirish va baholashga, boshlangan ishni oxiriga etkazishga, xato va kamchiliklarini topishga va uni tuzatishga material qurollarini va ish joyini tartibli saqlash va boshqalar. Pedagoglarning olib borgan tekshirishlari shuni ko'rsatadiki mактабгача та'lim tashkilotida та'lim-tarbiyaning bunday tizimi bolalarni maktabga tayyorlashga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, boshqa psixologlar E.A. Labunskiy va boshqalar tomonidan maktab o'quvchilarining tasvirlash faoliyatini o'рганиш jarayonlari shuni ko'rsatib o'tadi, mактабда tasviriy san'at darslarini tuzilishi, bolalarning MTTda olgan bilim, malaka va ko'nikmalar asosida ularni hisobga olgan holda tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat ta'limiy faoliyatlarida bolalar, asosan, amaliy ish bajaradilar, sa'nat asarlari bilan rasmga qarab hikoya qilish, kitobdag'i ilyustratsiyalarni ko'rib chiqish jarayonida tanishadilar, mактабда tasviriy san'atning turlari rang tasvir, grafik, haykaltaroshlik va dekorativ san'at asarlar bilan yanada chuqurroq tanishadilar maktabgacha ta'lim tashkilotida tasviriy faoliyat ta'limiy faoliyatlarini xilma-xildir, rasm,mazmunli dekorativ va loy applikatsiya ta'limiy faoliyatlar. Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'limiy faoliyatlarning hammasiga katta ahamiyat beriladi. Maktabda esa tasviriy san'at darslarining rasm (naturaga qarab) mavzu asosida va dekorativ turlari o'tkaziladi. Bunda predmetli rasm bo'yicha naturaga qarab rasm chizish o'quv predmeti ahamiyatiga ega bo'ladi. Loy applikatsiya, qurish-yasash bo'yicha amaliy ishlar mактабда ishlar qo'l mehnatiga kiritiladi. Boshlang'ich sinf tasviriy san'at dasturini analizi, ishni ko'rsatadiki, predmetli,rasm bo'yicha o'quv vazifalarini ancha murakablik kiritilishdan tashqari MTT dasturi bo'yicha ayrim takrorlash ishlari kiritildi. 1-sinfda bolalar doira, kvadrat, turtburchak, oval kabi tuzilishga ega bo'lgan predmetlarni aniqlashga o'рганадilar, bolalar oldiga MTTda qo'yilgan vazifa rasm chizish texnikasini egallash bo'yicha qo'yiladi. Bunga sabab, hamma bolalar MTTdan maktabga kelmaydilar va shu sababli bolalar bilan ishni maktabga kelguncha tayyorlov guruhda olgan bilimlardan boshlash lozim. Mavzu asosida rasm chizish MTTda o'tkaziladigan mazmunli rasmni davomi sifatida o'tkaziladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hodisa va predmetlarni kuzatib, ko'rib chiqadilar, so'ng xotiralariga asoslanib, ularni chizadilar. O'quvchilar obyektlar o'rtasidagi mazmunli bog'lanishlarni tasvirlashga uzoqdagi predmetlarni kichiklashtirib tasvirlaydilar. Dekorativ rasm mактабда texnik tartiblar bo'yicha vazifalar qo'yiladi, ya'ni naqsh tuzilishi ketma-ketligida tasvirlash bilan birgalikda yordamchi chiziqlardan foydalanish va o'z ishlarda xalq amaliy dekorativ san'at elementlaridan foydalanishga san'at haqida o'tkaziladigan dars suhbat jarayonida o'рганадilar. Bolalarni tasviriy sanatga o'rgatish metodlaridan bolalarni

xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish lozim. Katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar va kichik o'quvchilarining ish xususiyatlari o'rtasida ko'p yaqinlik bor. Shuning uchun u yoki bularni o'rgatish metodikasi o'rtasida ham ko'p o'xshashlik bor. Maktabda o'qituvchining rasmini ba'zi bir elementini ko'rsatish va shu jarayonda tushuntirish tarbiyachining ish usullarini ko'rsatib berishga yaqin turadi. Maktabda ishning ketma-ketligi tartibli ko'rinishda bo'ladi Agar tasvirlanadigan predmetning tuzilishi sodda bo'lsa, tartib tushintirilgandan so'ng, o'chirib tashlanadi. Agarda murakkab tuzilishga ega bo'lgan predmetni tasvirlanganda esa, o'qituvchining doskada ko'rsatib berishi bilan ketma-ket tasvirlaydilar. O'qituvchi predmetning umumiy konturini qalamning uchi bilan yengilgina belgilab chiqib, uning kengligini balandligini ham belgilab ko'rsatadi. So'ng o'quvchi predmetni xomaki rasmi bilan naturani solishtirib uning qismlarini, shaklini va aniqlaydi, tuzatadi. Ish jarayonida ko'rsatish va analiz qilish uchun rasmlar to'plami, bolalar kitobchalaridagi rangli rasmlar, shuningdek, o'quv xarakteriga ega bo'lgan alohida rasmlaridan foydalanadi. Rasm bo'yicha o'tkaziladigan har bir dars o'qituvchining suhbatidan va tushuntirishdan va rasmni nimadan boshlash kerakligini tushuntirishdan boshlanadi. Ishni amaliy bajarilishga o'tishda o'qituvchi bolalarining tartibli ravishda chizishi va qoida va yo'llarni eslatib turadi. Katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar va kichik mifik o'quvchilarining ishiga yoki rasmiga qo'yilgan talablar bir-biriga juda yaqin. Bolalar ishini analiz qilishda diqqatni predmet proporsiyasi, konstruksiyasi, qismlarining bog'liqligi, rang va kompozitsions tuzilishiga tortish lozim. Shunday qilib boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiya masalalarining muvaffaqiyatli hal etilishi, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotda olib boriladigan tasvirlash ta'limiy faoliyatları bilan uzviy ravishda olib boriladi. Bolalarni maktabga tayyorlash maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari katta guruhdagi kuzatishlar bo'yicha rasm chizishga katta e'tibor beriladi, chunki bu narsa bolalarni naturaga qarab rasm chizishga tayyorlashda bosqich hisoblanadi. Bu narsa bolalarda ko'rish xotirasini rivojlantiradi, ba'zida predmet bolalarda natura sifatida to'g'ri tasvirlashga yordam beradi. Bolalar guruhdagi olib boriladigan tasviriy faoliyat ta'limiy faoliyatlarida, qalamdan, mo'yqalamdan erkin foydalanishga o'z xarakterini va qo'l kuchini idora etishga o'rganadilar. Bu malakanegallash, bolalarda qo'lini yengil, erkin bir tekisdagi harakat qilish xususiyatlarini rivojlantiradi. Bolalar turli shakldagi, kattalikdagi, turli proporsiyadagi predmetlarni chizish jarayonida predmetning ish xususiyatiga qarab yo'nalishni saqlash zarurligiga, harakatini, predmetning uzunligiga mos ravishda harakatlanishga o'rganadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida olib boriladigan tasviriy faoliyat materialdan toza

va tartibli foydalanishga o'rganadilar ularni toza saqlashga faqat zaru materiallardan foydalanishga, ularni ishlatishtirishga o'rganadilar. Bu ta'limi faoliyat bolalarda diqqatni, ko'rish xotirasini rivojlantiradi. Bolalar mакtabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhida naturaga qarab rasm chizish yoki tasvirlashga nisbatan talablar oshadi va bu talablar mакtab talabiga yaqinlashadi. Bolalar naturani analiz qilishga butun umumiy formani xomaki qog'ozga tushirib olishga, rasmni naturaga solishtirishga, xato va kamchiliklarini to'g'rilashga, naturaga o'xshatishga urinadilar. Naturaga qarab tasvirlashda ishning ketma-ketligini ko'rsatib, bolalar mакtabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov va katta guruhida o'rganishning boshlang'ich bosqichidagina amalga oshiriladi. Ko'rsatishda doimo foydalanish, bolalarni rasmni mehanik ravishda ishlashga odatlantirib qo'yadi. Bolalar naturaga qarab tasvirlash bularning barchasi bolalarni barcha darslarda, ayniqsa, mehnat darslarida o'quv faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishiga ta'sir etadi. Bolalarni tasviriy faoliyat ta'limi faoliyatlarini geometrik shakllarni topa olish yoki ko'ra olishga, ularni terminlar bilan atashga, kengligi kattaligi, o'zunligi, balandligini, qismlarning bir-biriga nisbatan fazoviy joylashishini bilan tanishishni bolalarni mакtabni 1-sinfda elementar matematik tushunchalarini puxta egallashlariga yordam beradi. Bolalar mакtabgacha ta'lim tashkilotida kerakli materiallardan qurish-yasash bolalarda ko'z bilan chamalashni shakllantiradi va bolalarni mакtabdag'i texnik darslarni egallashga yoki o'zlashtirishga yordam beradi. Bolalar mакtabgacha ta'lim tashkilotining katta guruhidagi naturaga qarab rasm chizish mashg'ulotlarda mantiqiy fikr yuritishga, kuzatishga asosiy ajratib ko'rishga predmetni fazoviy xususiyatlarini analiz qilishga o'zları mustaqil ravishda tasvirlash vositalarini tanlashga o'rganadilar. Bularning hammasi esa mакtabda o'qish protsessida zarurdir. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali mакtabda o'qishga tayyorlanib boriladi.

Nazorat savollaari;

1. Bolalarni mакtabga tayyorlashda oila va mакtabgacha ta'lim tashkilotining o'mni qanday?

2. Bolalarni mакtabga tayyorlashda ta'limi faoliyatlarining ahamiyatini ayting.

3. Bolalarni mehnat faoliyatiga o'rgatishda nimalarga alohida ahamiyat berish kerak?

Topshiriq: Sayr vaqtida tashkl etiladigan o'yinlarni yozing va izohlang, taqdimot orqali tushuntiring.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.

2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’limi to‘g‘risida»gi Qonuni.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim- tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. Tuzuvchilar Rasulova M, Abdurahmonova X. va boshqalar. – Toshkent, 2000.
4. Bolalarni maktabga o‘qishga tayyorlash (ilmiy maqlolar to‘plami). Toshkent: O‘z PFITI, 1997.

MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI, OILA VA MAKTAB HAMKORLIGI

Tayanch tishunchalar: *onalik va bolalik, oilani mustahkamlash, bola tarbiysi, davlat va jamiyat, bolaning ijobili fazilatlari, metod, ota-onalar burchagi, kun tartibi.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan hamkorligi mazmuni. O‘zbekiston Respublikasida “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi Nizom” ga muvofiq bola maktabgacha ta’limni uyda ota-onalarning mustaqil ta’lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, shuningdek qisqa muddatli guruhlar yoki markazlarda oladi.

Bolalar tarbiyasidagi muntazamlik va izchillikning asosiy sharti oila va MTT o`rtasida muntazam aloqa o‘rnatishdir.

Bola tarbiyasida oilaning barcha a’zolaridan nafaqat bolalarga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, balki ularning takdiri uchun yuksak ma’suliyat hissini ham talab qiluvchi qiyin va murakkab ishdir. Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi samara beradi.

Ma’naviy tarbiyani bolaga o‘tmishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo‘lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, Vatan haqidagi she’r va qo‘shiqlarni yod oldirish, qadriyat va an’analaramizni o’rgatish orqali singdirish mumkin.

Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsning bir qator axloqiy jihatlari shakllanadi-ki, boshqa hech qaysi tarbiya obyekti oiladagidek yuqori natija bermaydi. Ularga insonparvarlik, mehr-muruvvat, rahm-shafqat, hamdardlik, muomala madaniyati, burch va sadoqat, minnatdorchilik kabi insoniy fazilatlar turadi.

Kelajak avlodga estetik tarbiya berishda ham oilaning muhim o‘rnii bor. Oila davrasida qo‘shiqlar kuylanishi, biror ertak yoki asarni oila davrasida o‘qish, birga spektakl va kino kurish va tahlil qilish, kiyinish madaniyatini shakllantirish, uyda

gullar parvarish qilish, rasm solish va hokazolar bolaning estetik tarbiyasini shakllantirishdagi jihatlardir.

Ota-onalar voyaga yetayotgan farzandlarining jismoniy barkamolligiga o'ta ma'suliyat bilan qarashlari lozim. Masalan: ertalabki badantarbiya mashqlarini bolalar bilan birgalikda bajarish, to'g'ri va vitaminlashtirilgan ovqat berish, dam olishni, uyquni to'g'ri tashkil etish, vaqtida shifokor nazoratidan o'tkazishlari zarur. Bola hayotida mehnat tarbiyasi muhim sanaladi. Bolalarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda mehnat qilish odobini shakllantirish va ko'nikmalar hosil qilishda, ularning qiziqishlari hisobga olingandagina erishiladi. Ota-onalar bolani mактабга таъсиридан оларни мунисабатларда яхшиларни ўзага чиқаради. Ота-onalar bolani maktabga tayyorlashda unda mehnat ko'nikma va malakalarini hosil qilishga, mehnatga ehtiyojni tarbiyalashga, boshqalarning mehnatini qadrlashga, mehnat natijalarini ehtiyyot qilishga o'rgatishga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Mehnat bolalarda uyushqoqlik, diqqat, saranjom-sarishtalikni tarbiyalash, shuningdek, maqsadga erishishda sabot va matonat kabi iroda xususiyatlарини rivojlantirish vositasidir.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni oilada tarbiyalashni, ota-onalar bilan hamkorlikni bundan keyin yanada takomilishtirish yo'llarini izlab topish oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari pedagogik omillar, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchilar va uslubchilarning muhim vazifasidir. Bolalarni tarbiyalashda davlat ahamiyatidagi vazifadir. Uning to'g'ri hal qilinishi tarbiya ishining 'qo'yilishiga kompleks yondashishga tarbiyaviy muassasalarining, oila va jamiyatichilikning to'liq o'zaro ta'siri va harakatlarning birligiga bog'liq.

Maktabgacha yoshdagи bolaning maktab ta'limiga utishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabtalarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani maktabgacha ta'lim ashkilotida yoki uyda maktab ta'limiga tayyorlash, uni uncha qiyin bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan o'tkaziladigan ta'limiy faoliyat jarayonida bolalarda mustaqil fikrlash ko'nikma va malakalari hosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik, har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish, tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rgatib boriladi. Har bir yosh guruhlarda qancha ta'limiy faoliyat o'tkazish MTT ta'lim-tarbiya dasturida belgilab qo'yilgan.

Tarbiyachi ta'limiy faoliyatlar jarayonida yangi pedagogik texnologiya materiallaridan va tarbiyaning samarali metod va usullaridan foydalana, bolaning yosh, ruhiy-fiziologik xususiyatlari inobatga olinsa, tarbiya berishning samaradorligi oshadi.

Tarbiyachi har bir bolaning imkoniyatlarini aniqlab olishi kerak, bolalar o‘zi yashayotgan jamoaga munosabatiga qarab bir necha guruhlarga bo‘linadi:

1- guruh: Ijobiy xulqli bolalar bo‘lib, ular tez do‘stlashadilar. Ularni jamoa a’zolari hurmat qiladi. Bu toifadagi bolalar jamoaning faollari bo‘lib, tarbiyachi jamoa munosabatlarini o‘rnatishda ularga suyanadi.

2- guruh: faol tashabbusga qo‘shiladi, ammo beqaror bo‘ladi.

3- guruh: tortinchoq bo‘lib o‘yinda qatnashmaydilar, ta’limiy faoliyatlarda sust bo‘ladilar. Bunday bolalarga alohida e’tibor zarur.

Tarbiyachi har bir guruh bolalari bilan individual yondashib, ularni bir-biri bilan o‘zaro munosabatga kirishib, do‘stlashishga yordam beradi.

MTTning asosiy pedagogik vazifasi – bolalarni yuksak ma’naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash va ularni mактабда o‘qishga har tomonlama tayyorlashda ota-onalarga muntazam ravishda yordam ko‘rsatishdan iborat.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimlarining eng birinchi vazifasi – MTT tarbiyalanuvchilarining ota-onalari va oilasining boshqa a’zolari ongida bola tarbiyasida oila birinchi darajali ahamiyatga egaligi va har bir oila bolalarining faollashuvida oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning birligiga erishilgandagina kutilgan natijaga olib kelishiga chuqur ishonch uyg‘otishdir. MTT ota-onalarda pedagogik bilimlar asosini yaratadi. Ularda tarbiya haqidagi fanga qiziqish uyg‘otadi. O‘z bilimlarini doimo kengaytirish istagini va unga intilish hissini uyg‘otadi.

Keyinchalik esa maktab pedagogik umumta’limiga kirishib ketish hissini uyg‘otadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiyani har tomonlama, jumladan, ma’naviy, axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyalari bирgalikda olib borilib, bola maktabga chiqariladi. Bola MTTda olgan bilimlarini mактабда davom ettirishga shundagina qynalmaydi.

Aql keng ma’noda sezish, idrok etishdan boshlanadigan tafakkur va xayolini o‘z ichiga oladigan jarayondir.

Bolalarni maktabga tayyorlashda aqliy tarbiyaning o‘rni katta. Bilimlar zahirasini kengaytirish, aqliy faoliikni va mustakillikni rivojlantirish. mактабда yaxshi o‘qish keyingi mehnat faoliyatiga tayyorlanishning muhim shartidir.

Bola 6-7 yoshdan maktabga o‘tishi, ularni maktab ta’limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlantirish yetarli bo‘lishini ta’minlash tarbiyachidan katta mas’uliyatni talab etadi.

Maktabgacha ta’lim yoshida bilim tez sur’atda rivojlanib boradi, boyib boradi. Nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Bolalarda aqliy faoliyatni dastlab muomala orqali, so‘ng ta’limiy faoliyatlar orqali amalga oshiriladi.

Tevarak-atrof, buyum va narsalar bolaning sezgi organlariga, ya’ni analizatorlariga ta’sir etadi va sezgi hosil bo’ladi. Sezgi bolalarda ayrim xossalarni bilib olishga yordam beradi (issiq-sovuq, g’adir-budir). Sezgi atrof-muhitni bilishning dastlabki bosqichi hisoblanadi.

Bolalarning bilimlarni egallab olishlari, ularning aqliy faolligini rivojlantirish ularning mакtabda muvaffaqiyatli o’qishlari uchun bo’lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishda manba bo’lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagи bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolalarda tabiat va jamiyat to‘g’risidagi bilimlar sistemasini, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

2. Bilimga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq. Bilihga doir ruhiy jarayonlarni rivojlantirish aqliy tarbiyaning muhim vazifasidir.

3. Bilihga qiziqish va aqliy qobiliyatlarni, aqliy mehnat madaniyatini rivojlantirish. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini, ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilihga qiziqish hosil qilishdan iborat.

4. Aqliy malaka va ko’nikmalarini rivojlantirish, ya’ni eng oddiy faoliyat usullari predmetlarni tekshirish, ularagi muhim va muhim bo’lmagan belgilarni ajratib ko’rsatish, boshqa predmetlar bilan taqqoslash maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir, Bu ko’nikma va malakalar bilih faoliyatining tarkibiy qismlari bo’lib, bolaning bilimlarini chuqr egallab olishga yordam beradi.

Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmay, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni hal etishga foydalanishga o’rgatish.

Oilada tarbiyani har tomonlama, jumladan mafkuraviy, axloqiy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini bирgalikda olib borish yaxshi samara beradi. Masalan: Mafkuraviy tarbiyani bolaga o’tmishimizda vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi, va farovonligi yo’lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish, davlatimizning ramziy belgilari bilan tanishtirish, mustaqillik, vatan haqidagi she’r va qo’shiqlarni yod oldirish orqali singdirish mumkin. Shuningdek farzandlarimizda Vatan himoyasiga har doim tayyorlik tuyg’usini shakllantirishdan iborat.

Ota-onalarni maktabgacha yoshdagи bolalarni maktabga tayyorlash masalasi qiziqtiradi. Bu tushunarli, chunki o’quv mehnati zo’r berishni, harakatni, qat’iylikni, natijaga erisha bilihni talab qiladi. Maktabgacha yoshdagи bola mehnatning bu yangi turiga faqat ta’limiy faoliyatlar jarayonidagina emas, balki istalgan mehnat topshiriqlarini bajarish vaqtida tayyorlanadi. MTTlarning oila bilan ishslash tizimida

aniq maqsad, mazmun bo'lishi kerak. MTtning ota-onalar bilan ishlashidan jamoa tarzida va yakkama-yakka holda ishlash shakllarini mohirlik bilan qo'shib olib borish, keng aholi ommasi orasida pedagogik tashviqot ishlarini tashkil qilish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobjiy natijalarga erishish mumkin. MTT xodimlaridan ota-onalar va oila bilan hamkorlikdagi ishlaridan eng keng tarqalgan shakl va usullarini keltiramiz.

Ota-onalar bilan vakkama-yakka ishlash. Bunda oilaga tarbiyachining borishi, ota-onalar uchun suhbat o'tkazish, ularga maslahat berish, ota-onalarni bolaning MTTdagi hayoti bilan tanishtirish kabilar kiradi.

Ota-onalar bilan jamoa tarzida tashkil qilinadigan ishlar. Bular ota-onalarning guruhiy va umumiy majlislari, ota-onalar maktabi, anjumanlar, shanbaliklar, savol-javob kechalari.

Ko'rsatmali ishlar:

- ishning bu turi ko'rgazmalar uyushtirish, bolalarning ishlarini namoyish qilish, ochiq eshiklar kuni, ota-onalar burchagi, ota-onalar uchun kutubxonalar tashkil qilish.
- bolaning oilasini borib ko'rish va oila a'zolari bilan yaqindan tanishish.
- ota-onalar pedagogik ta'lif berish va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib, bolalar maktab ta'limga tayyorgarligiga ta'sir etuvchi omillar haqida gapirar ekanmiz, maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarni oilada tarbiyaning ota-onalar bilan hamkorlikda, bundan keyin yanada takomillashtirish yo'llarini izlab topilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Oilaviy tarbiyaning ijtimoiy tarbiya bilan aloqasini mustahkamlashda maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlarining, pedagogik olimlarning, bu sohada ilmiy ish olib boruvchi tadqiqotchi va metodistlarning o'rni juda ham kattadir.

Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuniga quyidagilar kiradi:

- bola tarbiyasi, oilani mustahkamlash, onalik va bolalikni himoya qilish bo'yicha maktabgacha ta'lif tashkilotida amalga oshirilayotgan ishlarning mazmuni bilan tanishtirib borish;
- ota-onalarga o'z farzandlarining tarbiyasi uchun davlat va jamiyat oldida javobgar ekanliklarini tushuntirib borish;
- ota-onalarni bola tarbiyasi uchun zarur bo'lgan bilim, malakalardan xabardor qilish (bolalarning yosh, anatomik-fiziologik va ruhiy xususiyatlari, ularni oilada tarbiyalashning mazmuni, metodi, shart-sharoitlari bilan tanishtirish);
- bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rganish va ommalashtirish. Bola maktabgacha ta'lif tashkilotida egallagan eng yaxshi

fazilatlarni oila sharoitida davom ettirib, oilada egallagan eng yaxshi fazilatlarni esa bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotida qo'llansa, istalgan ijobiy natijalarga erishish mumkin. Tarbiyachilar oila tarbiyasiga doir tajribalaridagi ijobiy ishlarni ko'ribgina qolmay, balki uni qo'llab-quvvatlash vash u asosida ota-onalar e'tiborini bola tarbiyasida hali hal etilmagan vazifalarga qaratishlari lozim. Yuqoridaq ishlarni rejalashtirish, tashkil etish va ularga rahbarlik qilishda mudira javobgar shaxs hisoblanadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha yillik reja tuziladi. Bu reja pedagogik kengashda muhokama qilinadi. Rejada umumiy va guruhiy majlislar, ota-onalar uchun ochiq eshik kunlari, suhbat va maslahatlar, otaliq tashkilotlarida ko'rgazmalar tashkil etish va konsertlar qo'yib berish, shuningdek bu tadbirlarni o'tkazish vaqtлari va unga ma'sul bo'lgan shaxslar belgilanadi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mavzulari va mazmuni tarbiyachi, metodistning rejasida va tarbiyachining kalendar rejasida aks etadi. Ota-onalar bilan ishlash bo'yicha juda ko'p ishlarni tarbiyachi – pedagog amalga oishiradi, chunki u bola tarbiyasida yuz berayotgan o'zgarishlarni hammadan ko'proq ko'radi va bolalar hayoti bilan yaqindan tanish bo'ladi. U ota-onalarga bolalar tarbiyasida nimalarga ko'proq e'tibor berish kerakligi, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, sog'lig'ini saqlash, ovqati va kun tartibini to'g'ri tashkil etish va boshqalar sohasida tavsiyalar berib boradi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasida hamkorlik o'rnatishda mudira, pedagoglar jamoasi va ota-onalar birgalikda faol ishtirok etishlari lozim. Shundagina bola tarbiyasida kutilgan natijalarga erishish mumkin. Ota-onalar bilan ishlashda quyidagi alohida ish shakllaridan foydalaniladi: suhbatlar, maslahatlar, oilalarga borish, ayrim ota-onalarni maktabgacha ta'lim tashkilotiga taklif etish, alohida esdaliklar va ko'chma papkalardan foydalanish. Bolaning uyiga borishdan ko'zlangan maqsad – oila sharoiti, bolaning oiladagi xulqi, qiziqishlari, ota-onasi va oila a'zolari bilan tanishish, shuningdek, ota-onalarni bola tarbiyasining samarali usullari bilan tanishtirish va oilaning bola tarbiyasidagi ijobiy tajribalarni o'rganib, ommalashtirishdir. Tarbiyachi bolaning uyiga tekshiruvchi sifatida emas, balki do'st, bola tarbiyasidek murakkab ishda yordam beruvchi sifatida borishi, oila a'zolari bilan nazokat va xushmuomalalik bilan munosabatda bo'lishi kerak. Tarbiyachi har bir oilaga har gal borishidan avval o'z oldiga aniq maqsad qo'yishi, qaysi mavzuda suhbatlashishini oldindan belgilab olishi lozim. Ota-onalarga beriladigan savollar puxta o'ylangan bo'lishi kerak. Suhbat shunday tuzilishi kerakki, tarbiyachi bilan ota-onalarning fe'latvori, oilaviy munosabatlar, bolaning rivojlanish darajasi) to'g'risida ma'lum tasavvurlarga ega bo'lishi kerak. Tarbiyachi ota-onalar hurmati va ishonchini qozonmoq uchun avval ota-onalarga bolaning ijobiy

fazilatlari to‘g‘risida fikr, mulohazalarini bilib oladi va bolaning uyidagi hayotini qanday tashkil etish kerakligi, unga nimalarni o‘qib va hikoya qilib berish mumkinligi, bolaning kun tartibi, uni oila mehnatida qatnashtirish, kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash kabi ta‘lim - tarbiya ishlari mazmuni va usullari bo‘yicha tavsiyalar beradi. Albatta, tarbiyachining oila bilan olib boradigan ishida bolaning yoshi, imkoniyatlari, o‘ziga xos xususiyatlari e‘tiborga olinadi. Tarbiyachining ota-onalarga beradigan tavsiya va maslahatlarli ishonarli bo‘lishi uchun ota-onalar yoki oilaning boshqa a’zolari maktabgacha ta‘lim tashkilotiga taklif qilinadi. Bunda ota-onalar bolaning navbatchilik vazifasini qanday bajarayotganini yoki sayrga chiqishdan avval u qanday kiyinayotganini ko‘radilar va bolalarning uquv va imkoniyatlariga ishonch hosil qiladilar. Oilaga borishning maqsad va mazmuni tarbiyachining rejasи va hisobotida, kundalik daftarida aks ettirilishi kerak. Tarbiyachi har bir bolaning oilasiga yiligi kamida 2 marta borishi kerak. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo‘lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishni taqozo etadi. Masalan: bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to‘g‘risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida; maktabgacha ta‘lim tashkilotlarining yillik ish rejasи to‘g‘risida; ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir. Bu masalalarni jamoa bo‘lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiyl majlislari, maslahatlar, konferensiylar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi.

Ota-onalar majlisi. Ota-onalar majlisiga maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi hamma guruh bolalarining ota-onalari, parallel guruhlar ota-onalari va bitta guruh bolalarining ota-onalari taklif etilishi mumkin. Umumiy majlisda ota-onalarni maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish va tarbiyalash vazifalari, shu yilgi rejalar, ota-onalar qo‘mitasining faoliyati, oila tarbiyasidagi ilg‘or tajribalar bilan tanishtiriladi. Bunda majlisda mudira yoki metodist-tarbiyachi ma‘ruza qiladi, ota-onalar so‘zga chiqishadi, bolalar gapirishadi. Bular ta‘lim-tarbiya ishidagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab olishga imkon beradi, oila va jamoatchilik aloqasini mustahkamlaydi, ota-onalarning o‘z bolasining tarbiyasi uchun javobgarligini oshiradi, ularda Maktabgacha ta‘lim tashkilotiga qiziqish uyg‘onadi. Guruhdagi ota-onalar majlisida mazkur yoshdagи bolalarning ota-onalari uchun dolzarb bo‘lgan masalalar muhokama qilinadi. Masalan, umumiy majlis mavzusi «Bolalarga axloqiy tarbiya berishda oilaning roli» bo‘lsa, o‘rtal guruhdha o‘tkaziladigan majlisda bu mavzu murakkablashtirilib, «Bolalarda mehnatsevarlikni tarbiyalashda Maktabgacha ta‘lim tashkiloti va oilaning birgalikdagi ishlari», «Bolalarda kattalarga hurmatni tarbiyalash» va hokazo bo‘lishi mumkin. Ota-onalar uchun tayyorlangan ma’ruzani bolalar ishini, tegishli mavzudagi kinofilm, diapozitivlar ko‘rish bilan qo‘sib olib borish

mumkin. Bolalar hayoti, faoliyati to‘g‘risidagi misollardan foydalanganda ijobiy materiallar ko‘proq bo‘lishi kerak, salbiy faktlarni gapirishda ehtiyyotkorlik va odob doirasidan chetga chiqmaslik, tanqid qilinuvchilarining nomlari ko‘rsatilmasligi lozim. Tanqidiy mulohazalar majlisdan keyin yakka tartibdagi suhbat orqali ota-onalarga etkazilishi, bola tarbiyasidagi xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar taklif etilishi mumkin. Yilning oxirida o‘tkaziladigan guruh majlisida ota-onalarga bir yil mobaynida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya ishlari va kelgusi yilning rejalarini, haqida gapirib beriladi. Bu majlisda faol ota-onalar ham hisob beradilar va faollarning yangi tarkibi saylanadi.

Ota-onalar burchagi va ko‘rgazma tashkil etish. Ota-onalar burchagi ularni tarbiyaga oid yangiliklar va pedagogik masalalar bilan tanishtirish maqsadida tashkil etiladi. Ularga kitoblar, jurnallar, rasmlar, bolalarning ishlari, bolalar ovqatining xillari, bolaning uyidagi va oiladagi kun tartibi, ota-onalar uchun eslatmalar, e‘lonlar joylashtiriladi. Burchak vaqtiga vaqtiga bilan tarbiya vazifasiga qarab o‘zgartirib turiladi. Pedagogik bilimlarni targ‘ib qilish bo‘yicha tashkil etiladigan ko‘rgazmalar ko‘pincha ota-onalar konferensiyalari, majlislari, konsultatsiyalar oldidan tashkil etiladi. Unda Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonun va qarorlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmoqlari va undagi tarbiyalanuvchilar sonining o‘sishini ko‘rsatuvchi diagrammalar, bolalar bilan olib boriladigan ta’lim - tarbiya jarayonlari, bolalar hayotini aks ettiruvchi tasvirlar, kitob va o‘ynichoqlar, bolalarning ishlari o‘rin oladi. Ota-onalar burchagi oila bilan olib boriladigan ishning ko‘rgazmali usuli, uning did bilan bezatilishiga alohida e‘tibor berilishi kerak. Bundan tashqari, ota-onalarga tarbiya to‘g‘risidagi filmlar namoyish etiladi, bular ko‘pincha ota-onalarni qiziqtiradigan bahslar boshlanishiga sababchi bo‘ladi. Ota-onalar uchun ochiq eshiklar kunlari tashkil etilishi ham maktabgacha ta’lim tashkilotlari ishida muhim o‘rin egallaydi. Bunday kunlarda ota-onalarga bolalarning faoliyatları: mehnat, o‘yin faoliyatları, sayrlar va bolalarning jamoada ularining qanday tutushlari va shunga o‘xshashlar ko‘satiladi.

Ota-onalar qo‘mitasi. Ota-onalar qo‘mitasi «Maktabgacha ta’lim tashkilotining Ustavi»ga binoan mudiraga yordam berish uchun tuziladi. U ota-onalarning umumiyligi majlisida bir yil muddatga saylanadi. Bu qo‘mitaga har bir yosh guruh ota-onalaridan 1-2 vakil saylanadi. Qo‘mitaning asosiy vazifasi mudiraga maktabgacha ta’lim tashkilotining xo‘jalik va ta’lim-tarbiya ishlarida yordam berish, qo‘mita a’zolari, ota-onalar majlisi va kechalarni tayyorlash, o‘tkazish va boshqa ishlarda tarbiyachilarga ko‘maklashishdir. Ota-onalar qo‘mitasi bolalarning ota-onalar bilan tanishadi, bolalarni tayyorlash bo‘yicha ular bilan ish olib boradi. Qo‘mita a’zolari har ikki oyda bir marta yig‘ilish o‘tkazadi. Ota-onalar qo‘mitasi mudiraning ish rejalarini va ishning ahvoli to‘g‘risidagi ota-onalarni qiziqtiruvchi ba’zi masalalar haqidagi ma’ro‘za va hisobotni eshitishga

xaqlidir. Ota-onalar qo'mitasining faoliyati haqidagi hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotida saqlanadi.

Aholi o'rtaida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish. Pedagogik bilimlarni targ'ib etish natijasida millionlab kishilar bolalarini oilada maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyalash prinsiplarini ongli ravishda anglab oldilar. Korxonalarda, xo'jaliklarda, jamoa joylarida, mahallalarda oilada bola tarbiyasi to'g'risida ma'ro'zalar bilan chiqish, televideniya va radio eshittirishlar, pedagogik targ'ibot ishining keng vositalaridandir. Shuningdek, bu targ'ibot vaqtli matbuot: "Maktabgacha ta'lim", «Maktabgacha ta'lim», «Pedagogik ta'lim» jurnallari, ko'p sonli badiiy-pedagogik, ilmiy-ommabop va metodik adabiyotlarni chiqarish orqali ham amalga oshiriladi. Ota-onalar uchun maxsus pedagogika va ruhshunoslik, anatomiya va fiziologiya, oila tarbiyasi nazariyasi va amaliyoti to'g'risida ma'ruzalar o'qish, bolalar tarbiyasi to'g'risida kinofilm va spektakillar namoyish qilish. Bu mashg'ulotlarni har xil sohalar bo'yicha yuqori malakali o'qituvchi, aktyor, ruhshunos mutaxassislar olib boradilar. Pedagogik targ'ibot ishida quyidagilarga amal qilish kerak:

1. Pedagogik targ'ib hayot, jamiyat qurilishi amaliyoti bilan bog'lab olib borilishi lozim. Pedagogik targ'ibot orqali keng jamoatchilikka bolalarni har tomonlama tarbiyalash masalalari va ularni amalga oshirish yo'llari, ilmiy asoslangan usullari bo'yicha tushuntirish ishlari olib boriladi.

2. Oila tajribasidagi ijobiy tajribalar, oiladagi bola tarbiyasida yo'l qo'yilgan xatolar va ularni oldini olish, bartaraf etish yo'llari to'g'risida targ'ibot ishlarini olib boriladi.

3. Pedagogik targ'ibotga tayyorlashda ota-onalar har xil saviyada ekanliklari hisobga olib, ular uchun tayyorlangan axborot materiallari ishonarli, ko'rgazmali va ularning his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatadigan bo'lishi kerak. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini muntazam ravishda olib borgandagina oila tarbiyasi va ijtimoiy tarbiya o'rtaсидаги бирлиқ о'rnatalishi mumkin.

Bolalarni maktabga tayyorlashda maktab bilan hamkorlikning ahamiyati. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan maktab o'rtaida o'rnatiladigan hamkorlikning har tomonlamaligi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash vazifasini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartidir. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtaсидаги bog'liqlik bir tomonidan bolalarni maktab ta'limi talablariga javob beradigan darajada umumiy rivojlantirib va odobli qilib tarbiyalagan holda maktabga o'tkazishni, ikkinchi tomonidan, o'qituvchining katta maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning egallagan bilim, malaka sifatlariga va tajribalariga tayanib, o'quv tarbiyaviy jarayonda foydalanishni taqozo etadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va

maktab o'rtasidagi uzviy bog'liqlik katta maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalar va maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lif-tarbiya berish sharoitini yaqinlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lif tashkiloti xodimlari birinchi sinfda bolalar oldiga qo'yiladigan talablarni yaxshi bilishlari, maktabga tayyorlov guruhidagi bolalarni shunga muvofiq ravishda ta'lif olishga tayyorlashlari kerak. Maktab va maktabgacha ta'lif tashkiloti o'rtasidagi uzviy aloqa murakkab va ko'p tomonlama tuzilishga ega. Unda ta'lif-tarbiyaviy ishlarning mazmuni, metod va usullari, tashkiliy shakllari, shuningdek bolalarni tarbiyalash shart-sharoitlari va pedagogik talab kabi yetakchi tomonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bunda quyidagilarga etibor berish kerak:

1. Maktab talabi nuqtai nazaridan bolalar bilimlarni chuqurroq egallab olishlari lozim.

2. Maktabgacha ta'lif tashkiloti nuqtai nazaridan bolalarni maktab talabi darajasidagi bilim, malaka, ko'nigmalar bilan qurollantirish zarur.

3. Bolalarni maktabga ruhiy tayyorligi. Bu erda vazifa bolalar mehnatning har qanday turiga tayyor turishlari, ularda aqliy mehnat- bilishga qiziqishni o'stirish, ularni kelajakdagi mustaqil hayotga tayyorlashdan iborat. Maktab bilan maktabgacha ta'lif tashkiloti o'rtasida uzviy aloqa asosini bolalar maktabgacha ta'lif tashkiloti va maktabda amalga oshiriladigan ta'lif – tarbiya ishlari mazmunini belgilovchi dasturlar o'rtasidagi bog'liqlik tashkil etadi. Hozirgi boshlang'ich sinflar dasturi bilan maktabgacha ta'lif tashkiloti dasturini olib solishtiradigan bo'lsak, ular o'rtasida birqancha o'zaro bog'liqliknki ko'ramiz. Bu eng avvalo dasturlarda asos qilib olingan prinsiplarning umumiyligi bilan belgilanadi. Ularning mazmuni bolalarni har tomonlama tarbiyalash maqsad va vazifalariga mos kelish prinsipi, hayot bilan bog'liqlik, ilmiylik prinsiplari, ta'limning tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi xususiyatga egaligi va falsafiy, ruhiy nuqtai nazarlarning birligida namoyon bo'ladi. Birinchi sinf o'quv dasturi ayrim predmetlar bo'yicha bolalar maktabgacha ta'lif tashkiloti dasturi bilan solishtirganda ularda umumiylilik ko'pligini ko'ramiz. Masalan, bolalar maktabgacha ta'lif tashkilotida ona tiliga o'rgatish va boshlang'ich sinflardagi ona tili darsiga bolalar nuqtai har tomonlama rivojlantirish kabi umumiy g'oya asos qilib olinadi. Bolalar maktabgacha ta'lif tashkiloti bu ish bolalarning lug'atini boyitish, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga, ifodali o'qishga o'rgatish, bog'langan nutqni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Maktabda esa bolalarda mana shu maktabgacha ta'lif tashkilotida egallangan bilim, malaka, tushunchalarga asoslanib, yozma nutq malakasi, orfografiya xat malakasi shakllantiriladi, ularga morfologiya va sintaksis elementlari o'rgatiladi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'lif tashkilotida boshlangan bolalar lug'atini boyitish,

nutqning ifodaliligi, bog‘langan nutqni rivojlantirish davom ettiriladi. Bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida ham, maktabda ham tabiatshunoslik to‘g‘risidagi bilimlar organizm bilan muhitning birligi to‘g‘risidagi umumiy g‘oyaga asoslangan holda olib boriladi. Shu asosda bolalarga jonli va jonsiz tabiat, tabiat va kishilar o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘g‘risida bilim va tushunchalar beriladi.

Bolalarni maktab va maktab o‘quvchilari hayoti bilan tanishtirish. Bolang‘ich sinf o‘quvchisi va maktabgacha ta’lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachisi tayyorlov guruhi bolalarini maktab bilan tanishtirish bo‘yicha ekskursiya uyushtiradilar. Bunday ekskursiyalar yil davomida 3 marta o‘tkazilishi mumkin. Ekskursiya paytida katta va tayyorlov guruhi bolalari maktab o‘quvchilari bilan tanishadilar, ular Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalariga o‘zlarini maktabdagi o‘qishlari, ishlari to‘g‘risida gapirib beradilar; o‘quvchilar xonasini qanday bezaganliklari, tabiat burchagidagi o‘simplik va hayvonlarni qanday parvarish qilayotganliklari, ustaxonada qanday ishlarni bajarayotganliklarini ko‘rsatadalar. Ish shakli quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- sinfda «Rasmga qarab so‘zlab berish» mavzusidagi dars – mashg‘ulotni birga o‘tkazish. Sport maydonchasida yoki sport zalida maktabdagi jismoniy tarbiya mashg‘ulotini birga bajarish;
- birinchi sinf o‘quvchilari va tayyorlov guruhi bolalari ishlagan rasmlarni birligida ko‘rgazmasini tashkil etish;
- maktab ustaxonasida o‘quvchilarni mehnat mashg‘ulotini kuzatish;
- o‘quvchilar o‘zлari tayyorlagan o‘yinchoqlarni maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalariga sovg‘a qilishadi;
- maktabda o‘qiyotgan bolalar o‘z maktabgacha ta’lim tashkilotlariga kelishadi;
- «Maktab» o‘yini tashkil etish.

Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi va boshlang‘ich sinf o‘quvchisi faoliyatiga izchillik yaqqol namoyon bo‘ladi. Biri bolalarni tarbiyalash va ta’lim berishni boshlaydi, ikkinchisi davom ettiradi. Maktab bilan maktabgacha ta’lim tashkiloti o‘rtasidagi aloqa mustahkam bo‘lgandagina bola tarbiyasidan ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktab o‘rtasidagi aloqaning mazmuni va shakllari. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va maktab o‘rtasidagi aloqa ikki yo‘nalishda olib boriladi:

➤ Bolalar maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan maktabning pedagoglar jamoasi o‘rtasidagi aloqa.

➤ Maktabgacha ta’lim tashkiloti bolalari va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bir-birligida yaqinlashtirish. Tarbiyachilar boshlang‘ich sinfda olib boriladigan ta’lim-tarbiyaviy ishning mazmunini, o‘ziga xos tomonlari bilan tanishadilar,

natijada maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani maktab talabi darajasida tayyorlash istiqbollari belgilab olinadi. Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari katta va tayyorlov guruhlarida olib boriladigan ishlar mazmuni bilan tanishib boradilar va maktabda ta'lim berishda bolalar egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarga asoslanadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab pedagoglarining o'zaro aloqa o'rnatishlaridan ko'zlangan asosiy maqsad bolalarni zamon talabiga javob beradigan darajada maktab ta'limiga tayyorlash uchun o'quv tarbiyaviy ishlar bo'yicha maktab bilan maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatish, bolalarning maktabda muvaffaqiyatli o'qib ketishlari uchun bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktabda olib borilayotgan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni chuqur tahlil qilib, bu sohada yuqori natijalarga erishishdir.

Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab pedagogik tashviqot, metodik va amaliy masalalar yuzasidan bir-biri bilan aloqa bog'laydi. Pedagogik tashviqot ishlari bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti maktabga tayyorlov guruhni tarbiyachisining va bиринчи sinfda olib boriladigan ta'limtarbiyaviy ishlar vazifasi bilan tanishtirishni, maktabga tayyorlov guruhi va 1-sinf dasturi mazmunini, tayyorlov guruhi bolalari va maktabdagi 1-sinf o'quvchilarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishni taqozo etadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab o'rtasidagi uzviy aloqaning pedagogik vazifasi maktabgacha ta'lim muassasasi ning tayyorlov guruhida va maktabning 1-sinfida olib boriladigan ta'limtarbiyaviy ishlarni amalgalashishda faoliyat shakllari va usullari bilan o'zaro tanishishni taqozo etadi. Bu masalada maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhi tarbiyachilari maktabning 1-sinfida olib borilayotgan darslarni kuzatadilar va dars, ta'limiy faoliyatlardan keyin birgalikda yig'ilishib uni muhokama qiladilar, ayrim metodikalar bo'yicha seminar-praktikumlarda qatnashadilar: ilg'or tajribalar bilan o'rtoqlashish, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha yoki 1-sinfda bolalarga bilim berish bo'yicha pedagogik kengashlarni o'tkazadilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab o'rtasidagi aloqaning amaliy vazifasi, shundan iboratki, bir tomonidan, o'qituvchi maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhiha borib o'zining bo'lajak o'quvchilari bilan tanishib boradi, ikkinchi tomonidan, tayyorlov guruhi tarbiyachilari o'zlarining sobiq tarbiyalanuvchilarini bиринчи sinfda qanday o'qiyotganini o'rganib boradilar. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab o'rtasidagi uzviy aloqa samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga amal qilish lozim. maktabgacha ta'lim tashkiloti bilan mакtab o'rtasidagi aloqa izchil amalgalashishda ishlash bo'yicha tuzilgan istiqbol rejasi tashkil etib, unda o'zaro aloqaning bosh vazifasi, mazmuni, ish shakllari, vaqt, bajarish uchun javobgar

shaxslar ko'rsatilishi lozim. Maktab bilan mактабгача та'лим ташкiloti yil davomida manna shunday aloqa o'rnatib borishi natijasida ta'lim-tarbiyaviy ishlар yaxshi natija beradi. Bolalarni maktab o'quvchilariga yaqinlashtirish shakllari ham xilma-xil: mактабга ekskursiya uyuşтириш, sinf xonasiga, kutubxona, bayram ertaliklari o'tkazish va boshqalardir. Rejalar aniq, mazmunli bo'lsa va og'ishmay amalga oshirilib borilsa, birgalidagi ishlар bo'yicha istalgan natijalarga, muvaffaqiyatlarga erishish mumkin.Bu esa bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda, ularning mактабда qiyalmay o'qib ketishlarida yaxshi samara beradi

Bolalarning mактаб та'limiga psixologik tayyorlashning mazmini. Bolaning mактаб та'limiga tayyorlashda psixologik rivojlanish asosiy vazifalaridan biridir. Mактабга borish bola hayotida eng qiyin vaziyatlardan hisoblanadi. Bu hayotning yangi obraziga, faoliyatning sharoitlariga, jamiyatning yangi o'mniga kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirish davri hisoblanadi. O'quvchining vazifasi shundan iboratki, uning uchun o'qish majburiy, jamiyatda o'rnli faoliyat hisoblanadi. U o'qituvchi, mактаб, oila oldida javobgarlikni o'z bo'yniga oladi. O'zaro muloqot o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida shakllanib boradi. O'qituvchi nafaqat o'mnak ko'rsatadigan inson balki, u bola oldiga qo'yilgan talablarni etkazadigan jamiyat vakilidir. O'quvchining darsda oladigan bahosi uning o'ziga emas balki, o'quvchi majburiyatlarini bajargan bilimiga qo'yilgan obyektiv bahosidir. Mактаб o'quvchisining o'qish faoliyati mazmuniga ko'ra mактабгача yoshdagи bolaning o'ziga xos faoliyat turlaridan farqli ajralib turadi. Bolalarga berilayotgan mактабдаги bilim fanga taalluqli xarakterga ega. Agar shu paytgacha boshlang'ich ta'limga tayyorgarlikni ko'rilgan bo'lsa, endi u xaqiqatdan shunga intilgan guruh bo'lib, u 1-sinfdan boshlanadi. Uquvchi ishining formalaridan biri dars hisoblanadi. Bu darsda har bir daqiqa hisobga olingan bo'lib hamma bolalar o'qituvchining ko'rsatmalariga rioya qilishlari kerak. Mактаб o'quvchisining asosiy hayotiy majburiyati va faoliyati uning shaxs bo'lib shakllanishidagi ruhiy holati va bilimlari oldiga qo'yilagan talablaridan biridir. Mактаб o'quvchisi o'qishga javobgarlikni his qilgan holda yondashishi kerak. Mактаб hayotidagi qonun – qoidalarga rioya qilishi kerak. Yaxshi o'qishi uchun u keng bilim doirasiga ega bo'lishi lozim. Mактаб o'quvchisi shunday sifatga ega bo'lishi kerakki, u bilim olishni, o'qishni bilishi o'qituvchi topshiriqlarini ma'nosini tushunishi kerak. O'z-o'zini nazorat qilishi va o'z-o'ziga baho berish bilimiga ega bo'lishi kerak. Boladagi erkinlik xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Erkinlik nafaqat tashqi ko'rinishida balki, bolaning aqliy faoliyatida, diqqatida, xotirasida, fikrleshida o'z o'mnini topishi kerak. Bola kuzatishni, eshitishni, eslab qolishni, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan vazifalarni echishni bilishi kerak. Bola

hayotdagi voqelik bilan ilm-fanning uzviy bog'liqligini fan o'rganyapti. Bu tushuncha, ketma-ketlik bilan aqliy fikrash doirasida bo'lishi kerak. Maktab ta'limga bolada psixologik tayyorgarlik uning matabga borish davrida shakllanib boradi. Bu psixologik xususiyatlar o'quvchini shakllantiradi va bu uning maktabdagi hayoti va faoliyat davomida shakllanib boradi. Maktabgacha bo'lgan davrda bu xususiyatlar shakllanib, maktab sharoitiga bolalarda istak hosil qiladi. O'qishga xohish, qiziqish uyg'onadi. Ko'pchilik bolalarda bunday xohish maktabgacha bo'lgan davrning so'ngida tug'iladi. Maktab o'quvchisi bulish uchun o'ziga tortayotgan narsa – "Maktab- hayotining atributlari", "Partada o'tirish", "tanaffus", "baholar", "portfel".... Bu narsalar o'quvchilarda shunday namoyon bo'лади: - Maktabda menga yoqadigan narsa... "U erda menga baho qo'yishadi", "Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi, maktabda o'qituvchi" Bunday tashqi vaziyatlar o'qishdan ham ko'ra, jamiyatda o'z o'mini o'zlashtirish va boshqa insonlar o'rtasidagi o'rni bola uchun katta ahamiyatga egadek ko'rindi. Maktabga borish davri bolada psixologik tayyorgarlikni muhim o'rni uning erkin rivojlanishidir. Turli bolalarda bu davr turli xil o'tadi. Lekin 7 yoshga yaqinlashgada 1-sinfga kelishi bilan maktab va o'qituvchi tomonidan qo'yilgan hayotiy faoliyatiga tez kirishib ketadi. Boshlang'ich sinfdagi ta'lim bolalarning o'qish davrida ularning yoshini hisobga olgan holda talablar ham qo'yiladi. Aqliy rivojlanish bolaning maktabga tayyorgarlik vaqtida 1-sinfga kelgan bola uchun bizni o'rab turgan olam narsalar ularning xususiyatlari jonli jonsiz tabiatning hodisalari haqida, odamlar ularning mehnati, "Nima yaxshi-yu-nima yomon?", ya'ni o'zini qanday tutushi kerak, shu kabi zaxira bilimlari bo'lishi kerak. Maktab uchun bolalar tasavurida yig'ilgan bilimlar qanchaligi emas balki ularni to'g'ri va aniqligi muhim rol o'ynaydi. Yaxshi bilim olganda bolalar hodisaning xaqiqiyligini ko'ra bila oladilar. Bunday tasavvurlar bolada maktab ilm fanini o'rganishda katta yordam beradi. Tizimli ravishda har bir fanni o'rganish bu kelajakka intilish hisoblanadi. Agar o'quvchi maktabga va o'qishga qiziqishi etarli bo'lmasa yangiliklar uni qiziqtirmasa o'qituvchi o'zoq muddatda o'quvchi bilan ishlashi, qiziqishini uyg'otishi lozim. Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki boshlang'ich sinflarda ko'proq qiyinchilik ko'proq qiyinchlik tug'diradigan bolalar: maktabgacha ta'lim yoshidan keyin to'liq bilimga ega bo'limgan bolalar emas, balki ba'zi "intellektual passiv" ya'ni o'ylashga firkashga misollar echishga xohishi bo'limgan bolalar ko'proq qiyinaydilar. Misol uchun 1-sinf bolasi bir misolni hech ham yecha olmadi xadeb og'ziga kelgan raqamlari: 5,3,10 deb aytaverdi. Lekin hayotiy misol qilib "Otang senga 1 so'm berdi Onang 1 so'm berdi necha so'm bo'ldi?" deb so'raganda hech o'ylamasdan "Albatta 2" deb javob berdi. Ayrim bolalarda intellektual passivlik sezilganda ular bilan chuqurlashtirilgan

tarzda tarbiyaviy ishlar olib borish kerak. Maktabgacha yoshdag'i bolalar bilim savyasi etarli bo'lsa boshlang'ich sinflarda yaxshi samara beradi. Maktabga borayotgan bola reja asosida predmetlarni o'rganib ularning xususiyatlarini so'zlab berishi kerak. Ular dunyo olam haqidagi tushunchalarni albatta o'qituvchi yordamida to'liq fikrlay ola bilishi kerak. Maktabda bola birinchi kundanoq tashqi muhitdan foydalangan holda o'qituvchi tomonidan topshiriqlar oladi. Shunday topshiriqlardan biri "Chapga, yuqoriga, nuqtadan o'ng pastki nuqtalarni birlashtiring" yoki yana boshqacha topshiriq turi va unga vaqt berish uning bajarilishini kuzatishi kerak. Ayniqsa, bolalarning fikrlashi qobiliyatiga talab kuchli. Bola tashqi muhit hodisalarni aniqlashi, taqqoslashi yoki boshqachaligini farqlay olishi kerak, ularni mulohaza qila olishi lozim. Darsda u o'qituvchini kuzatishi va undan so'ng xulosa chiqara olishi kerak. Bunday fikrlash xususiyatlari shuni ko'rsatadiki maktabga kelgan bola 1-sinf dasturini to'liq egallay oladi. Ruhiy rivojlanishning xususiyatlaridan biri bolaning maktabda o'qishda uning og'zaki, ma'noli, ketma-ket so'zlashib ko'rib turgan narsalarning ta'riflashini bilishi kerak. Bolaning maktabga psixologik tayyorgarligi shaxsiy xususiyalarida namoyon bo'ladi, u sinfdagi jamoaga kirishib borishga, o'z o'mnini topishga intiladi.

Bolalarni oilada maktabga tayyorlashda kun tartibining ahamiyati.
 Olti yoshli bolalarni maktab faoliyatidagi kun tartibi juda murakkab vazifa bo'lib, ayrim ota-onalar bu mas'uliyatni, ayniqsa, bola hayoti va maktabgacha yoshdan o'tish davrida muhimligini his kilmaydi. O'qish davrini birinchi yili 1-sinf o'quvchilariga katta talab qo'yiladi. Bola mehnat tizimiga tayyorlanadi, unda yangi majburiyat va mas'uliyatlar paydo bo'ladi. Unga belgilangandanda ko'proq harakatlanish to'g'ri keladi. Oila tashkil qilib bergen barcha kun tartibi va maxsus shug'ullanish hamda idrok etishga bog'liq ta'limiy faoliyat bolani maktabda o'qishga yaxshi tayyorlash mumkin. Bolalar uchun to'g'ri tashkil etilgan bir kunlik kun tartibini uni nafaqat bilimiga, balki sog'ligini mustahkamlashga yordam beradi.

Kun tartibini birdaniga o'zgarishi bola ruhiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarga kun tartibini to'g'ri tashkil qilish uchun birinchi jadval yordam beradi.

Olti yoshli bolaning oiladagi taxminiy kun tartibi.(1-jadval)

Tartibili lahzalar	Vaqti
Uyqudan turish, ertalabki badantarbiya, yuvinish.	8-00-8.45
Nonushta	8-45-9.15
Sayr	9-15-10-00
Mashg'ulot	10-00-11-00
Sayr, o'yin va ko'ngil ochish toza havoda	11-00-12-45

Tushlik va kundo'zgi uyquga tayyorgarlik		12-45-13-00
Kunduzgi uyqu		13-00-15-00
Mashg'ulot		15-00-16-30
Sayr toza havodagi o'yin		16-30-18-00
Tinch o'yin		18-00-20-00
Kechki uyquga tayyorgarlik, yuvinish, tishini tozalash		20-00-20-30
Uyqu		20-30

Kun tartibi umumiy ko'rsatkich asosida olinib: kunduzi va kechki uyqu, gigiyenik tayyorgarlik, yetarlicha toza havodagi faol harakatdan turli mashg'ulotlarni olish bu navbatma navbat almashtirish va ovqat ratsionidan iborat. Me'yordagi uyqu vaqtida bola organizmi dam oladi uni ishchanlik qobiliyati tiklanadi. Sog'lom bolani har kuni bir vaqtida uqlashga o'rgatsak, tezda ko'nikib, uqlab qoladi. Belgilangan vaqtga bolani uqlashga va uyg'onishga odatlantirish juda muhim. Uyqudan oldin asosan kechki uyqudan oldin bola tinch va xotirjam bo'lishi kerak. Uyqudan oldin kattalar bolalarga kiyimlarini va oyoq-kiyimlarini saranjomlashga o'rgatadilar. Keyin bolalar umumiy gigiyena qoidalarini amalga oshiradilar. Nafaqat gigiyena orqali emas, suv bilan chiniqish asab tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Bu har kuni bir vaqtida amalga oshirilsa, bola tezda uyquga ketishiga yordam beradi. Bola o'rni ozoda, juda qattiq ham yumshoq ham bo'lishi kerak emas. Shu kabi tovushlar, chiroq, radio ovozi, qattiq gaplashish bola uyqusiga xalaqit beradi. Bola tez-tez shamollatib boriladigan xonada uqlashi zarur. Sovuq kunlarda xona harorati +18 gradus bo'lishi kerak. Kechki uyqu 11.5, 12 soatga cho'zilishi mumkin. Maktab yoshidagi bola har kuni kamida 4 soat ochiq havoda bo'lishi shart. Ochiq havoda bolani yurishi uni hayotiy jarayonlarini (moddalar almashinuvi, nafas va yurak qontomir tizimiga) chiniqtirish faoliyatini kuchaytiradi. Qishda sovuq havoda bolalarni ochiq havoda bo'lishi kamaytiriladi, yozda esa bolalar ko'proq kun davomida ochiq havoda bo'lishlari zarur. Bolaning kuni ertalabki badan tarbiyadan boshlanishi kerak. Jismoniy mashq bolalarda kuch va qiziqish uyg'otadi. Badantarbiyadan keyin bolalarda chiniqish holatlari: xo'l sochiqqa artinish yoki sovuq suvda yuvinish olib boriladi. So'ngra bola kiyinadi, tishini tozalaydi, yuvinadi. Sochini tartibga soladi. Shaxsiy gigiyena qoidalarini kuzatishda bolani sog'ligini saqlashga e'tibor berishi shart. Ayni maktabgacha yoshda bo'lgan bolalar murakkab bo'lmagan yangi madaniy-gigiyenik bilimlarni juda tez o'zlashtiradi. Bolalarga gigiyenik yangi bilimlarni o'rgatishda ota-onalar shaxsiy xulq-atvorlari, bolalarga namuna bo'lishida katta ahamiyatga ega. Bolada yuz va qo'li uchun alohida, oyoq uchun sochig'i, tish cho'tkasi, va tish pastasi

bo‘lishi shart. Tishlarni har kuni ertalab va kechqurun tozalash kerak. Bola hayotining 8-yilida kun tartibida ona tili mashg‘uloti, hisoblash, tasviriy faoliyat, loy ishi, qurish-yasash olib boriladi. Maktabdagagi pedagog maslahati otagonalarga bolalari bilan o‘tadigan mashg‘ulotlar tarkibini aniqlashga yordam beradi. Bunday mashg‘ulotlar 1-sinf ishini o‘zlashtirishga tayyorlaydi. Amaliyotda tekshirib ko‘rlgan va o‘zini yoqlagan quyidagi mashg‘ulotni o‘tish davrlari va uning davomiyligi:

Birinchi davr – 3 ta mashg‘ulot, 20 daqiqa , ular orasidagi 10 daqiqani tanaffus bilan.

Ikkinchi davr – 3 ta mashg‘ulot 25 daqiqadan, ular orasidagi 10 daqiqали tanaffus.

Bu davrlarni 1,5-2 oyga o‘zaytirish mumkin. Olimlarning isbotlashicha, 6 yoshli bolalarda faol diqqat davomiyligi 15-20 daqiqa. Shu mashg‘ulotdayoq bolalar charchaydi, ularning mehnat qobiliyati pasayadi va 10 daqiqa o‘tmaguncha ham tiklanmaydi. Shuning uchun ham 2 ta mashg‘ulotni: savodxonlik va hisobni ketma-ket berish maqsadga muvofiq emas. Yaxshisi, 2-mashg‘ulotni harakatli o‘yinlar bilan o‘tkazish kerak. Sayrdan keyin tushlik va uyqu oralig‘ida yana bitta mashg‘ulot o‘tkazsa, 3 ta mashg‘ulotni sekin-astalik bilan o‘tkazish kerak. Bola organizmi «ishga chiqishga» sekinlik bilan ta’mirlanadi. Bu davr 5-6 yoshli bolalarning 80% ida 2 daqiqadan 7 daqiqagacha uzayadi. O‘rtacha hisobda 5-6 daqiqa. Keyin ishchanlik qobiliyati yuqori darajada tiklanadi. Bu qobiliyat o‘zgarishi sog‘lom bolalar uchun belgilangan. Bolalar charchaganida ishchanlik qobiliyati va diqqati tarqoq bo‘ladi. Odatda, u tashqi ko‘rinishda, tez chalg‘ishida, havotirli harakatlarda seziladi. Kichik «jismoniya daqiqa» o‘tkazilishi bolalarni ishchanlik qobiliyati tiklanishiga imkoniyat yaratadi. Kerak bo‘lsa, mashg‘ulot yana 10-15 daqiqa o‘tkazilishi mumkin. Haftani o‘tishida bolaning ishchanlik qobiliyati xarakterini o‘zgarishiga olib keladi. Seshanba kuni 6 yoshli bolalarda markaziy nerv tizimi funksional darajasi yaxshi bo‘ladi va ishchanlik qobiliyati juda baland ko‘rsatkich bo‘ladi. Chorshanbadan shanbagacha bolalarda qisqa mashg‘ulotlarda ham ishchanlik qobiliyati pasaya boshlaganini kuzatish mumkin. Dushanba ertalabki vaqt ishchanlik qobiliyati past bo‘ladi. Bunday ishchanlik qobiliyati o‘zgarishini inobatga olgan holda, bolalarga dushanda va shanba kuni tasviriy faoliyat, loy ishi, applikatsiya, qurish-yasash o‘yinli ta’lim faoliyatları o‘tiladi. Ta’limiy faoliyatdan avval xona shamollatiladi. Kattalar bolalarni ish stolini joylashishi va o‘lchamlariga e’tibor berish kerak. Stolni oyna oldiga shunday joylashtirish kerakki, yorug‘lik chap tomondan tushsin, maktabgacha yoshdalilar uchun, maxsus o‘quvchilar uchun o‘zgaruvchan o‘zunlik va qiya qopqoqqa ega bo‘lgan stolcha-partasi kerak bo‘ladi. Stol o‘zunligi va stul

o'Ichamlari bola bo'yiga mos bo'lishi kerak. O'Icham olishda uning kiyimlari inobatga olinadi.

Stol-stulning o'zunlik o'ichami (sm). 2-jadval

Bolaning bo'yi	Stol				Stul				Uzunligi	eni
	poldan uzunligi	Uzunligi	poldan o'rindiq - qacha	eni	poldan uzunligi	poldan o'rindiq - qacha	eni	eni		
95-99	43	45-50	55	24	21	49	24	19		
100-109	47	45-50	55	27	23	49	26	20		
110-109	52	45-50	55	32	27	49	29	20		
120-129	57	45-50	55	27	27	49	31	22		
130-139	62	45-50	55	27	27	49	31	24		

Agar ta'limiy faoliyatda odatiy stol mavjud bo'lsa, u yog'ochdan tayyorlangan bo'lishi, qiyaligi 12-15 darajada bo'lishi kerak. Bunday stol o'tirishi va ko'zini tasviriy faoliyat bilan shug'ullanishida charchashidan saqlaydi. Kun tartibida bolani o'z tanlovi asosida o'yin va mashg'ulot uchun bo'sh vaqt ajratish kerak. Bu vaqt ni kunduzgi uyqudan keyin yoki kunduzgi ta'limiy faoliyatdan so'ng belgilash kerak. Bo'sh vaqtida bolalar radio dastur eshitishlari mumkin va haftasiga 3 martadan ortiq bo'limgan bolalar uchun televizion dasturlarni ko'rishlari mumkin. Tushlik ovqatlanish bolani me'yordagi jismoniy va aqliy rivojlanishini asosiy shartlaridan biri hisoblanadi va bolani mакtabga tayyorlash shartlaridan biri hamdir. Oziqlanish tarkibi bolada energetik quvvatga hayotiy jarayonlarni charchashiga olib keladi. Bola 5-6 yoshda 2000 kalloriya sutkada qabul qilishi kerak. Bunda oqsil, yog' va uglevod, hayvon va o'simliklar yog'i, mineral tuz va vitaminlar bo'lishi kerak. Ovqatlanish 4 mahal, aniq bir vaqtida bo'lishi shart. Oqsil, yog', uglevod va mineral tuz organizmning asosiy ozig'idir. Ovqat tarkibidagi oqsil va uning sifati organizmni o'sishi va o'sish jarayoniga bog'liqdir. Hayvon oqsilida va bolani ovqatlanishidagi oqsil umumiy tarkibini 60% ga to'g'ri keladi. Hayvon oqsili go'sht, baliq va tuxum tarkibida mavjud. Oqsil yetishmasligi organizmni o'sish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi, turli kasalliklar keltirib chiqaradi. Yog'lar asab va ish uchun asosiy qurilish materialidir. Bolalarga kuchli yog'lar, mol va qo'y yog'laridan foydalanish tavsiya etilmaydi. 1 sutkada yog'dan foydalanish 11 gr o'simliklar yog'ini tashkil etadi. Asosiy energiya manbai – uglevodlardir. Uglevodlar non, kartoshkada mavjud. Bir sutkada qabul

qilingan uglevod 60 gr toza shakar va 10-15 gr qandolat mahsulotiga to‘g‘ri keladi. Ko‘p miqdordagi shakar va shirinliklar bolalarga berish tavsiya etilmaydi. Me‘yordan ortishi sekretsiya va oshqozon yo‘llariga ta‘sir ko‘rsatadi. Ovqatlanish vaqtida stol ustiga suv quyish kerak emas, agar suv quyilsa, bola o‘zi xohlamagan holda unda ichish istagi hosil bo‘ladi. Tushlik odidan bolalarni suv ichishga odatlantirish kerak emas. Suv oshqozon suyuqligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Suv va boshqa suyuqliklar oshqozonda ma’lum hajmda turadi va ovqatga bo‘lgan ehtiyojini kamayishiga olib keladi. Bolalarga sintetik ranglar quyilgan gazli ichimliklar berish mumkin emas. Bolalar uchun eng yaxshi ichimlik – kuchsiz choy, sutli choy, sutli kofe. Tabiiy sharbat va toza qaynagan suvdir. Yangi uzilgan mevalar chanqoqni yaxshi bosadi. Bolalarga shoshmasdan, chappilamay, ovqatni mayda chaynab yeyish, sanchqi, qoshiq va boshqa buyumlardan to‘g‘ri foydalanish o‘rgatiladi. Sog‘lom ishtaha, atrofdagi narsalarni joylashishiga bog‘liq. Toza tushlik stoli, dasturxon solingan. Non ozodalik bilan to‘g‘ralgan, likopchalar chiroyli joylashtirilgan bo‘lishi kerak, Oshxonadagi barcha gigiyenik talablarni bajarilishi uni kun tartibini to‘g‘ri tashkil etilishi katta mакtabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashni yengillashtiradi.

Bolalarni oilada tasviriy faoliyat orqali maktabga tayyorlash. Tasviriy faoliyat (rasmda, loy ishi, applikatsiya) bolalarda nafaqat qiziqish uyg‘otadi, balki ularni o‘rab turgan olamni o‘z ishida aks ettirishda, olamni ko‘z oldida yaxlit holda namoyon etishida va umuman har tomonlama shakllanishiga (estetik, aqliy, axloqiy) turtki bo‘ladi. 1-sinfning o‘quv dasturiga tasviriy faoliyat darslari kiritilgan, Ushbu faoliyatda bolalar rasm chizishga o‘rganishadi. Qog‘oz va loy bilan ishslash qo‘l mehnati dasturiga kiritilgan. Shuning uchun uyida hamkorlikda rasm chizgan, loy bilan ishslash, qirqib yasashga o‘rgangan bolaning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi, qo‘lda bajarish ko‘nikmalari yanada mustahkamlanadi. Tasviriy faoliyat bolaning maktabga psixologik-aqliy tayyorgarligini oshiradi. Buni bolaning o‘zini tutishi va barcha harakatlarni anglagan holda bajarishida ko‘rishimiz mumkin. Rasm chizish, loy bilan ishslash, applikatsiya o‘yinli ta‘lim foliyatlarlari, bolani o‘z vaqtini rejali tashkillashtirishga, boshlagan ishini oxiriga etkazishga o‘z ishini yanada yaxshi va to‘g‘ri bajarishga, yangilik yaratishga, ma’lum ko‘nikma va malakalarni egallashga, diqqat bilan tinglashga va kattalar aytgan vazifalarni bajarishga o‘rgatadi. Tasviriy faoliyat mashg‘ulotini o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan materiallar quydigilar: qog‘oz, qalam, mo‘yqalam, bo‘yoq, elim, qaychi, plastilin va hokazo. Bolalar, asosan, yorqin ranglarni yoqtirishadi, ularni bo‘yoq va qalamlar to‘plam o‘ziga jalb etadi. Bo‘yoqlarni har xil rangdaligi bolalarning dunyonи yorqin tasvirlashga imkon yaratadi va mazmunli rasm solishga turtki

bo‘ladi. Shuning uchun rasmga yaxshi bo‘yoq materiallarini tanlash muhim. Rasm chizish uchun har xil materiallardan foydalanish mumkin, lekin bu hamma material ham muhim degani emas. 12 xil rangdagi qalamlar to‘plami, oddiy qalam (2-3m) mo‘yqalam, akvarel bo‘yoqlari va rasm uchun qog‘oz kabi materialgarsiz bola faoliyatini tashkillashtirib bo‘lmaydi. Albatta turli materiallar rangli mel, bola ishini yanada boyitib ko‘rsatadi va bu rasm chizish jarayoniga katta e’tibor talab qiladi, bola syujetga xos rang tanlashga o‘rganib qoladi, rasm va meteriallar o‘rtasidagi aloqa kabi masalalar bolani fikrlashga da’vat etadi. Har gal yangi-yangi rasm syujeti bilan bog‘liq materialni tanlash ham kerak emas. Bola bir material ustida ishlab uni to‘liq anglab olishi kerak. Kattalar tasviriy faoliyatni uyda tashkillashtirishi, bola ishlashi uchun va material, uskunalar uchun alohida joy, mashg‘ulot uchun kerak bo‘ladigan materiallarni tayyorlashi zarur. Bu bola mustaqil tarzda ishlashi uchun, kerakli narsalarni, chin dildan tayyorlashi va ish oxirida o‘z joyini yig‘ishtirib qo‘yishi uchun zarur. Bolalarni ta‘limiy faoliyat uchun materiallarni oldindan tayyorlashga o‘rgatish kerak: qalamlarni o‘tkirlash, akvarel bo‘yoqlarini namlash ya’ni yumshab mo‘yqalamga oson yig‘ilishi uchun. Bo‘yoq bilan ishlash uchun, maxsus idishda toza suv, yumshoq latta, mo‘yqalam suvini shimishi uchun kerak bo‘ladi. Bundan tashqari rangni aralashtirib, zarur rangni tanlash uchun palitradan foydalanish kerak bo‘ladi. Qog‘ozni rasm albomi va rasm daftaridan olishi kerak. Yupqa yozma varaq va oddiy daftar varaqlaridan foydalanish tavsiya etilmaydi. Loy o‘rnida eng qulayi bu plastilin. Uni kaftlar orasida harakatlantirib, qizdirib, yumshatib olish lozim. Buni bolani o‘zi bajarsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Applikatsiya uchun rangli qog‘ozdan foydalangan ma’qul. Daftar muqovasidan foydalanish ham mumkin. Eng muhimi bola ishiga hurmat bilan qarash kerak. Bola rasm chizayotgan vaqtida unga xalaqit qilishi, xatosini to‘g‘rilash, e’tiborini boshqa narsalarga qaratish kerak emas. Bola diqqatini tez-tez boshqa narsalarga qaratish undagi psixik jarayonlarni buzadi. Rasm va loy ishida: “Qalamni to‘g‘ri ushla”, “Qattiq bosma”, “Rasmni ehtiyyotlik bilan bo‘yagin”, “Shoshilma” kabi gaplar bilan tanbeh berishning o‘zi yetarli. Buni bola jig‘iga tegmasdan sekin murojaat qilgan holda bajarish kerak. Ta‘limiy faoliyat paytida stolga tushadigan yorug‘lik muhim va bolani o‘tirishiga e’tibor qilish lozim. Agar bola biror narsani o‘xshatib chizgisi kelsa-yu lekin o‘xshatishga qiynalsa, odatda kattalarga yordam so‘rab boradi. Bunday holatda qalam ushlab, rasm chizishga shoshilmaslik kerak, chunki bu har doim ham yaxshi samara bermaydi. Rasmni har safar kattalar chizib ko‘rsataversa, bunday bolalar engillikka o‘rganib qolishadi va qiyinchilikni yengib o‘ta olmaydilar. Qiyinchilikni yuzaga kelish sababi, bu bolada ko‘rgazmali narsa haqida aniq tasavvurning yo‘qligidadir. Shuning uchun bola shu narsa haqida to‘liq

ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Agar shu narsani kitob va o'yinchoqlar orqali ko'rish imkoniyati bo'lsa, albatta undan foydalanish kerak. Bola kerakli narsani rasmlar orqali o'zi topsin. Kattalar esa bola rasmni topishi uchun ketgan vaqtini hisobga olishi kerak. Qidiruv uchun ko'p vaqt sarf qilinishi kerak emas, chunki bola diqqati va xayoli boshqa faoliyatga ko'chib, boshlagan ishni oxiriga etkaza olmay qoladi. Bolaga yordam berish, rasmni qidirib topib, diqqat bilan kuzatish kerak. Bola rasm detallarini tushirib qoldiradimi yoki qo'shadimi bu o'ziga havola. Eng asosiysi bola o'z holicha rasm chizsin. Biz bolada asosan maqsad sari intilish hissini shakllantirish va doimo o'z ishini oxiriga etkazish kabi hislatlarni tarbiyalab borishimiz darkor. Har doim ham bola bir mashg'ulotning o'zida boshlagan rasimni oxiriga etkaza olmaydi, sababi, vaqt yetmaydi yoki charchab qoladi. Bunday holda bolaga rasmni keyin davom ettirishini maslahat beriladi. Ba'zida esa bola boshlagan ishini oxiriga yetkazmay turib, «Chizishni xohlamayman», deb turib oladi. Sababi, ko'pincha bola rasmni biron bir detalini chiza olmay qolsa, shunday qila boshlaydi. Aynan nima bolaga qiyinchilik tug'dirayapti, shuni aniqlab, eng ma'qul bo'lgan maslahatni berish kerak. Agar gap bunda emas, balki bola hamma boshlagan ishini ham oxiriga etkazmasligini aniqlansa, unday holda bolaga yumshoq muomalada turib, ishni oxiriga etkazish zarur ekanligi tushuntiriladi. Tasviriy faoliyat natijasi bola tomonidan bajarilgan materiallarda (rasm,applikatsiya, yasalgan figuralar) namoyon bo'ladi. Iloji boricha ota-onalar bolaning qiziqlishi, bajarayotgan ishi haqida suhbatlashishi kerak. Eng avvalo, boladan o'z ishida nimani aks ettira olishi, aynan qaysi detal ustida qiynalayotgani va bajargan ishidan qoniqqanligi haqida gaplashish zarur. Eslatib o'tish joizki, haddan tashqari qattiqqo'llik bolani ijodiy faoliyatini va o'ziga bo'lgan ishonchini so'ndiradi. Shuning uchun tanbehni maslahat tarzida berish maqsadga muvofiqdir. Ko'p maqtov esa bolada o'zboshimchalikni yuzaga keltiradi. Hamkorlikda bajarayotgan ish haqidagi muhokama bolada o'z ustida qayta-qayta ishslash, o'ziga to'g'ri baho berish va kamchiliklarni to'g'rilash kabi xislatlarni tarbiyalaydi. Bu nafaqat mifik tabda, balki hayot davomida ham asqotadi. Rasm mashg'ulotini haftasiga 1-2 marta o'tkazish kerak. Loy ishi ham huddi shunday faqat applikatsiyani haftasiga bir marta o'tkazgan ma'qul. Agar bolada mashg'ulotdan tashqari rasm chizish, qirqish, yasash istagi tug'ilsa, unga imkoniyat yaratib berish lozim.

Mashg'ulot vaqt 25-30 daqiqadan oshmasligi lozim. Shunday paytlar bo'ladiki, bola o'z ishini oxirigacha yetkaza olmaydi. Agar bunga vaqt sabab bo'lsa, albatta bolaga o'z ishini tugatishi uchun vaqt ajratish kerak. Bola bajarayotgan ish uchun ancha vaqt sarf bo'lsa, unday holda bolaga ishni boshqa payt tugatish kerakligini sekin va mayin ohangda tushuntirish lozim. Tasviriy faoliyat mashg'ulotiga

nisbatan bola qiziqishini oshirib borish uchun ularni o'rab turgan olam, tabiat, odamlar, jamiyat hayotidagi hodisalar haqidagi ko'pgina ma'lumotlarni berib borish kerak. Bola bilan suhbat qilish, sayr va ekskursiya uyuşdırış, tabiat hodisalari, hayvon va qushlarni kuzatish, rasmi ko'rgazmalar va qiziqarl kitoblar o'qish bola tasavvurini boyitadi. Kattalar bolani atrofga nisbatan qiziqishini va mehr-muhabbatini oshirishlari kerak. Ota-onalarning bolani o'rab turgan olam, nimalarga e'tiborini qaratish, bo'layotgan hodisalarga berayotgan bahosi ko'p holda bolani olamga nisbatan bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bolani olam haqidagi tasavvurini kengayishida bolalar kitobi va kinofilm, diafilmlarni o'rni katta. Rasm mashg'ulotini o'tkazish yo'llari turli xil bo'lishi zarur. Birinchi holda bola aniq bir predmetni chizsa:(masalan o'simlik) ikkinchi holda o'qilsa, kitobga illyustratsiya qilinadi, unda o'rab turgan olamni tasvirlaydi. Maktabgacha yoshdag'i bolalarning asosiy mavzusi – insonlarni o'rab turgan olamga oid bo'lishi kerak. Bolalarga hamma narsa qiziq ko'rindi, shuning uchun ular o'zi uchun har kuni yangilik yaratishadi. Bolalar o'z tasavvuridagi olamni qog'ozga tushirib, bundan katta zavq olishadi. Ota-onalar esa bolaning texnik qobiliyati, tasavvuri va olam to'g'risidagi tushunchasini hisobga olib qiziqarli mavzu tanlashida yordam berishlari kerak. Tayor ko'rgazmani qog'ozga to'g'ri tushira olish ham bir mahorat. Bola bilan esa kompozitsiyani rasm qog'oziga to'g'ri tushira olish haqida qog'ozga to'g'ri tushira olish haqida gaplashish juda muhim. Bolalar kitobidan ilyustratsiyali rasmlar va rassomlar ishini bolalarga ko'rsatib o'tish zarur. Bolaga shunday materialdan foydalanishni maslahat berish kerakki, rasmda u yoki bu mavzular aniq ko'rinishga ega bo'lsin. Masalan, qish tasvirini bolalar bo'yoq yoki guash orqali aniq tasvirlab bera oladi. Bahor tasvirini akvarelda yoritib bergen ma'qul. Bola hayotidagi biror bir voqeя yoki umumiylar ko'rinishdagi bola qalam yoki bo'yoqlar yordamida qog'ozga tushirishi kerak. Shuni esda tutishi kerakki, qalam bilan chizish o'zoq vaqtini oladi va qalamni kuch bilan bosib bo'yash, uni qattiqligini hisobga olganda bolaga biroz qiyinchilik tug'diradi. Shuni hisobga olib, bolaga katta hajmdagi qog'oz berish tavsiya etilmaydi va bo'yash uchun qalamdan foydalanmagan ma'qul. Agar bola rasmni shoshilib, e'tiborsizlik bilan chizayotgani yoki charchaganini sezsak, unga rasmni keyin davom ettirish ham mumkinligini tushuntirish lozim. Agar syujet ko'rsatmasi yorqin ranglardan foydalanishni talab qilsa, bunday holda guash va temperdan foydalanish kerak. Bola kitobda tasvirlangan illyustratsiyaga xos rasm chizayotganda, ma'lum personajlar harakatiga kirishib ketadi. Ular bilan birga ham xayajonlanadi ham xavotirga tushadi. Syujetdagi ko'pgina personajlarni harakatdagi holatini tasvirlash bolaga qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ota-ona bola imkoniyatini hisobga olib qo'lidan kelgan personajni tasvirlab chizishni tavsiya etishi zarur.

Bolalar uchun ertakning syujetli ko'rgazmali tomonini yoritib berish oson kechadi. Masalan: quyon va bo'g'irsoq uchrashuvi, Zumrad va Qimmat uchrashuvi va hokazo. Lekin bolaga har safar ertakni faqat syujetli tomonini yoritib chizdirlasak noto'g'ri bo'lar edi. Bolalarda fantastik obrazlarni tasvirlash kuchli bo'ladi va ular fantaziyasini o'stirish o'ta muhimdir. Shuning uchun bolaga sehrli daraxt, afsonaviy bog', sehrli qush rasmini chizish tavsiya etiladi. Bu rasmlarda bola ijodiy yondoshishi kerak. Bola bilan oldin suhbat o'tkaziladi: «Ishni nimadan boshlash kerak? Tasavvuringdag'i obrazni qog'ozga qanday tushirasan?» kabi savollar beriladi. Bunday savollar bolaga ko'rgazmani ko'z oldiga keltirib ko'rishiga va anglab etishiga yordam beradi. Rassomchilik san'atining foydali bir ko'rinishi – naturadir. Natura bolani qabul qilish doirasini atrofga nisbatan diqqat va tasavvurini boyitib, kuzatuvchanligini oshiradi. Buning uchun oddiy bir predmet tanlanadi. Masalan barglari aniq bo'lgan alohida-alohida joylashgan uy gullari yoki guldastadagi gul. Tanlangan predmet hammaga yaqqol ko'rinarli qilib qo'yiladi. Bolaga obyektni diqqat bilan kuzatish taklif qilinib, ayniqsa gul va barglarning joylashishi ketma-ketligiga, gul, guldon formasiga nisbatan qiziqish uyg'otiladi. Iloji boricha guldon shaklini qo'l bilan silab ko'rsin. Bolalar o'yinchoq rasmlarini chizishni yaxshi ko'rishadi. Agar bola mavzuga xos rasm chizishga qiyalsa, bunday holda o'yinchoq rasmini chizishga maslahat bering. Buning uchun bolaga chizish oson bo'lgan va bola o'zi tanlagan o'yinchoqni beriladi. Avvalo o'yinchoqning tuzilishiga, shakliga, ranggiga e'tibor berish, o'yinchoq qismlariga diqqat qaratish kerak. Eng qadimgi san'at asarlaridan biri bu dekorativ san'atdir. Odamlar uy, idish va kiyimlarini ushbu san'at ko'rinishi asosida yasatishga urinishgan. Bolalarni ushbu san'at turi bilan tanishtirish o'ta muhim. Ko'pgina shahar va tumanlarda maxsus san'at muzeylari mavjud. Bola ijodkorligi va estetikasini oshirish uchun albatta muzeyga olib borib, san'at turlari bilan tanishtirish zarur. Naqsh va dekorativ kompozitsiyalar yaratishni ko'proq qizlar xush ko'rishadi. O'g'il bolalarni ham bu qiziqarli rasm turi bilan tanishtirish maqsadga muvofiq. Bolani ushbu san'at turi orqali tasavvurini yanada kengaytirish uchun dekorativ mato, ma'lum dekoratsiya asosida yasalgan idishlar, dastro'mol va boshqa turli xil narsalarni ko'rsatib baho berish tavsiya etiladi. Bola diqqatini naqsh elementlariga (geometrik forma, gul, barg, qush) qaratish va ularni naqshda ritmik joylashtirishga ko'maqlashish zarur. Bola rasmlarni qalam va bo'yoqlar bilan bezatishi kerak va ko'ngliga yoqqan dekorativ bezakni tanlashi mumkin. Bola uchun qiyin bo'limgan naqshni tanlab, huddi shunga o'xshatib, naqsh chizishni taklif qilish lozim. Chizilayotgan naqsh elementlari, chiziqlari uzunligi 15-20 sm, eni 5-6 sm ni ko'zdan kechirib chiqiladi. Agar bu bolaga qiyinchilik tug'dirsa, bolaga naqsh elementlarini ma'lum shaklga keltirishni taklif qilinadi.

Masalan: to'rtburchak (dastro'molcha, salfetka) misolida keltirilib, ushbu shakl chet qismi va o'rtasini naqshlar bilan bezatiladi. Doira (likopcha) shaklida esa naqshni o'rtaga yoki o'rta va chetga joylashtirish mumkin. Dekorativ kompozitsiyani yaratishda bolalar ma'lum shakl va shakllarni bir necha marta takrorlab chizishi mumkin, lekin undagi naqshlar turli xil bo'lishi shart. Bola tanlagan rasm mavzulari turlicha bo'lishi kerakligi haqida gapirildi. Bolalar odatda bilgan rasmlarini qayta-qayta takrorlab chizishadi. Bunday holatda bolaning chizish malakasi boyimay, tasavvuri o'smaydi. Shuning uchun har xil mavzu va turli mazmundagi rasmlarni chizdirish foydadan holi emas. Tasviriy faoliyat estetik tarbiyani shakllantirish bilan birga bolani chizish malakasini oshirib, hamda maktabga tayyorlaydi va shu asosda qo'l muskullarini shakllantirib yozishga o'rgatadi. Nafaqat rassomlik, balki tasviriy faoliyatning barcha turlari: applikatsiya, loy, to'qish, qurish-yasash bolani qo'l muskullarini shakllantiradi. Lekin rasm chizish faoliyati boshqa tasviriy faoliyatdan farqli o'laroq, bolani yozishga nisbatan tayyorgarligini oshiradi, sababi ruchkaga yaqin qurollardan (qalam, mo'yqalam) qurollardan foydalanish hisoblanadi. Psixologlar fikricha, yozishni o'rganish uchun grafik va texnik malakalarni kuzatib, bajarish muhim, bunda harf elementini to'g'ri o'xshatib chizish yoki ma'lum harf formasini bir-biri bilan to'g'ri birlashtirish hisobga olinadi. Ta'limiy faoliyat paytida ruchkani to'g'ri ushlab, qo'lni ohista harakatlantirish muhim. Sanab o'tilgan ko'pgina malakalar rasm chizishda qo'llaniladi. Agar bola diqqat e'tiborini to'g'ri o'tirgan holda rasm chizishga o'rgatsak, ya'ni qog'ozni buklamay, suyanmasdan, qalam va mo'yqalamni to'g'ri ushlab, boshlagan ishini oxiriga etkazish kabi faoliyatlarini namoyon qilsak, bola maktabga chiqqach, ma'lum talab va qoidalarga tez ko'nikib ketadi va yozishga qiynalmaydi. Agar kattalar bolalar kattalarga o'tirish va yozish texnikasini o'rgatishmasa, bola maktabda ham noto'g'ri o'tirish va ruchka, qalamni noto'g'ri ushplash oqibatida o'z ishini bilmagan holda barmoqlari bilan yopib qo'yadi. Yozuvga o'rgatish uchun bola qo'l harakatlarini tekis yo'naltirishga o'rgatish kerak. Rasm chizishda bu harakatlarni naqsh elementlarini namoyon etishida ko'rish mumkin. Masalan: rasmni bo'yayotganda qalamni bir tomonga yo'naltirish. Bolaga rasmni shoshilmasdan, ozoda bajarishga o'rgatish kerak. Bola o'z ishi va harakatini boshqara olishi kerak. Masalan: katta guruh tarbiyalanuvchilari rasmni bo'yayotganda belgilangan chiziqdan chiqarmasdan bo'yashlari kerak. Harflarini bir tekisda yozish uchun bolalar barmoq haraktlarni mashq qilish kerak. Bu harakatlar har mashg'ulotda takrorlab va mustahkamlanib boriladi. Mashg'ulotdan tashqari kattalar bolaga oq qog'oz berib, dekorativ san'at turiga xos turli chiziq burma shakllarni chizish taklif qilishlari mumkin. Bolani qo'li qancha

ko'p harakat qilsa, uning mustaqil, tekis va chiroyli yozishi ham shuncha oson **bo'ladi**. Yozuv – o'z qonun-qoidalari va afzalliklariga ega. Bolalarni yozishga **o'rgatish** uchun, ma'lum mashqlar yordamida har mashg'ulotda yozdirishimiz **kerak**. Buning uchu ota-onalarga yordam tariqasida yozuv daftarinini olishimiz **mumkin**. Bola bu mashqlarni tez-tez takrorlab yozish malakasiga ega **bo'lishadi**. Yozuv daftaridagi nuqtalarni birlashtirish asosida harflar yigindisini yoki qisqa so'zni hosil qilishadi. Bola qilgan xatolikni ota-onalar tug'rilab borishi **kerak**. Bola yozayotgan paytda uning qo'l harakatiga, qalam, ruchkalarni to'g'ri ushlab yozishga e'tibor berish kerak. Bola yozuv haqidagi ma'lum ko'nikma va malakalarga ega bo'lgandagina bolani yozishga o'rgatgan ma'qul. Yozishni yanvar va fevral oyidan boshlagan ma'qol. Mashg'ulotni haftada 1-2 marta o'tkazish kerak. Tasviriy faoliyatni barcha turlarini ota-onalar o'zi oilada olib borishlari **mumkin**. Bu bolani estetik tarbiyalaydi va maktabga tayyorlaydi.

Maktabgacha yoshdagি bolalarni oilada, mehnatsevarlik va tashkilotchilik ruhida tarbiyalash mazmuni. Maktabga tayyorlov yoshida bolalarga madaniy sifatlar singdiriladi. Mehnatsevarlik, hamkorlikda ish bajarish hislatlari uyg'ona boradi. Bunday sifatlarning rivojlanishi o'z xulqi va hisxayajonini boshqarishiga, mehnat qilishini qat'iy xohlash va o'rganishga yordam beradi. Tashkilotchilik tashqi ko'rinishda shaxsnинг sifati kabi yig'inchoqlik, aniqlik, tartiblilik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu sifatlarning ichki ko'rinishi tirishqoqlik, o'z harakatlarini rejalshtirishni o'rganish, o'z-o'zini nazorat qilishni amalga oshirishi bilan belgilanadi. Bola hayotining yettinchi yilida tashkilotchilikning ichki va tashqi ko'rinishi kattalar ko'rsatmasini aniq bajarishda, mehnatni qat'iy tartib bilan va aniq muddatida bajarishda, shuningdek, o'z ishini to'g'ri baholay olishi va kamchiliklarini to'g'rilashga intilishida namoyon bo'ladi. Tashkilotchilik xulqini tarbiyalash faoliyati davomida amalga oshadi. Kattalar talabi bola xulqini yo'lga soladi, tashkillashtirishga, tartibga o'rgatadi. Doimiy talablar bolani harakat tartibiga, turli xil harakatlarni almashinuviga o'rgatadi. 3 yoshli bolakay yuvingga dan so'ng nonushta qiladi, so'ng o'ynaydi, o'yindan so'ng sayrga chiqadi. Tabiiyki, maktabga tayyorlov yoshidagilarga o'ziga yarasha talab qo'yiladi. Kattalarning aniq talabini bola tomonidan bajarilishi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki u biron narsani o'z vaqtida va majburiy bajarish zarurligi bilan chambarchas bog'liq. Maktabga tayyorlov yoshi oxirida bola o'ziga yoki jamoaga baravar qo'yilgan kattalar talabini bajaruvchi bo'libgina qolmay, balki o'ziga va boshqa bolalarga nisbatan talablar qo'ya boshlaydi. Bu talablar o'ziga baho berishda va bolalar qilmishiga baho berishida yanada aniq ko'rindi. Bizning jamiyatimizda insonlar faoliyati jamoa hamkorligiga asoslangan va u bolalikdan boshlanadi (oilada, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotidagi

tengdoshlar jamoasida, mактабда, va hokazo) shuning uchun mактабгача yoshдаги bolalarga jamoada yashashni o'rgatish, birga o'yin o'ynash, mehnat qilish, berilgan topshiriqqa javobgarlik bilan qarashni tarbiyalash zarur. Birgalikdagi faoliyat kelishilgan harakatlarni talab qiladi, umumiy his-hayajon va kuyunchakliklarni chaqiradi va shu bilan tashkilotchilik xulqini shakllantiradi. Mehnat qilishni xohlash va o'рганиш birinchi mustaqil o'zi bajaradigan harakatlaridan boshланади. Har bir bola hammaga ma'lum «MEN O'ZIM» degan so'zlarn ishlataldi, ularda o'zi mustaqil nimadir bajarishga birinchi talab aks etган. Bolani mustaqillikka intilishini har tomonlama rag'batlantirish kerak. Oyoq kiyimini bolalar qo'liga bo'ysunmasa ham mayli, bola uni o'zi kiysin. Shunday hol bo'ladiki, bir vaqtida bolalarda emas, balki ularning ota-onasida bolaning biron ishni tamomlashmini kutishga sabrlari chidamaydi. O'g'li yoki qizining xohishiga qarshi ular bolaga yordam berishga yoki ular uchun o'zлари bajarishga shoshiladilar. Natijada ularning mustaqil harakatga birinchi intilishlari so'nadi. Kelgusida mehnatga intilish odatisiz bolaga qanday bo'lishi haqida ular o'ylamaydilar. Vaholanki, aynan kichik bolaning mustaqilligida ilk mehnatsevarlik tug'iladi. Ma'lumki, bolaning mustaqillikka intilishi, o'z yo'lida ko'pgina qiyinchiliklarga uchraydi, qaysiki bu sifatlarni rivojlantirishni qiyinlashtiradi. Qiyinchiliklarni engish bolada qat'iyat, fe'l-atvorni shakllantiradi. Bir tomondan, agar bola mayda-chuydada mustaqil bo'lmay, har narsada boshqalarga ishonsa, hech qanday mehnat yo'llanmasi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. U o'qishni ham o'zining ishi deb qabul qilmaydi, tashqaridan yordam kutadi, uni mustaqil dars tayyorlashga o'rgatish qiyin kechadi. Maktab bo'lsa birinchi kundan boshlab o'zining talablarini qo'yadi, avvalambor mustaqillik talablarini. Mustaqillik mактабгача yoshdagilarning turli bosqichlarda turlicha shaklda bo'lib, turli talablari bilan aniqlanadi. Kichkina mактабгача yoshdagilar endigina birlamchi o'z-o'ziga xizmatga o'рганади. 3-4 yoshli bola stol atrofida tinch o'tirishni, salfetkadan to'g'ri foydalanishni o'рганса yaxshi-ya. Masala birlamchi o'z-o'ziga xizmat ota-ona mehnatini engillashtirishda emas. Muhimi, bola tartibga o'рганади. Mana, u mustaqil kiyimini, oyoq kiyimini yechadi, joyiga qo'yadi, siz endi o'yinchoqlari va kitoblarini joyiga qo'yishni unga kamroq eslatasiz. U endi o'zi tartibsizlikni sezadi, kecha qoldirgan o'yinchoqni yashiqqa soladi, siz tushirib qoldirgan narsani ko'taradi. Kichik mактабгача yoshдаги bola to'g'ri tarbiyalanganda, biron narsani o'zi bajarishga xohish paydo bo'ladi. U likopchalarni stolga qo'yadi, uyni tozalashga, kir yuvishga yordam beradi. Bu oson ishlar, bola o'ynab bajarsada, undan jismoniy va aqliy kuch talab qiladi. Ma'lumki, kichik mактабгача yoshdagilarda natija emas, «bajarish»га qiziqish ustun keladi. Mehnatga intilishni kichkintoy kattalar harakatiga qiziqish

natijasida hosil qiladi. 3-4 yoshda bola ko'pincha xali o'zining ishini baholay olmaydi, uning natijalarini sezmaydi. Shuning uchun bolaga uning arzimasayam o'z kuchi bilan erishgan natijasini ko'rsatish muhimdir. Kichkintoy bola faqatgina yaxshi so'zga emas, shuningdek, kattalar tarafidan yordamga ham munga o'zi bajarolmagan narsada yordam berishi kerak. Katta maktabgacha yoshdagilar mustaqilligi o'z-o'ziga xizmat davomida ko'payadi. 6 yoshli bola mustaqil yuvinish, artinish, tish tozalash, kiyinish va yechinish, kiyimlarni tartib bilan taxlashni bilishi shart. Katta maktabgacha yoshdagilar kiyimini toza tutish, tartibsizlikni sezish va yo'qotish, tugmalarini tikish, kiyim va oyoq kiyimini tozalashni o'rganishlari zarur. Ovqatlanish vaqtida fikri chalg'imasi ligi juda muhim. Bo'lajak maktab o'quvchisida oiladagi doimiy majburiyati bo'lishi yaxshi(masalan, pochta qutisidan gazeta olib kelishi, non sotib olishi, baliqlarni ovqatlantirish, va hokazo). Bola hech qachon qanday yumushni bajarishni bilishi va yodda saqlashi kerak. Mayli, majburiyat ko'p bo'lmasin, muhimi bola ularni zo'rlov bilan emas, xohish bilan bajarsin.Ota-onaning har bir topshirig'ini bola o'z vaqtida, ishtiyoq bilan, tartibli ajarishga erishishi darkor. Katta maktabgacha yoshdagilar uzoq muddat qo'llaridan kelgan ishlarni mustaqil bajarishlari mumkin, bunda nafaqat o'z-o'ziga xizmat, balki o'simliklarga qarash, jonivorlarni boqish, uy tozalash ishlari, balki bundan ham murakkablarini bajarishga layoqatlidirlar. 6 yoshli bola kichkintoylarga rasm chizishga, oson o'yinchoqlar yasash: qog'ozdan qayiqcha, pirpirak tayyorlab berishi, buvisiga kompot uchun qurigan mevalarni saralashga, yo'qolgan oynani topib berishga yordam berishi mumkin. Oson mehnat topshirig'ini ajratib berish bolani uni faol bajarishga undaydi, va u kerakli materiallar tanlab, o'zining harakatlarini rejalashtirishni boshlaydi. Bu endi tashkilotchilik xulqini belgilari borligini bildiradi. Sekin-asta maktabgacha yoshdagagi bola ish bosqichlarini farqlay boshlaydi. Bola mustaqilligi shakllanishida o'z-o'zini nazorat qilish rivoji o'ta muhim. Bu sifat fikrlashni erishilgan natija bilan solishtirish imkoniyatini beradi. Bola kattalar boshchiligidida o'z harakatini faqatgina bitirgandan so'ng emas, balki ish bajarish chog'ida ham baholashni o'rganadi.Maktabgacha yoshdagilarning ish bajarishi qo'yilgan maqsad asosida bo'lishida kattalardan bolalar faoliyatig e'tibor va qo'shimcha ko'tarinkiliklar (rag'batlar, nazorat va x.z.o) ni talab etadi. Ko'pincha bolaga mehnat topshirig'ini bajarishning o'zi emas, balki kattalarning uni bajarganligidagi yaxshi muomalasi ko'proq xursandchilik beradi. Kattalar bolalar mehnatiga jiddiy va kerakli ishga qaragandek munosabatda bo'lishi zarur, bu munosabat bolada mehnat qilishga xohish, qat'iyatni ko'rsatish, ishni oxiriga etkazish xohishini yaratadi. Tashkilotchilik xulqi va mehnat ko'nikmasi asosini tashkil etadigan mustaqillikka maxsus sharoit yaratish, turli mashqlar yordamida erishish mumkin va bu yerda

tezkor muvaffaqiyatga umid qilmaslik kerak. Maktab o'quvchisiga kerakli xislatlar bolada aynan mehnatda paydo bo'ladi. Bunda bola nafaqat oson va o'ziga qiziqarli ishlarni bajaradi, balki kuch va vaqt talab qiladigan ishlarni bajaradi, o'z ishini tartibini o'ylab ko'radi. U boshlagan ishni oxirigacha va muddatida bajarishga o'rganadi. O'z harakatining foydali ekanini his qiladi, mehnatga kuch sarflashdan xursandlik sezadi. Agar maktabgacha yoshdagি bola, uni har qanday majburiyat va tashvishdan hal etadigan tarbiya olsa, unda beparvolik va egoizm rivojlanadi. Ota-onalar maktabgacha yoshdagи bolani keragidan ortiq himoya qilish va uy yumushlaridan bolani doimiy ozod qilish – bolani maktabda ko'pgina noxush holatlarga tushishiga sabab bo'lishini yodda tutishlari darkor. Doimiy majburiyatlarni mustaqil bajarish bolani jiddiy faoliyatga tayyorlaydi, maktabdagi o'qish va turmush tarzi bilan bog'liq birinchi qiyinchiliklarni engib o'tishga yordam beradi. Ayrim holatlar bo'ladiki, bola topshiriqlarni mustaqil bajaradi, ammo hammasini pala-partish xohlamay bajaradi. Ota-onalarning doimo bolalarga namuna bo'lishi kerak. Har bir yumushni jonu-dili bilan sarishta va tezkor bajarishi, boshlagan ishini o'lда-jo'lда qoldirmasligi, bir-biriga yordam berishi kerak. Bolaga turli topshiriqlar berib, siz unda topshirilgan ishni bajarishni o'ziga yarasha tajribasini orttirasiz, o'zini tashkillashtirish, ko'zlagan maqsadga intilish, bilimlarini yaratasziz. Topshiriqlar bolaning doimiy majburiyatiga aylanganda odatga aylanib qoladi, va ularni ortiqcha xohish bo'lmaganda ham bajaradi. Barcha asosiy hayotiy voqealarni aql bilan hisobga olgan qat'iy belgilangan kun tartibiga roya qilish tashkilotchilik xulqini tarbiyalashga yordam beradi. Tartib inson faoliyatini tashkillashtiradi, uni tartiblilikka o'rgatadi. Maktabgacha yoshdan boshlab oiladagi o'rnatilgan tartibni bajargan bolaga vaqtini his qilish paydo bo'ladi. Bolani vaqt bo'yicha ozgina mo'ljal olishga, vaqtidan tegishli harakatni o'zgartiruvchisi sifatida foydalanishga o'rgatish – tashkilotchilik xulqi tarbiyasining maqsadlaridan biridir. Tartibni bajarish aynan bolaga vaqt bo'lakchalarining uzunligini sezishga yordam beradi. Bolalar vaqtidan yanada unumli foydalanishga o'rganadilar. Ular gigiyenik muolajalarni tezilk bilan bajarish hisobiga o'yin va mashg'ulotlar vaqtini o'zaytiradilar. Vaqt intervalini farqlay borib, bolalar o'z harakatlarini vaqt bo'yicha hisoblashga o'rganadilar va belgilangan muddatda ulgurishga harakat qiladilar. Sekin-asta kattalarning, «o'yinchoqlarni yig'ishtir, 5 daqiqadan keyin sayrga boramiz», «yarim soatdan so'ng dadang keladi-ovqatlanamiz» va x.z.o. Muomalalari tushunarli bo'ladi, bolalarda vaqt to'g'risida tushuncha paydo bo'ladi(kecha, bugun, ovqatdan so'ng, kechqurun va boshqalar). Tartib turli faoliyat turlarining almashinuvini ko'zda tutadi, bu organizmni charchashdan saqlaydi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Hamma ota-onalar bola kun davomida nima

qiladi, qanday o'yinlarni yaxshi ko'radi, o'rtoqlaridan qaysi biri yoniga keladi va **ular** bilan qanday o'ynaydi? – deb o'ylab ko'rarmikan. Bola hech qachon ishsiz o'tirmaydi, u doimo nima bilandir mashg'uldir. Harakatsizlik, faol harakatdan **ko'ra** ko'proq charchatadi. Ammo har doim ham bola foydali ish bilan **mashg'ulmi**? O'yin- maktabgacha yoshdag'i bolaning faol harakati.O'yinlar **birgalikdagi** faoliyatda bola talabini qondiradi, o'yindagi hayajonlar bolalarga **yaxshi** xislatlar tajribasini yig'ishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdag'i bola uchun o'yin doimo bola tasavvuri va ongi ishlashi bilan bog'liq bo'lishi,unda **mustaqillik**, tirishqoqlik, chidamlilik, tashkilotchilik xulqini tarbiyalashga yordam berishga intilish zarur. Bolalar qurilish materiallarini o'ynashni juda yaxshi ko'radilar. Bu o'yinlar ularga rejalashtirish qismlarini, rejalashtirish bilimini, o'z fikrini amalg'a oshirish, boshlagan ishni oxiriga etkazishga o'rgatib, tashkilotchilik xulqini tarbiyalashda hamkorlik qiladi. Bolalar qurilishni rasm bo'yicha, chizma bo'yicha va o'z fikrlari bo'yicha tuzadilar. Katta maktabgacha yoshdagilar ham garchi ularning hayotida ko'proq turli-tuman mashg'ulotlar va imkoniga qarab mehnat o'r'in olgan bo'lsa ham, turli o'yinlarni qiziqib o'ynaydilar. Katta maktabgacha yoshdagilarga turli detallardan tashkil topgan «konstruktur» qiziqarlidir. Detallarni yig'ishni o'rganib, fikrlashni, tirishqoqligini, chidamliligini ko'rsatib, bolalar namunadagidek qurilma tuzadilar. Bu fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi. Ota-onada kichkintoy o'yiniga ma'lum talablar qo'yishi kerak. Jumladan:

- bola kattalarga xalaqit bermay, mustaqil o'yin bilan mashg'ul bo'lishni bilishi kerak;

-mehmonga kelgan do'stiga o'yinchoq taklif etishi, kattalar dam olayotganda yoki yosh bola uplayotganda tinchgina o'ynashi, o'ynab bo'lgach, o'yinchoqni joyiga qo'yish;

-katta maktabgacha yoshdagilardan o'zining o'yinchoqlarini toza va tartibli saqlashni talab qilishga haqlidirlar. Agar o'yinchoq sinib qolsa, uni bola bilan darhol tuzatish kerak.

Bola singan va butun, toza va iflos, o'yinchoqlarni bitta qutiga joylashishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Agar ota-onada talabi doimiy bo'lsa, oila bu talabning zarurligini tushunsa, kichkintoy kattalar talabiga muvofiq harakat qiladi. Tartibga, tejamkorlikka o'rgatilgan oilalarda o'yinchoqlar uzoq saqlanadi. Maktab o'quvchisi o'zining o'yinchoqlarini kichik ukalariga yoki do'stlariga bergani yaxshi. Bolalarga yangidan-yangi o'yinchoqlarni sotib olib berishga intilish kerak emas.

Qizchada 10 dan ortiq qo'g'irchoq bor, u ularni o'ynamaydi, balki yana bir «o'quvchi qiz» qo'g'irchog'ini so'raydi. Onasi unga o'sha qo'g'irchoqni olib

beradi. Boshqa oilada bir dona qo‘g‘irchoq «vrach», «qizi», «o‘qituvchi» bo‘ladi, buvisi nevara bilan qo‘g‘irchog‘iga yangi ko‘ylaklar tikadilar. Ota-onalar bolalar ishtirokida o‘yinchoqlarni o‘zлari yasashlari mumkin, bolalar ularni yaxshi ko‘radilar va ularni do‘kondan olingen o‘ymnchoqdan kam bo‘lmagan xohish bilan o‘ynaydilar. Avval aytliganidek, qo‘lda yasalgan o‘yinchoqlar katta pedagogik ahamiyatga ega. Bolalar ularni o‘z o‘yinlarida ishlataladilar yoki do‘stlariga va yaqinlariga tug‘ilgan kunda, 8-martda sovg‘a qiladilar.

Ota-onalar bola o‘rtoqlari davrasida o‘zini qanday tutayotganiga, o‘yin qoidalariga rioya qilayotganligiga e’tibor berishlari kerak. Bolalar o‘yin qoidasi qonunligini, unga rioya qilinishi kerakligini bilishlari kerak. Bolalar o‘yinlarda bajarishni o‘rganishlari kerak bo‘lgan qoidalar tartibi:

- do‘satlari bilan o‘ynaganda ular ham yutishni xohlashlarini yodda tut.
- o‘yin-qarashlarda o‘zingga teng kuchli sheriklarni tanlab ol.
- o‘ynadingmi-ko‘nglingni cho‘ktirma, keyingi safar yutishga harakat qil.
- yutdingmi, mag‘rurlanma, do‘stingni ham shunday o‘ynashga o‘rgat.

O‘yin qoidalari tashkilotchilikni tarbiyalaydi. Kimki qoidalarni bajarmasa, o‘rtoqlarining noroziligiga sabab bo‘ladi va o‘yindan chetlatilishi mumkin. Bolalar qoidani bilib olganlardan keyin va ularni aniq bajarganlarida, o‘yin yanada qiziqarli bo‘ladi. O‘yinlarda bolalar tezlikka, chaqqonlikka, merganlikka musobaqalashadilar va yuqori natijaga erishishga harakat qiladilar. Ko‘pincha 6-7 yoshli bolalar hovlida o‘yin tashkilotchilari bo‘ladilar, rollarni, kim boshlashni belgilaydilar, qoidalarga amal qilinishini kuzatadilar. O‘yinning har bir ishtirokchisi o‘yin qoidalarini bajaribgina qolmay, nafaqat o‘yin ishtirokchisigina bo‘lmay, balki vaqt-vaqt bilan o‘ziga boshlovchilik rolini ham olishi kerak. Ota-onalar bolalar o‘yinini kuzatib turishlari, bolalar o‘zarо kelisholmay qolsalar, kelishmovchiliklarni silliqqina bartaraf etishlari, o‘yin ishtirokchilarning o‘zarо xayriyohliklarni rag‘batlanirishlari kerak. Bolaning xulqi faoliyat davomida shakllanadi: u o‘ynaydi, rasm chizadi, qirqadi, yasaydi, mehnat qiladi. Bolaning chizayotgan rasmni tugatmasligi, kubiklardan qurilmasi yoki qo‘g‘irchoq ko‘ylagi, chizayotgan mashinasи, askarlar uchun qurayotgan qal’asi tamomlanmaganligi, qo‘yilgan maqsadga erishmaganligi kattalar uchun ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin emas. Muhimi, bola behuda vaqt o‘tkazishga o‘rganmasligi. Bunday bola maktab o‘quvchisi bo‘lganda, o‘zini ishga kirishishga, mustaqil bajarishga majburlashi qiyin kechadi. Bolalar majburiyatlardan ozod etilgan, mehnatga chaqirilmagan, dars qilishni va o‘ynashni bilmaydiganlar oiladagiga nisbatan, ota-onalar bolalar tarbiyasi masalalari ustida jiddiy o‘ylanadigan, oila hayotini to‘g‘ri tashkillashtiradigan, bolalar o‘yinlari va mashg‘ulotlarini kengayishiga yordam beradigan oilalarda bolalardagi tashkilotchilik xulqi anchagini yuqoridir.

Menatsevarlikning boshlanishi va tashkilotchilik xulqining tarbiyalashdagi muvaffaqiyatli natijalar ma'lum miqdorda oila va jamiyat a'zolarining barchasini kelishilgan harakatlari va bir xil talablari bilan belgilanadi.

Nazorat savollari:

1. Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan olib boradigan ish mazmuni nimalardan iborat?
2. Maktabgacha yoshdagি bolalarga bolalarga aqliy tarbiya berishda qaysi usullardan foydalaniлади?
3. O'yin qoidalari bolalarda qanday fazilatlarni tarbiyalaydi?

Topshiriq: "Bola tarbiyasida oila bilan hamjihatlik, bolani to'g'ri tarbiyalashni nazorat qilib borish, oila tarbiyasining eng yaxshi namunalarini o'rghanish va ommalashtirish" bo'yicha taqdimot tayyorlang va izohlang.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq. 1997.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'limi to'g'risida»gi Qonuni.
3. Maktabgacha yoshdagи bolalar ta'lif- tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablari. Tuzuvchilar Rasulova M, Abdurahmonova X. va boshqalar. – Toshkent, 2000.
4. Bolalarni maktabga o'qishga tayyorlash (ilmiy maqolalar to'plami). Toshkent: O'z PFITI, 1997.

GLOSSARIY

Amaliy ishlar metodi – o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi usul.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi.

Bakalavriat - mutaxassisliklar yo‘nalishi bo‘yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta’lim olish muddati kainida to‘rt yil davom etadigan tayanch olyi ta’lim.

Bashoratlash – bo‘lajak darsni tashkil qilishining turli variantlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma’qulini tanlab olish.

Baho – ta’lim oluvchilarga ularning ta’lim olishi, bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ijodiy yondashishini rag‘batlanirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish vositasи.

“Bumerang” tehnologiyasi – o‘quvchini mashg‘ulot va mashg‘ulotdan tashqari jarayonlarda turli o‘quv adabiyotlari, muammoli tajriba bajarish mazmuni bilan tanishtirish, fikrni erkin bayon etish hamda muayyan tajribani bajarish davomida uni baholashga qaratilgan tehnologiya.

Bilim – shaxsning ongida tushunchalar, sxemalar, ma’lum obrazlar ko‘rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashtirilgan ilmiy ma’lumotlar majmui.

Bilish - obyektiv borliqning inson ongida aks etish shakli; ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni.

Boshlang‘ich ta’lim - o‘quvchilarga murakkab bo‘lmagan ilmiy bilimlarni berish asosida ularda o‘qish, yozish va hisoblashga oid dastlabki bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirish asosida ularda shaxsiy gigiyena va sog‘lom turmush tarzi elementlarini hosil qilish bosqichi.

«Grafik diktant». O‘quv topshirig‘ini qabul qilish, o‘quv amaliyotini bajarish, ya’ni ixtiyoriy (erkin) e’tibor rivojlanganligi darajasini aniqlash uchun L.A.Venger metodikasi bo‘yicha tashxis o‘tkazish.

Dasturlashtirilgan ta’lim berish (Programmed learning) – dasturlashtirilgan ta’lim berish asosini, tartibga keltirilgan topshiriqlarni namoyon qiluvchi, o‘rgatuvi dastur tashkil etadi. U butun o‘qitish jarayonini boshqaradi.

Dramalashtirilgan masalalar – bu bolalarning kuzatgan, ko‘pincha o‘zlarini bevosita bajargan harakatlarini aks ettiradigan jarayon.

Davlat ta’lim standarti - 1) ta’lim olish shaklidan qat‘ynazar, bitiruvchilar erishishlari zarur bo‘lgan ta’lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat; 2) o‘quv fani bo‘yicha ta’limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat; 3) ta’lim dasturlari mazmunining minimumi, o‘quvchilar tomonidan bajariladigan o‘quv

ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo‘yiluvchi talablar.

Dars – bevosita o‘qituvchi rahbarligida muayyan o‘quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli.

Darslik - muayyan fan bo‘yicha ta’lim maqsadi, o‘quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni beruvchi manba.

Didaktika (ta’lim nazariyasi) – (yunoncha «didaktikos» «o‘rgatuvchi», «didasko» - «o‘rganuvchi») – ta’limning nazariy jihatlari (ta’lim jarayonining mohiyati, tamoyillari, qonuniyatları, o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati mazmuni, ta’lim maqsadi, shakl, metod, vositalari, natijasi, ta’lim jarayonini takomillashtirish yo‘llari va hokazo muammolari) ni o‘rganuvchi fan.

Didaktik o‘yin - o‘rganilayotgan obyekt, hodisa va jarayonlarni modellashtirish asosida o‘quvchining bilishga bo‘lgan qiziqishi va faollik darajasini rag‘batlantiruvchi o‘quv faoliyati turi.

Esse – bu muallifning shaxsiy nuqtayi nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; u qandaydir predmet bo‘yicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni o‘z ichiga oladi.

Jismoniy tarbiya – o‘quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismi.

Fantaziya – xayol, hayotda inson tomonidan idrok etilmagan tasavvur va xayoliy xotiralarning vujudga kelishidan iborat psixik jarayon.

Faoliyat - shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko‘rinishi. Subyektning olam bilan faol o‘zaro munosabati.

Individual o‘qitish – o‘quvchi shaxsiga alohida yondoshgan holda ta’ lim-tarbiya berish.

Innovatsiya – yangidan kiritilgan tushunchalar, tartib-qoidalar, tehnologiyalar va yangiliklar.

Interfaol usul – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik muloqoti.

Joriy nazorat - ta’lim jarayonida o‘quvchilar tomonidan o‘quv dasturida belgilangan muayyan mavzularni o‘zlashtirilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

Hisobot – kundalik ish yakunidagi yozma axborot.

Ijod – yaratish, yangilikni kashf etish degan manolarini anglatadi va insondagi shu jarayonni ifodalaydi.

Ijodkorlik (kreativlik) – bolalarni maksimal darajada ijodiy ibtidoga, o‘z ijodiy faoliyati tajribasini egallahsga yo‘naltirish

Ilmiy dunyoqarash - uzlusiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirot etish natijasida barqarorlashgan dunyoqarash shakli.

Illyustratsiyali masalalar – rangli rasmlar va o‘yinchoqlardan foydalanib bajariladigan masalalar.

Individual yondashish tamoyili – bolalarning yosh xususiyatini, qobiliyatlarini, psixologiyasini hisobga olish kerak degan talablardan kelib chiqadigan tamoyil va bu tamoyil matematikani o‘qitish davomida amalgamoshirilishi shart.

Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqeа-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuv.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea» - g‘oya, tasavvur, tushunchalar yig‘indisi) – muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g‘oya.

Individ – (lotincha «individium» bo‘linmas, yagona, alohida degan ma’nolarni anglatadi) – xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudot.

Individuallik – shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari.

Iqtisodiy ta’lim - o‘quvchilarga xo‘jalik yuritish tizimi (oila budgetini shakllantirish, xo‘jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko‘paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to‘g‘ri tashkil etish va hokazolar) to‘g‘risidagi nazariy bilimlarni berishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» - «Ta’lim to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining qoidalariга muvofiq, milliy tajribaning tahlili hamda ta’lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faoliyikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo‘ljalni to‘g‘ri ola bilish mahoratiga ega bo‘lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirish mazmunini belgilab beruvchi yuridik hujjat.

Kasb-hunar kolleji – o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko‘nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingen kasb-hunar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallah imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta’lim standartlari doirasida o‘rtacha maxsus, kasb-hunar ta’limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Kategoriya - fanning mohiyatini ochib beruvchi eng muhim, asosiy tushuncha.

Kompensatsiya (yunoncha «compensatio» - o'rnini to'ldirish, tenglashtirish) – oliv nerv faoliyatining zahira imkoniyatlariga tayangan holda organizmning buzilgan yoki rivojlanmagan funksiyalarining o'rnini to'ldirish yoki qayta qurish.

Ko'rgazmali metodlar – predmet, hodisa yoki jarayonlar mohiyatini tabiylatda namoyish qilish, ularning maketlarini ko'rsatishda qo'llaniluvchi usullar.

Kasb – bu mehnat faoliyatining barqaror turi bo'lib, u nafaqat aniq bilim va ko'nikmalarni, balki bir xil bo'lgan umumkasbiy bilimlarni ham talab qiladi.

Kompozitsiya - tuzilish, birlashish, bog'lanish degan ma'noni bildiruvchi tushuncha.

Keys-stadi – Case study – (inglizcha case - to'plam, aniq v aziyat, stadi – ta'lim) keysda bayon qilingan va ta'lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo'naltiladigan aniq, real yoki sun'iy ravishda yaratilgan muammoli vaziyatning tahlil etilishiga asoslanadigan ta'lim uslubi.

Kern-Irasek uslubi - Bolalarni tekshiruvdan o'tkazish 4 topshiriqdan iborat bo'lib, undan ko'zlangan maqsad ulardagi maktab uchun zarur bo'lan faoliyatlarini rivojidagi, jumladan, bosh miya chanog'ini analitik va sintetik vazifalari, motorikalaridagi yetishmovchilikni aniqlash. Kern-Irasek metodi bo'yicha bolaning muktabda ta'lim olishga tayyorligi darajasini aniqlash alohida yoki 10-15 boladan iborat guruh bilan bir vaqtning o'zida olib borilishi mumkin.

Konsepsiya – umumiy g'oya yoki biror narsa to'g'risida tasavvur, tushuncha, fikrlar tizimi.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) - o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish.

Matematik model – matematik timsollar, belgililar va hodisalar sinfining taxminiy namunasi, bayoni.

Ma'ruza – o'quv materialini o'quvchilarning idrok etish faoliyatlarini faollashtirish uslublari biian birgalikda davomli og'zaki bayon etish (80-90 daqiqa), berilayotgan materialning sxemmatik modelini tuzish (asosiy fikrni tezis yoki loyiha ko'rinishida yozib olish) va boshqalar.

Me'yor – lotincha so'z bolib, o'Ichov mayor so'zlaridan olinga bo'lib, namuna degan ma'noni bildiradi.

Modulli o'qitish – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u ta'lim oluvchilarning bilim imkoniyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish tizimiga eng yaxshi moslashgandir.

Muammo – o'quv jarayonida hal qilinishi lozim bo'lgan masala, vazifa.

Muammoli ta'lim – muammoni hal etish g'oyasi yotuvchi yaxlit tizim. Muammoli o'qitish ham amaliy, ham nazariy bilish xususiyatidagi muammoli vaziyatlarni hal etish orqali yangi bilimlarni egallashga asoslangan.

Mustaqil ta'lism – insonning o'zi tanlagan vositalar va adabiyotlar yordamida ajlodlar tajribasini, fan va texnika yutuqlarini o'rganishga yo'naltirilgan shaxsiy harakatlari.

Magistratura - aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriat negizida ta'lism muddati kamida ikki yil davom etadigan olyi ta'lism.

Madaniyat («cultura» so'zidan olingen boiib, parvarish qilish, ishlov berish ma'nosini bildiradi) – ijtimoiy taraqqiyot davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilib, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy boyliklar tizimi.

Mazmun (ta'lism (bilim olish) mazmuni) – ta'lism jarayonida shaxs tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ilmiy bilim, amaliy ko'nikma, malaka, fikrlash hamda faoliyat usullari tizimi.

Maktabgacha ta'lism – bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlovchi, unda o'qishga intilish hissinì uyg'otuvchi, uni muntazam ta'lism olishga tayyorlovchi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lism muassasalari hamda oilalarda amalga oshiriluvchi ta'lism bosqichi.

Maktabdan tashqari ta'lism – madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda yo'lga qo'yiluvchi, bolalar hamda o'smirlarning ta'limga bo'lgan, yakka tartibdagi, ortib boruvchi talab-ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqt va dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladigan ta'lism bosqichi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi.

Ma'lumot – ta'lism-tarbiya natijasida o'zlashtirilgan va tizimlashtirilgan bilim, hosil qilingan ko'nikma va malakalar hamda tarkib topgan dunyoqarash majmui.

Menejment – mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish uchun shaxs (xodim) yoki guruhga ta'sir o'tkazish asosida ularning faoliyatini tashkil etish tamoyillari, shakllari, metodlari va usullari.

Metod – yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi.

Metodika (fan sifatida) – xususiy fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Munozara (tarbiya metodi sifatida) – tarbiyalanuvchilarga hissiy-og'zaki ta'sir ko'rsatish asosida ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bahs-munozara usuli.

Nazorat (ta'lism jarayonida) – ta'lism oluvchining bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash, o'Ichash va baholash jarayoni.

Nazariya va amaliyotning birligi tamoyili – nazariy bilimlarning hayotga, amaliyotga bog‘lanishini kengaytira borishni talab qiluvchi tamoyil.

Olam haqida shartli tasavvur – dunyoning yaxlit manzarasi, bolaning olingan bilimlarga shaxsiy munosabati, shuningdek, ularnni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llash malakalarini shakllantirish.

Oila tarbiyasi – ota-onalar (yoki bola kamoloti uchun mas’ul shaxslar) tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Oliy ta’lim - o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriat hamda magistratura) da tashkil etiladigan hamda mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli sohalariga oliy ma’lumotli mutaxassislarini tayyorlab beruvchi ta’lim bosqichi. ,

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim – jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta’lim - kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o‘quv yurtlari va ilmiytadqiqot muassasalarida tayanch doktorantura va doktoranturada ta’lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladigan ta’lim bosqichi.

Oraliq nazorat – o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialining muayyan bob yoki bo‘limlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlash, baholash shakli.

Pedagog kadrlar tarkibi - o‘qituvchi, metodist, tarbiyachi, psixolog, defektolog, logoped, sport instruktori, musiqa, badiiy ijodiyot, radiotexnika, sport va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat ko‘rsatuvchi to‘garaklarning rahbarlaridan iborat mutaxassislar.

Pedagogik talab - turli harakatlarni bajarish, muayyan faoliyat jarayonida ishtirok etishda o‘quvchi amal qilishi zarur bo‘lgan ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini ifodalovchi vazifa; tarbiyaning eng muhim usuli.

Rag‘batlantirish – tarbiyalanuvchining xatti-harakati va faoliyatiga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va uni qo‘llab-quvvatlash usuli.

Rivojlanish – shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon boiadigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon.

Rivojlantiruvchi vazifa – o‘qitish jarayonida shaxsning aqliy, hissiy va irodaviy rivoj lanishi, bilishga bo‘lgan intilishlarini va ijodiy faollikni shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlashdan iborat bo‘lgan vazifa.

Reyting (baholash, tartibga keltirish, klassifikatsiyalash) – muayyan hodisani oldindan belgilangan shkala bo‘yicha baholash.

Sinf – yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo‘lgan ma’lum o‘quvchilar guruhi.

Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi; boshqaruvchi g‘oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Tarbiya – muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida shaxsnı har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.

Tarbiya jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni.

Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etiluvchi hamda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon.

Ta’lim muassasasi Ustavi - ta’lim muassasasiga rahbarlik mohiyatini yorituvchi hamda uning faoliyatini boshqarish tizimini aniqlovchi hujjat.

Ta’lim konsepsiyalari (lotin tilidan «conceptio» – tizim) – ta’lim-tarbiya mazmuni, istiqbolini yorituvchi yaxlit qarashlar tizimi; uzuksiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida ta’lim muassasalari faoliyati yo‘nalishi, maqsad va vazifalarini belgilashning alohida usuli.

Tevarak-atrof – chamlash, oriyentirovka qilish, o‘zi turgan nuqta, yon atrofdagi obyektning o‘ng, chap, oldi, orqa, yuqori, past, yonma-yon, yaqin tomoni.

Universitet – kadrlar tayyorlash va bilimlarning keng sohalari bo‘yicha oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi, yuridik maqomga ega ta’lim muassasasi.

Usul - muayyan o‘quv materialini o‘zlashtirishda qo‘llanilayotgan asosiy ta’lim metodi bilan birga ikkinchi bir ta’lim metodining ayrim elementlaridan foydalanish.

Vaqt xususiyatlari – bu vaqtning bir tomonga yo‘nalib o‘tishi, u tabiat va jamiyatning chiqishi yo‘nalishini ifodalaydi.

Vaziyat- situation-(situatsiya) (keying lotinchadagi situation -ahvol) – muayyan vaziyat, ahvolni hosil qiladigan shartsharoitlar va holatlar uyushmasi

Verbal ifoda – bilim (ma’lumot, axborot)larni so‘z yordamida (og‘zaki) yetkazib berish, ifoda etish.

Shaxs - psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo‘lgan jamiyat a’zosi.

Shkalalash - aniq jarayonlarni raqamlar tizimi yordamida modellashtirish.

Yakuniy nazorat – ta’lim oluvchilarning chorak yoki yarim yillik uchun belgilangan o‘quv materiallari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini aniqlash, baholash shakli.

O‘z-o‘zini baholash – mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat usuli.

O‘z-o‘zini tahlil (nazorat) qilish – o‘z shaxsi, mavjud fazilatlari, xatti-harakati, xulq-atvorini tahlil qilish, mavjud sifatlarni boyitish yoki salbiy odatlarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat usuli.

O‘zlashtirish – ta’lim jarayonida ustuvor o‘rin tutuvchi ijtimoiy talablarga muvofiq shaxs tomonidan muayyan xatti-harakat va xulq usullarining egallanishi.

O‘rgatish – tarbiyalanuvchilar ijtimoiy xulq-atvor ko‘nikmalari, odatlarini shakllantirish maqsadida rejali va izchil tashkil qilinadigan turli harakatlar, amaliy ishlar.

O‘quv fani - ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo‘yicha umumiyligi yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishni ta’minlovchi manba.

O‘quv qollanmasi - 1) ma’lum o‘quv fanlari bo‘yicha metodik materiallar, tushuntirishlar, tavsiyalarni yorituvchi hamda o‘qituvchi yoki o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan manba; 2) muayyan fan bo‘yicha tayyorlangan hamda metodik jihatidan o‘quv-tarbiyaviy jarayonda bevosita foydalanish imkonini beruvchi qo‘srimcha o‘quv materiallari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konsitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. –T.: O'zbekiston, 1997.
3. Ўзбекистон Республикасининг Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T.: O'zbekiston, 1997.
4. O'zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi” qonuni O`R.Q-595.16.12.2019 yil.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021-йилларда мактабгача таълим тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2707-сонли Қарори. 2016 йил, 29 декабрь.
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Мактабгача таълим муассасалари фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида”ги 528-сонли Қарори. 2017 йил, 19 июль.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Мактабгача таълим тизими бошқарувини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5198-сонли Фармони. 2017 йил 30 сентябрь.
- 8.“Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепцияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси мактабгача таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги 2019 йил 8 майдаги ПК-4312- сон Қарорига 1-илова.
- 9.“Умумий типдаги давлат ва нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари тўғрисида” Низом. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 майдаги 391-сонли “Мактабгача таълим ташкилотлари фаолиятини янада такомиллаштириш чора тадбирлар тўғрисида”ги Қарорига 1-илова.
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari” to'g'risida 132-sonli 9 mart 2020 yil.
11. Ўзбекистон Республикасининг ilk va maktabgacha ёшдаги болалар rivojlanishiiga kuyiladigan davlat talablari. Ўзбекистон Республикаси Maktabgacha ta'lim vazirinинг 2018 yil 18 iyundagи 1-mx-son buyrufigiga ilova. <https://nrm.uz>.
12. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. Тузувчилар: Грошева И.В., Евстафева Л.Г., Махмудова Д.Т., ва бошқалар. – Тошкент, 2018 йил.
11. Hasanboyeva.O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lif pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2006.
13. Mavtulov A. Ma'anaviy barkamol inson tarbiyasi. – Toshkent:

O'zbekiston, 2008.

14. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

15. Қодирова Ф., Тошпӯлатова Ш., Аъзамова М. Мактабгача педагогика. – Тошкент: “Маънавият”, 2013.

16. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur sarchashmalari, 2013.

17. Roziqova M., Umarova K., Murodova N. Maktabgacha ta'lif muassasalarining tarbiyalanuvchilari uchun rivojlantiruvchi o'yinlar majmuasi. – Toshkent, 2013.

18. Содикова Ш.А. Мактабгача педагогика. – Тошкент, 2018.

19. Bolangiz matabga tayyormi? – Toshkent, 2011.

Xorijiy adabiyotlar:

20. Researchining effective pedagogy in the early years. Iram Siraj-Blatchford and others. June 2002.

21. Axler S., F.W. Gehring: Graduate Tehts in the Mathematics. Springer. March, 2009.

22. John. C. Sparks: The handbook of Essential mathematics. Air Force Publication. March, 2006.

23. The National Strategies Primary: Numbers and Patterns. December, 2009.

24. Козлова С.А, Куликова Т.А. Дошкольная педагогика. – Москва: Академия, 2002 .

Elektron ta'lif resurslari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.ziyonet.uz

4.www.edu.Uz

MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
“Bolalalarni maktab ta’limiga tayyorlash metodikasi” fanining maqsad va vazifalari.....	5
Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning asosiy yo‘nalishlari.....	13
Maktabgacha ta’lim muassasasiga qisqa muddatli guruhlarda bolalarni maktabga tayyorlash.....	23
Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash shakillari va metodlari.....	31
“Ilk qadam” davlat dasturi asosida bolalarni savodga o‘rgatish.....	37
Bolaning maktab ta’limiga tayyorgarligi tahlili.....	46
Bolalarning maktabda ta’lim olishga tayyorligini tashxislash usullari.....	51
Bolalarning maktab ta’limiga tayyorgarligiga ta’sir etuvchi omillar	72
Maktabgacha ta’lim muassasasi, oila va maktab hamkorligi.....	95
Glossariy.....	126
Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	134

**BOLALALAR NI MAK TAB
TA'LIMIGA TAYYORLASH
METODIKASI**

5111800- Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalar uchun
o'quv qo'llanma

Muharrir:	Halilov Ilhomjon
Musahhih:	Kurbanova Marguba
Sahifalovchi:	Jumabayeva Nodira

«Наврӯз» нашриёти.

Лиц. № AI.170. Манзил: Ташкент, А.Темур кўчаси 19 уй.
10.06.2020 йилда босишга рухсат этилди. Бичими $60 \times 84^1_{16}$.

«TimesNewRoman» гарнитурасида. Офсет усулида чоп этилди.

Буюртма № 18. Адади 100 нусха.

«FAZILAT ORGTEX SERVIS» х/к корхонаси босмахонаси.

Наманган шаҳар, Навои, 72.

«Navro'z»
Nashriyoti

ISBN 978-9943-602-6-2-2

9 789943 602622

A standard linear barcode is positioned within a white rectangular box. Above the barcode, the ISBN number is printed in a small, black, sans-serif font. Below the barcode, the same ISBN number is printed again, preceded by a vertical bar and followed by a vertical bar, indicating it is a standard ISBN-13 barcode.